

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2025-yil, 8-son

Urganch-2025

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.O‘ljayeva – Tarix fanlari doktori, professor

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

U.Jo‘raquloov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Afoqova – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

G.Matyoqubova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).

L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).

V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 8 (29), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

M.XASANOV. Xorazmning Islom davri tarixiga oid manbalar tavsifi.	4
F.ABDUXOLIQOV. O‘zbekiston qo‘lyozma merosida Hofiz devonlari. ...	12
S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Jadidchilik fenomeni va uning turkiy musulmon xalqlar hayotiga ta’siri.	20
S.NAVRO‘ZOV. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Turkiston jadidchiligi harakati namoyandasi.	33
M.MARIMOV. Xorazm xotin-qizlari hayotidagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar (1920 - 1925 - yy).	37
M.RUZIKULOVA. Markaziy Farg‘onada irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari (1950-1991-yillar).	44
A.TURGUNOV. Andijon suv ombori tarixidan	55

FILOLOGIYA

M.ESHMURODOV. Xorazm turkiy tarixnavisligi manbalarida turkiylashgan so‘zlar.	60
B.TO‘XLIEV. Nazariya va amaliyot hamkorligi.	66
A.ARAL, A.ALLAMBERGENOV. Beruniyning o‘zi o‘zbekniki, ammo uning tafakkuri butun olamniki.	77
X.DAVRON. Dovuldek kechgan umr.	85

Muassis:

Urganch innovatsion universiteti NTM

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

TARIX**XORAZMNING ISLOM DAVRI TARIXIGA OID
MANBALAR TAVSIFI**

**Mardonbek
XASANOV,
Urganch davlat
universiteti katta
o'qituvchisi, tarix
fanlari bo'yicha falsafa
doktori**

UO'K 504.23

Annotatsiya: Maqolada Xorazmning ilk islom davri (VIII-XII asrlar) tarixiga oid manbalarning tavsifi keltiriladi. Ibn Xordadbex, al-Beruniy, Mahmud ibn Abbos Xorazmiy kabi mashhur olimlarning asarlari orqali Xorazmning tarixi va geografik o'rni yoritiladi. Shuningdek, Xorazmda ta'lim va ilm-fan rivojlanishi, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются источники, касающиеся истории Хорезма в эпоху раннего ислама (VIII-XII вв.). В статье анализируются работы таких известных личностей, как Ибн Хордадбек, аль-Бируни и Махмуд ибн Аббас Хорезми, которые освещают историческое значение и географическое положение Хорезма. Также предоставляется информация о развитии образования и науки в Хорезме, о социальной и экономической жизни городов.

Annotation: This scientific article describes the sources related to the history of Khorezm during the Islamic period. The article analyzes the works of notable figures such as Ibn Khordadbeh, Al-Biruni, and Mahmud ibn Abbos al-Khorezmi, highlighting the historical significance and geographical position of Khorezm. Additionally, it provides information on the development of education and science in Khorezm, as well as the social and economic life of its cities.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xorazm tarixi, arab fathi, Xorazmda islom, manba, ilm, madrasa, Xorazmiy.

Ключевые слова: Хорезм, история Хорезма, арабское завоевание, ислам в Хорезме, источник, наука, медресе, Хорезми.

Key words: Khorezm, history of Khorezm, Arab conquest, Islam in Khorezm, source, science, madrasah, Khwarezmi.

O'rta Osiyoda arab fathiga qadar yozma manbalar saqlanib qolmaganligini Qutayba ibn Muslimning Eron, Xuroson, So'g'd va Xorazmdagi kohinlar hamda ularning kitoblarini yo'q qilganligini sabab qilib ko'rsatishgan. Al-Beruniyning "Osor ul boqiya" asariga tayangan V. Bartold shu haqida yozib o'tadi [1: 45]. Ammo islomning dastlabki davrlarida yozilgan manbalar bu haqda aniq bir ma'lumot bermasligi o'z-o'zidan uning ehtimoldan uzoqligini ko'rsatadi. Forsda manbalar mavjud bo'lishiga qaramay, O'rta

Osiyo ikki daryo oralig'ida bunday asarlar uchramaydi va xalq og'zaki ijodida islomdan oldingi davr xususida ma'lumotlar uchrashi mumkin.

Xorazmda VIII-XII asrlarda islom dini va madaniyati tarixi mavzusi bo'yicha eng muhim manba Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tobariyning (vaf. 923 y.) dunyo tarixi uslubida yozgan "Payg'ambarlar va podshohlar tarixi" asaridir [2]. Xorazmning fath qilinishi va bu yerdagi keyingi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar to'g'risida Tobariy keltirgan ma'lumotlarning katta qismi bizgacha yetib kelmagan al-Madoiniy (vaf. 848/49 y.) asarlaridan olingan. Madoiniy–Tobariy xabarlarining katta ahamiyati shundaki, aynan ularda biz xorazmiy-arab munosabatlari haqida yilnoma tartibida berilgan ma'lumotlarni topamiz.



Yozma manbalar orasida xorazmliklarning arablarga qarshi kurashlarini Tobariychalik yoritgan asar yo'q. "Tarixi Tobariy" asarining yana bir muhim jihati shundaki, u faqat fath janglarini ta'riflash bilan cheklanmaydi. Asarda arab fathlari davrida Xorazmdagi hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tomonlari, shuningdek tarixiy-geografik sharoitni xarakterlovchi qimmatli ma'lumotlar ham berilgan. Asarda 915 yilgacha bo'lgan voqealar xronologik tartibga solingan.

Musulmon fathlari bo'yicha keyingi juda qimmatli manba Abul Abbas Ahmad ibn Yahyo al-Balozuriyning (vaf. 892/3) "Futuh al-buldon" ("Mamlakatlarning fath etilishi") asaridir [3]. Balozuriyning asosiy

manbalaridan biri yuqorida nomi tilga olingan al-Madoiniy hisoblanadi. Garchi Balozuriy ancha qisqa xabarlar bilan cheklanib, gohida hatto 728 yildagi arablarga qarshi qo‘zg‘olonni tilga olmasa-da, lekin uning ma‘lumotlari Tobariyning xabarlarini to‘ldirib, unga qo‘shimcha bo‘lib keladi. “Futuh al-buldon” asarining eng qiymatli tomoni shundaki, muallif har bir xabarga tanqidiy yondashib, biron mamlakat yoki shahar qilich yoki sulh yo‘li bilan fath qilinganigacha yozadiki, shuning uchun ham u ishonchli va mo‘tabar manba hisoblanadi. Bizgacha yetib kelgan asar matni 90 bobdan iborat bo‘lib, u 622 yildan 869 yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga qamrab oladi.



Xorazm tarixi bo‘yicha ba‘zi ma‘lumotlarni arab tarixchisi va geografi Abul Abbas Ahmad ibn Is‘hoq al-Yaqubiy (vaf. 897) ham o‘zining “Kitob al-buldon” (“Mamlakatlar kitobi”) asarida sanab o‘tadi [4]. O‘lka tarixiga oid ma‘lumotlarning juda kamligiga qaramasdan, al-Yaqubiyning bu asarida biz boshqa zamondosh mualliflarning kitoblarida uchramaydigan alohida tafsilotlarni topamiz. Ayniqsa, xalifalik poytaxti Bag‘dodda istiqomat qilgan xorazmliklar haqidagi xabar biz uchun alohida e‘tiborlidir [4: 27].

Xorazmning tarixiy-geografik holati, ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayoti masalalari bo‘yicha muhim ma‘lumotlarni al-Istaxriy, Ibn Havqal, Ibn Xordadbex, al-Muqaddasiy va Yoqut asarlaridan topish mumkin.

Istaxriyning 930-933 yillarda yozilgan “Kitob masalik al-mamalik” (“Mamlakatlar yo‘llari kitobi”) asari asosida unga qo‘shimchalar kiritib Ibn Havqal 951 yildan so‘ng o‘zining “Kitob al-masalik va-l-mamalik” (“Mamlakatlar va yo‘llar kitobi”) asarini yozadi.

Istaxriy va Ibn Havqal boshida tog‘lar, soylar va iqlimlarning ta‘rifini berib, keyin suv chiqarish ishlari, dehqonchilik, bog‘dorchilik, tabiiy qazilmalar, savdo-sotiq buyumlari, karvonsaroylar, rustoqlar, shaharlar haqida, shuningdek aholi xarakterining ba‘zi jihatlari, xususan, mehmondo‘stligi, jasur va botirligi haqida ahamiyatli ma‘lumotlarni yozganlar. Qayd etish kerakki, ayrim hollarda Istaxriyga qaraganda Ibn Xavqalning ta‘rifi birmuncha batafsil va izchilroq [5: 11].

Xorazm haqida xuddi shunday, ammo Istaxriy va Ibn Havqalga qaraganda bir qadar qisqacha ma‘lumotlarni al-Muqaddasiy (vaf. 1000) o‘zining 985 yilda yozgan “Ahsan at-taqosim fi ma‘rifat al-aqolim” asarida beradi [6]. Asarning qiymatli tomoni Muqaddasiy (Maqdisiy) unda xorazmiylardagi ilm-fanga bo‘lgan muhabbatni yuksak baholab, Xuroson shaharlarida ta‘lim oladigan xorazmlik yoshlarning juda ko‘pligidan xabar berishidadir.

Xorazm iqlimi haqidagi ayrim geografik ma‘umotlar Ibn Xordadbexning (vaf. 912) 846/7 yilda yozgan va 885/6 yilda qayta ishlagan “Kitab al-masalik va-l-mamalik” (“Mamlakatlar va yo‘llar kitobi”) asarida uchraydi [7]. Muallif alohida joylar orasidagi masofalarni ko‘rsatib, ularga olib boradigan yo‘llarni qisqacha tavsiflaydi. Xorazmning geografik holatini ta‘riflay turib, Ibn Xordadbex IX asrda Xorazm va Kurdarning birgalikda xalifalik xazinasiga yuborib turgan yillik xiroji (489 000 xorazmiy dirhami) to‘g‘risida ham ma‘lumot bergan.

Xorazmning qadimgi tarixiga bag‘ishlab mahalliy tarixchi Mahmud ibn Muhammad ibn Abbos ibn Arslon al-Xorazmiy (vaf. 1173) “Xorazm tarixi” asarini yozgan bo‘lib, imom Subukiya ko‘ra, u sakkizta katta jilddan iborat bo‘lgan [8]. Hadis, tarix, tasavvuf va shofe‘iy mazhab fiqh olimi bo‘lmish Ibn Abbos Xorazmiy Nizomiya madrasasida ham dars bergan. Diniy va falsafiy ta‘limot haqidagi mashhur kitob muallifi, faylasuf ash-Shahrisoniy haqidagi qiziqarli hikoyani Yoqut aynan tarixchi Mahmud Xorazmiydan olganligi bayon qilingan.

Abu Mansur as-Saolibiy (vaf. 1038) mashhur arab adiblaridan biri sifatida 200 ga yaqin asar yozgan va uning hayoti hamda faoliyati Movarounnahr va Xorazm tarixi bilan aloqadordir. As-Saolibiy Somoniylar

hukmronligi davrida, ya'ni 992-993 yili Buxoroda bo'lib, bu yerdagi bir qator ijod ahli bilan o'zaro suhbat va munozaralarda ishtirok etgandan so'ng Xorazm diyoriga keladi va o'sha vaqtdagi hukmdor Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1017) saroyida bir muncha vaqt bo'lgan, Xorazmshoh bilan o'zaro hamsuhbat bo'lgan. As-Saolibiy Ma'mun ibn Ma'mun haqida asarlar yozganligi ham ta'kidlanadi [9: 118].

Abu Mansur as-Saolibiy xorazmlik mashhur adib va shoir Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy (vaf. 993) haqida ma'lumot berib o'tadi [10: 101]. Aslida Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy as-Saolibiyning ustozi bo'lgani va uning o'z ustozidan Nishopurda saboq olganligi manbalarda qayd etilgan. Saolibiy Beruniyga zamondosh xorazmlik adib va shoirdan Damashq ajoyibotlarini eshitganligini so'zlab beradi [9: 119]. Uning "Yatimat at-dahr" asari o'zbek tilida ham nashrdan chiqqan [11].

Astronom va matematik Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (vaf. 1048) tomonidan yozilgan ko'plab tarixiy asarlar qatori "Xorazm tarixi" kitobi ham sanab o'tilgan. Ammo bu tarixiy asar bizga qadar yetib kelmagan. Bayhaqiy G'aznaviylar hukmdori sulton Mahmudning mamlakatni istilo qilish voqeasini aynan shu asarga tayanib yozgan [1: 66]. Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asaridagi qimmatli dalillar ichida Xorazmga oidlarini ham ko'plab uchratamiz [12].

Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyni (vaf. 1166) "Kitob al-ansob" asarida geografik ma'lumotlar qatori islom dini rivojiga hissa qo'shgan o'sha davrning taniqli shayxlari va ularning biografiyasi haqida dalillar ham o'rin olgan bo'lib, unda xorazmlik olimlarga ham katta o'rin ajratilgan [13: 87-94]. Asli marvlik hisoblangan as-Sam'oniy 1155-1156 yillarda Movarounnahr va Xorazmda bo'lgan.

Fors adabiyotining ilk tazkisasi bo'lgan "Lubob ul-albob" muallifi Muhammad Avfiy ham (vaf. 1232) bir muddat Gurganjda yashab, shaharda Majididdin Bag'dodiyning hizmatida bo'lib, bir qancha olimlar bilan tanishadi. Avfiy shaharda bo'lgan vaqtda (1203 y.) Gurganj davlatning boshkenti bo'lib, o'zining eng porloq davrini yashayotgan edi. Shaharda ilm odamlarining ko'pligini ko'rgan Avfiy, "bu shaharda ilm ahli Ko'k yuzidagi yulduzlar kabi ko'p", deya hayratga tushadi [14: 249].

Xorazm tarixiga nisbatan katta qiziqish uyg'otadigan, o'rta asr manbalari orasida o'xshashi bo'lmagan asar musulmon mamlakatlaridagi qariyb barcha shaharlar va joylar to'g'risida ma'lumotlar yig'gan va taqdim qilgan olim, yozuvchi, filolog, sayyoh, tarixchi va geograf Shihobiddin Abu Abdulloh Yoqut al-Hamaviyga (vaf. 1229) tegishli bo'lib, bular "Mu'jam al-

buldon” (arab jo‘g‘rofik bilimlarini umumlashtirgan asar bo‘lib, 16 000 maqoladan tarkib topgan) hamda “Irshad al-arib ila ma‘rifat al-adib” (biografik-ensiklopedik asarda VII-XIII asrlarda 1100 arab adibi va olimlari haqida ma‘lumot yozib qoldirgan) asarlaridir [14]. Muallif aynan Xorazm yerlariga sayohat qilgan vaqtida mo‘g‘ullarning yaqinlashib kelayotganligini bilib, bu hududdan chiqib ketgan.

Xorazmning ilmiy-madaniy hayoti to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar arab tarixchilari Ibn al-Asirning (vaf. 1233) “Al-komil fi-t-tarix” va Ibn al-Kasirning (vaf. 1373) “Al-bidoya va-n-nihoya” asarlarida ham uchraydi. Bu manbalardagi Xorazm fathi bo‘yicha deyarli barcha ma‘lumotlar “Tarixi Tobariy”dan olingan bo‘lsa-da, lekin mintaqaning XI-XII asrlardagi tarixi haqidagi ma‘lumotlar diqqatga sazovordir. Xorazmshoh ma‘muniylar nomi bilan bog‘liq madrasa bunyod etilishi birinchi marta Ibn Kasir tomonidan eslab o‘tilgan bo‘lib, bu madrasa X asrning oxiri yoki XI asrning boshida qurilgan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, xorazmshoh sulton Alouddin Takesh davrida Xorazmda shofe‘iylar va hanafiylar uchun madrasalar qurilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ahamiyati kattadir [15:22].

Shihobiddin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy (vaf. 1231 yildan so‘ng) o‘zining “Siyrat as-sultan Jaloladdin Mangburni” asarida mamlakatning siyosiy tarixini bayon qilish bilan birgalikda ilmiy hayotiga ham to‘xtalib o‘tadi. Xususan, u katta faqih Shihobiddin Xivaqiyning beshta madrasada dars bergani hamda shofe‘iylarga madrasa va juda katta kutubxona ochib berganini qayd qiladi [16: 71-72].

Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiyning (vaf. XI asr boshi) arab tilida yozilgan “Tarix al-Yaminiy” asarida ma‘muniylar sulolasi davriga oid davlatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. “Tarix al-Yaminiy”da Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga ham oid muhim ma‘lumotlar keladi. Unga ko‘ra, xorazmlik olim tavsiyasi bilan Qoraxoniylar va Ma‘muniylar o‘rtasida do‘stona aloqalar o‘rnatilgan [14: 235].

“Tarixi Mas‘udiy” asari muallifi Abul Fadl Muhammad ibn al-Husayn al-Bayhaqiy (vaf. 1077) G‘aznaviylar davlatida kotib vazifasida ishlagan tarixchi olim va davlat arbobi bo‘lib, uning 30 jildik “Tarixi Mahmud” asarining faqat sulton Mas‘ud hukmronligi (1030-41) davriga oid qismigina saqlanib qolgan va u “Tarixi Mas‘udiy” yoki “Tarixi Bayhaqiy” nomi bilan ham mashhurdir. Asarda ma‘muniylar va oltuntoshlar sulolalari davrida Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan tashqari ilmiy-madaniy hayotga

oid ma'lumotlarning ham aks etishi uning qiymatini yana-da oshiradi. Xususan, muallif olimlarning davlatning ichki va tashqi siyosatida tutgan mavqeini xorazmshoh Abul Abbos Ma'munga yetti yil xizmat qilgan, kerak vaqti eng yaqin maslahatchi va eng ishonchli elchi vazifalarini bajargan Abu Rayhon Beruniy timsolida tasvirlab bergan. Bayhaqiy al-Beruniy tilidan quyidagi so'zlarni yozadi: "Bir kuni Xorazmshoh ot minib uyim yoniga kelib, meni chaqirishlarini buyurdi. Uning oldiga kech chiqdim. U otini uyim eshigigacha haydab keldi. U otdan tushmoqchi edi, men tushmasin deya, unga ta'zim qildim. U aytdi: "Ilm eng sharaflilikdir. Uning yoniga barcha kelur, lek u kelmas" [17: 16].

Imom Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy (vaf. 1348) "Siyaru a'lamin nubalo" ("Mashhur daholar siyrati") asarida ko'plab xorazmlik hadis roviylari, muhaddislar va faqihlar haqida, shuningdek imom Buxoriyning xorazmlik do'stlari haqida ham ajib ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Shuningdek, ilmiy maqomga ega xorazmshohlarni ham, ayniqsa sulton Takeshni go'zal ta'riflar ila e'tirof etgan [18].

Mashhur ispaniyalik sayyoh Abu Hamid al-G'arnotiy (vaf. 1170) boshqa mamlakatlar qatori Xorazmga ham kelgan va bu yerda ko'plab olimlarni uchratgan. Shulardan biri hanafiy olimlaridan al-Muvaffaq Ahmad ibn Muhammad al-Makkiy al-Xorazmiydir (v. 1172). Andalusiyalik sayyoh Alouddin Otsiz davridagi Xorazmni shunday ta'riflaydi: "Xorazmliklar – chinakam olimlar, shoir va oliyjanob kishilardir" [19: 46].

Boshqa o'rta asr tarixchi va geograflariga kelsak, ular yuqorida eslab o'tilgan mualliflarning ma'lumotlarini u yoki bu darajada takrorlay turib, ularni juda oz tafsilotlar bilan to'ldirishadi, xolos.

Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan 4830 raqamli qo'lyozmaning 108b-varag'ida shu qo'lyozmadagi geometriyaga oid bir asarni Muhammad ibn Berqoq ibn Jubon (Cho'pon) otli kishi Bag'doddagi Nizomiya madrasasida hijriy 727 yilda (milodiy 1327) o'qib tadqiq qilgani va bu risoladan foydalangani to'g'risida qayd mavjud. E'tiborli jihat shundaki, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qalamiga mansub o'nga yaqin asar ham mazkur qo'lyozmadan o'rin olgan. Demak, o'rta asrlarda sharqdagi madrasalarning mudarris-lari-yu talabalari Xorazmiyning asarlarini o'qishgan va ulardan o'z ilmiy izlanishlarida foydalanishgan. Birinchi Uyg'onish davridagi turkistonlik mutafakkirlarning asarlari madrasada o'qitilmagan, degan fikr asossiz ekanligi bu ma'lumot orqali anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М., 1963.
- [2] The history of al-Tabari (Ta'rikh al-rusul wa'l-muluk). New York, 1994.
- [3] Ал-Балозурий, Абул Аббос Аҳмад инб Йаҳйо. Футух ал-булдон (Хуросоннинг забт этилиши). Тошкент, 2017.
- [4] Ал-Йа'куби. Книга стран (Китаб ал-булдан). Пер., комментарии и указатели Л.А. Семенов. М., 2011.
- [5] Джалилов А. Согд накануне арабского нашествия и борьба согдийцев против арабских завоевателей в первой половине VIII в. Сталинабад, 1961.
- [6] Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma'rifatil aqolim (arab tilida). Qohira, 1991.
- [7] Ибн Хордадбех. Книга путей и стран. Баку, 1986.
- [8] Мирзаев Б. Хоразмнинг биз билмаган муҳаддис ва тарихчиси. // URL: <https://www.bukhari.uz/?p=19550>
- [9] Сулаймонова Ҳ. Абу Мансур ас-Саолибий тазкираларида Абу Бакр ал-Хоразмий ҳақидаги маълумотлар // Мерос, №1/2019.
- [10] Саолибий, Абу Мансур. Китоб ал-латоиф ва ал-маориф (Ажойиб маълумотлар ҳақида китоб). Тошкент, 1987.
- [11] Саолибий, Абу Мансур. Йатимат ад-даҳр фи маҳосин ал-‘аср. Т., 1976.
- [12] Беруний, Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия). Тошкент, 2020.
- [13] Самъоний, Абдулкарим. Насабнома. Тошкент, 2017.
- [14] Orazsahedov A. Tarihte Gürgeç şehri. Doktora tezi. Konya, 2018.
- [15] Dursun G. Harizmşahlar devleti'nde ilmi hayat. Doktora tezi. Istanbul, 2015.
- [16] Насавий, Шихобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. Камол Матёкубов таржимаси. Тошкент, 2006.
- [17] Байҳақий, Абул Фазл Муҳаммад ибн Ҳусайн. Тарихи Байҳақий. Т., 2020.
- [18] Заҳабий, Шамсиддин Муҳаммад ибн Аҳмад. Машхур даҳолар сийрати. Т., 2017.
- [19] Путешествие Абу Хамида ал-Гарнати в Восточную Европу и Центральную Европу (1131-1153 гг.). М., 1971.

TARIX

O‘ZBEKISTON QO‘LYOZMA MEROSIDA HOFIZ DEVONLARI



**Firdavs
ABDUXOLLIQOV,**
O‘zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o‘rganish va
ommalashtirish
bo‘yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san‘atshunoslik
bo‘yicha falsafa
doktori.

UO‘K 95.15

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistondagi Qo‘lyozmalar va Sharqshunoslik institutlari fondida saqlanayotgan Hofiz devonlari tahlil etiladi. Qo‘lyozmalarning farqli jihatlari taqqoslangan holda ilmiy tadqiq qilinadi.

Аннотация: В статье анализируются диваны Хафиза, хранящиеся в фонде Института рукописей и востоковедения АН Узбекистана. Сравниваются и научно изучаются различные аспекты рукописей.

Annotation: This article analyzes the Hafiz divans kept in the Fund of the Institute of Manuscripts and Oriental Studies in Uzbekistan. The different aspects of the manuscripts are compared and scientifically studied.

Kalit so‘zlar: devon, g‘azal, miniatyura, institut, qo‘lyozma, she‘riyat, kotib.

Ключевые слова: диван, газель, миниатюра, институт, рукопись, поэзия, секретарь.

Key words: divan, ghazal, miniature, institute, manuscript, poetry, secretary.

Markaziy Osiyo xalqlari jahon tamadduni rivojiga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomalari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Ular yaratib qoldirgan ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar bugun dunyoning turli nuqtalarida, xorij to‘plamlari, jamg‘armalari, kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda.

Bu masalaga davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq qilish va targ‘ib qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy yodgorliklarni tadqiq etish markazini ta‘sis qilish to‘g‘risida”gi qarorlarida bu masalaga to‘xtalib o‘tilgan¹.

“O‘zbekistonga oid 100 nodir qo‘lyozma” loyihasi ham ana shu ezgu maqsadga qaratilgan bo‘lib, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodni xalqimizning boy madaniy merosiga bo‘lgan ehtiromi va qiziqishini yuksaltirish, xorijdagi madaniy yodgorliklarimizni kashf etish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan.

¹ <https://lex.uz/docs/3211987>

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Navoiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Nodira, Uvaysiy kabi atoqli shoir va shoirlar munosib o‘rin tutadi. Ularning she‘rlari bitilgan nodir kitoblari dunyo bo‘ylab tarqalgan.

Londondagi Britaniya kutubxonasida hazrat Navoiyning bir qancha qo‘lyozmalarini ko‘rish mumkin. Masalan, 1482/1483-yillarda ko‘chirilgan “G‘aroyib-us sig‘ar” devoni o‘zining moviy va tillarang bezaklari, nafis miniatyuralari bilan ajralib turadi.

Rossiya fanlar akademiyasi Sharqiy qo‘lyozmalar institutining nodir javohirlaridan biri Xusayn Boyqaroning 154 g‘azalidan iborat devonidir. U hukmdorpning shaxsiy ko‘rsatmasiga binoan Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan, tillarang naqshlar va miniatyuralar bilan bezatilgan.

Rossiya milliy kutubxonasida Alisher Navoiy “Xamsa” asarining noyob qo‘lyozmasi saqlanadi. U yupqa yaltiroq qaymoqrang qog‘ozda ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning jildi tillarang naqshli charmdan tayyorlangan. Shuningdek, bu yerdan Navoiyning 1465-1466-yillarda ko‘chirilgan “Ilk devon”i, “Xamsa”si, miniatyurali Kulliyoti, “Majolis un-nafois” tazkirasining boshqa qo‘lyozmalari saqlanmoqda.

Ushbu kutubxonada Nizomiyning imperator Aleksandr II ga Buxoro amiri Muzaffarxon tomonidan sovg‘a qilingan “Xamsa”si mavjud. Qo‘lyozma yetti nafar mohir rassom tomonidan ishlangan 61 betakror miniatyura bilan bezatilgan.

“O‘zbekistonga oid 100 nodir qo‘lyozma” loyihasi doirasida bir qator mamlakatlarda, yirik kutubxona va muzeylarda, ilmiy va ta‘lim muassasalarida bo‘ldik. Ochig‘i, buyuk ajdodlarimiz yaratgan tafakkur durdonalari dunyoning eng qudratli davlatlarida, eng nufuzli ilmiy markazlarda ko‘z qorachig‘idek saqlanayotgani har birimiz uchun quvonarli holdir.

Ammo, ularni o‘rganish, hech bo‘lmaganda faksimile nusxalarini yurtimizga qaytarish lozim. Va bu murakkab vazifani bajarish yuzasidan bir qator ishlar bajarildi. AQSh va Yevropa mamlakatlaridagi ekspeditsiyalar davomida ko‘plab kutubxonalar, ilmiy markazlar rahbarlari bilan muzokaralar olib borildi, ulardan nusxa olish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi¹.

Ayni paytga qadar mazkur loyiha doirasida “Katta Langar qur‘oni”, Mir Haydar Xorazmiyning “Me‘rojnoma”si, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Husayn Boyqaro devoni, “Temur tuzuklari”, Mirxondning “Ravzatus-safo” asarlari faksimil nusxalari yaratildi va mamlakatimizning turli ilmiy va madaniy muassasalariga beg‘araz tuhfa qilindi.

“O‘zbekistonning 100 buyuk qo‘lyozma durdonalari” loyihasi muvaffaqiyatli boshlandi va ilk samaralarini bera boshladi. Oldinda ko‘plab

¹ Абдуҳолиқов Ф.Ф. Ўзбекистон маданий мероси дунё олимларини бирлаштирмоқда // «Мозийдан садо» илмий-амалий, маънавий-маърифий, рангли журнали. – Тошкент, 2022, № 4/96. – Б. 7-10.

murakkab vazifalar turibdi. Mazkur to‘plam shartli ravishda 100 ta qo‘lyozmani o‘z ichiga qamrab oladi. Bu O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyatining nodir qo‘lyozmalarimizni izlab topish va o‘rganishdagi muhim qadamlaridan biri bo‘lsa, ajab emas.

Mazkur qo‘lyozmalar orasida fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandasi Hofiz Sheroziyning “Devon”i alohida o‘rin tutadi.

Ma’lumki, Hofiz Sheroziy 1326-yili Eronning Sheroz shahrida tug‘ilgan. Hofiz butun umr o‘z shahri Sherozda umrguzaronlik qilgan. Umri davomida forsiy tilda betakror g‘azallar bitgan. Uning she’rlari hayotlik davridayoqi turli mamlakatlarni zabt etgan. Hofiz Sheroziy 1389-yilda vafot etgan. Shoirni o‘zi yoqtirgan Musallo bog‘ida dafn etadilar. Uning maqbarasi va atrofdagi bog‘ keyinchalik shoirning sharafiga Hofiziya nomini olgan. Hofiz she’rlarining dovrug‘i mamlakatlar osha, qit’alar osha Mag‘ribu Mashriqqa yoyilgan¹.

Biz “O‘zbekiston madaniy merosi” turkumidagi kitob-albomlarimizda buyuk shoirning O‘zbekiston hududida ko‘chirilgan yohud ayni paytda O‘zbekistonda saqlanayotgan bir qator nodir qo‘lyozmalarini kiritganmiz. Jumladan, ushbu turkumning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti to‘plamiga bag‘ishlangan XXIII jildida ham Hofiz qo‘lyozmalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Shoirning eng go‘zal va nafis qo‘lyozmalaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan №730-sonli “Hofiz devoni” qo‘lyozmasidir. Mazkur qo‘lyozma Xalil ibn darvish Muhammad al-Jomiy ismli kotib tomonidan 985-yilning rabi’yl-avval oyida, 1577-yilning iyun oyida ko‘chirilgan. Devon an’anaviy tarzda saxtiyon jild bilan muqovalangan. Devon qayerda ko‘chirilgani aniq emas. Kitobat uslubi Buxoro maktabi an’analariga yaqin. Matn nasta’liq xatida, Samarqand qog‘ozida bitilgan.

Chamasi, bu kitob Buxoro hukmdori, shayboniylar xonadoni vakili Ubaydullaxon davriga to‘g‘ri keladi².

¹ Азимов М. Ҳофиз Шерозий ва ўзбек адабиёти. - Тошкент: “Минҳож” нашриёти, 2004. - Б.18.

² Абдухаликов Ф., Ртвеладзе Э., и др. Культурное наследие Узбекистана: Собрание института Востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан. - Ташкент: Silk Road Media, 2021. - Стр. 253.



Devoni Hofiz Sheroziy. Zarvaraq. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. №730.

Hofiz Sheroziy ijodiga mansub yana bir qo‘lyozma ham aynan shu institutda saqlanadi. Mazkur qo‘lyoma ham Sharq kitobat san’atining o‘ziga xos bezaklari bilan sayqallangan. Kitob unvonidagi katabada “falohu xoyron hafizan va huvar rohmanur-rohiym” (Alloh asraguvchilarning eng yaxshisi, u rahmli va mehribondir) degan bitikni ko‘rish mumkin.



Devonning zarvarag‘ida Hofizning barcha qo‘lyozmalariga xos tarzda, shoirning

Alo yo ayyuhas-soqiy adir ka'san va novilho,

Ki ishq oson namud avval vale aftod mushkilho¹, -

bayti bilan boshlanadigan mashhur g'azal o'rin olgan.



Toshkent, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. №142/2. 18 asr, Buxoro.

Bu g'azalga juda ko'p shoirlar, jumladan Alisher Navoiy ham tatabbu' bitgan bo'lib, o'zbek tiliga shoir Xurshid tomonidan o'girilgan. U O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti Sherali Jo'raev tomonidan kuylangan.


Hofiz qo'lyozmalarining yana biri ushbu institutda 142/2 inventar raqami ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma ham shohona bezaklarga ega. Taxminlarga ko'ra, qo'lyozma XIX asr boshlarida Buxoroda, mang'itlar sulolasi davrida Amir Shohmurod zamonida ko'chirilgan.



Qo'lyozmaning ikki sahifani o'z ichiga olgan zarvarag'ida yuqorida tilga olingan g'azalni ko'rishimiz mumkin. Boshqa qo'lyozmalardan farqli ravishda g'azal baytlari bir qatorda, birinchi misraning to'g'risidan emas, uning ostidan berilgan. Ikki sahifada uch baytdan bo'lib berilgan g'azal atrofi o'ziga xos islimiy naqshlar bilan ihotalangan. Har bir satr bulutsimon zarhal hoshiyalar ichiga olingan².

¹ Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. ЎЗРФА ШИ, № 142/2, 16.

² Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. ЎЗРФА ШИ, № А350, 1а.



Toshkent, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, №350, XVIII asr. Buxoro.

Hofiz Sheroziyning O'zbekiston hududida ko'chirilgan yana o'nlab, yuzlab qo'lyozmalari dunyoning turli mamlakatlaridagi madaniy muassasalarda saqlanadi. Xususan, Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgda joylashgan Sharq qo'lyozmalari institutida ham Hofiz Sheroziyning bir qator qo'lyozmalarini uchratamiz¹.

Ularning o'ziga xos bezakli nusxalaridan biri A45 raqami ostida saqlanayotgan nodir qo'lyozmadir. A.Ivanov to'plamidan o'rin olgan ushbu Kitob muqovasida qizil tusli guldor va bejirim naqsh ishlangan. Kitob hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan o'sha hamd g'azali bilan boshlangan. Mazkur qo'lyozma ham XIX asr boshlarida Buxoroda, mang'itlar sulolasi davrida Amir Shohmurod zamonida ko'chirilgani taxmin qilinadi.

Qo'lyozmadan to'rtta miniatyura ham o'rin olgan. Devonning 19 a sahifasida to'rt misra she'r va sevishganlar uchrashuvi tasvirlangan miniatyura mavjud. Suratning yuqori qismida oshiq va ma'shuqaning diydor onlari tasvirlanadi. Pastroqda ikki nafar shohona kiyingan yigit suratini ko'rishimiz mumkin.

Gul dar baru may dar kafu ma'shuq ba kom ast,

Sultoni yahonam ba chunin ro'z g'ulom ast.

Go', sham' mayored dar in yam', ki imshab

Dar maylisi mo mohi ruxi do'st tamom ast².

Qizig'i shundaki, bu baytlar 44a sahifadagi miniatyura hoshiyasida ham uchraydi. Devonning 39a sahifasidagi miniatyura shartli ravishda "Olimlar suhbat" deb nomlangan. Surat garchi temuriylar davri miniatyura san'atiga xos tarzda nafis, nozik uslubda chizilgan bo'lmasa-da, musavvir undagi insonlar qiyofasini nisbatan jonli tasvirlashga harakat qilgan.

Davra to'rida oq soqolli kekxa donishmand o'tiribdi. Uning qarshisida o'tirgan qizil libosdagi kishi chamasi hukmdor yoki unga yaqin mulozimlardan

¹ Абдухаликов Ф., Ртвеладзе Э., и др. Культурное наследие Узбекистана: Собрание института восточных рукописей Российской академии наук. - Ташкент: Silk Road Media, 2017. - Стр. 358.

²Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. РҲА ШҚИ, № А45, 19а.

biri bo‘lishi mumkin. Shuningdek, kekxa donishmand ortida yana uch nafar mulozim tasvirlangan. Sahifaning ustki va pastki qismlarida Hofizning:

Firoqi d̄yst na on mekunad, ki bitvon guft –

misralari bilan boshlanadigan g‘azali bitilgan.

Keyingi miniatyura devonning 44a sahifasidan o‘rin olgan bo‘lib, u shartli ravishda “Ishq majlisi” deb nomlanadi. Sahifada taxt ustida o‘tirgan hukmdor go‘zal ayollar may va taom tutib turgani tasvirlangan. Sahifaning yuqori va pastki qismlarida sakkiz qator g‘azal bitilgan:

Gul dar baru may dar kafu ma’shuq ba kom ast,

Sultoni yahonam ba chunin ro‘z g‘ulom ast.

Go‘, sham’ mayored dar in cham’, ki imshab

Dar maylisi mo mohi ruxi do‘st tamom ast.

Dar maylisi mo atr mayomez, ki moro

Har lahza zi geso‘i tu xushbo‘y mashom ast.

Dar mazhabi mo boda halol ast, valekin

Be ro‘i tu, ey sarvi gulandom, harom ast¹.

Qo‘lyozmaning 192b sahifasida uxlab yotgan yosh ayol va uning oldida o‘tirgancha ko‘zlari yumilgan uch nafar darvish suratini ko‘rish mumkin. Ayolning oldida ikkita may ko‘zasi turibdi. Sahifada Hofizning mazkur misralarini o‘qish mumkin:

Didam ba xob do‘sh ki mohe bar olmadi,

Gar aksi rui u shabi hichron baromadi.

Ba g‘ayr raft yoru safar karda merasad,


Ey kosh, har chi zudtar az dar daromadi².

Mazkur g‘azalni biz turli nashrlarda turlicha ko‘rinishda uchratdik.

Afsuski, ushbu qo‘lyozmada na kotib, na rassom va na sahhofning nomi tilga olingan.

¹ Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. РФА ШҚИ, № А45, 44а.

² Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. РФА ШҚИ, № А45, 142б.



*Sankt-Peterburg, Sharq
qo'lyozmalari instituti, № A45*

Buxoro, 19 asr boshlari.

Albatta, Hofiz devonining ayni paytga qadar yuzlab qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Mazkur devonlardagi g'azallar soni va tarkibi birbiridan sezilarli tarzda farqlanadi. Devonlar turli davrlarda turli tabaqa vakillari uchun ko'chirilgan. Ularning rangli, bezakli, o'ta yuksak san'at darajasida ishlangan qo'lyozmalari qatori nisbatan sodda, bezaksiz nusxalari ham uchraydi. Bu esa, o'tmishda Hofizning ijodi adabiyot muxlislarini ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar birdek qiziqtirib kelganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдухаликов Ф., Ртвеладзе Э., и др. Культурное наследие Узбекистана: Собрание института восточных рукописей Российской академии наук. - Ташкент: Silk Road Media, 2017. - Стр. 358.
2. Абдухаликов Ф., Ртвеладзе Э., и др. Культурное наследие Узбекистана: Собрание института Востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан. - Ташкент: Silk Road Media, 2021. - Стр. 253
3. Абдухоликов Ф.Ф. Ўзбекистон маданий мероси дунё олимларини бирлаштирмакда // «Мозийдан садо» илмий-амалий, маънавий-маърифий, рангли журнали. – Тошкент, 2022, № 4/96. – Б. 7-10.
4. Азимов М. Ҳофиз Шерозий ва ўзбек адабиёти. - Тошкент: "Минҳож" нашриёти, 2004. - Б.18.
5. Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. ЎзРФА ШИ, № 142/2, 16.
6. Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. ЎзРФА ШИ, № А350, 1а.
7. Қўлёзма, Ҳофиз. Девон. РФА ШҚИ, № А45, 19а.
8. <https://lex.uz/docs/3211987>

TARIX**JADIDCHILIK FENOMENI VA UNING TURKIY MUSULMON
XALQLAR HAYOTIGA TA'SIRI****UO‘K 94(575.171)”1900/1924”**

**Sayyora
SAMANDAROVA,**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining g'oya va maqsadlari, strategik vazifasi dunyo tamadduni, xususan turkiy musulmon xalqlar hayotiga ta'siri o'sha davrga oid manbalar asosida tahlil etiladi. Jadidchilik o'ziga xos fenomenal hodisa bo'lgani tadqiq qilinadi.

Аннотация: В статье на основе источников того периода анализируются идеи и цели движения джадидов, его стратегическая миссия и влияние на мировую цивилизацию, в частности, на жизнь тюрко-мусульманских народов. Рассматривается уникальность феномена джадидизма.

Annotation: This article analyzes the ideas and goals of the Jadid movement, its strategic mission, and its impact on world civilization, particularly the lives of Turkic Muslim peoples, based on sources from that period. It examines the fact that Jadidism was a unique phenomenal phenomenon.

Kalit so'zlar: Ismoil Gasprali, jadid, strategiya, maktab, gazeta, Qrim, turkiy xalqlar, Turkiston, dunyo, tamaddun.

Ключевые слова: Исмаил Гаспрали, джадид, стратегия, школа, газета, Крым, тюркские народы, Туркестан, мир, цивилизация.

Key words: Ismail Gasprali, Jadid, strategy, school, newspaper, Crimea, Turkic peoples, Turkestan, world, civilization.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Boybo'ta Do'stqoraev mulohazalariga ko'ra, "XIX asrda feodal qoloqliq Sharqni g'arblik mustabidlarga qaram bo'lishga olib kelgani sabab milliy zulmdan qutulish uchun ozodlik kurashi asosiy ijtimoiy dastur hisoblanardi. Ozodlikka, mustaqillikka, erkka feodal qoloqlikdan, jaholatdan qutulgandagina erishish mumkin bo'lgan. Buning uchun jamiyatdagi mavjud tuzumni tubdan isloh qilish lozim ediki, taraqqiyparvarlar qotib qolgan, daqqi kuchlar, ya'ni "qadim"(eski)larga qarshi turuvchi "jadid"(yangi)lar sifatida maydonga keldi. Shu bois jadidlar Misrda ham, Usmoniylar saltanatida ham, Turkistonda ham siyosiy oqim (Professor Begali Qosimov to'g'ri ta'kidlaganidek, biz ham shu fikrga qo'shilamizki, "jadidchilik-oqim emas, harakat"-U.B.) tarzida

paydo bo'ldi. “ To'g'ri, ularning shakllanganlik, taraqqiy topganlik darajasi bir xil emasdi. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o'lkalarda ham XIX asr oxiriga kelib milliy-ozodlik harakatlari oxir-oqibatda jadidlarni tarix sahnasiga chiqardi. Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongini uyg'otish, millatning o'zligini anglab yetishuviga erishish lozim edi. Ana shunday fikrga birinchilardan bo'lib qrimlik Ismoil Gasprali keldi” (“B.Do'stqoraev, “Jadidlar qanday ijtimoiy tuzumni orzu qilganlar”, “Jahon adabiyoti” jurnali, 2019-yil sentabr, 172-bet).

Ya'ni, Rossiya imperiyasi asorati ostidagi Qrim, Volgabo'yi va Edil, Kavkaz, Turkiston, Buxoro va Xorazmni qamrab olgan mustamlakachilikka qarshi Milliy Uyg'onishni, turkiy musulmonlardagi mudroq g'ururni ma'rifiy, ijtimoiy va siyosiy harakatga, voqeliklarni tarixning shiddatli hodisasi, jarayoniga aylantirgan fenomen - bu jadidchilik edi. Bu harakatning asoschisi esa Ismoil Gasprali bo'lib, “Tilda, fikrda, ishda birlik” g'oyasi, u asos solgan jadid maktabi, “Tarjimon” gazetasi turkiy musulmon xalqlar taqdiriga shunchalik katta ta'sir qildiki, nafaqat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, balki butun tarix davomida bunchalik keng qamrovdagi, jamiyatning barcha sohalariga ta'sir qilgan harakat sodir bo'lmagan edi.

Yana bu harakat mustamlakachilik, qattiq bosim, tazyiqlar ostida kechdi va jadidlar siyratidagi g'urur nafaqat o'ziga maslakdoshlarni bir fenomenal hodisa atrofida birlashtirdi, balki kapitalizm, feodalizm, monarxiya singari turli xil tuzumlar ostida yashayotgan, asosan turkiy musulmon xalqlarni siyosiylashtirib, dunyo xalqlari bilan barobar qadam tashlashga undadi.

Professor Begali Qosimov (1942-2004) haqqoniy baho berganidek, “Jadidchilik g'oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po'panak bosib, biljirab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momaguldirak bo'lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo'yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag'ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo'lib, ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g'oyalarning asosida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun kurashishgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i,

taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e‘tibor berdilar.

Xalq esa, Po‘latxon va Dukchi eshon voqealaridan “Turkiston (Qo‘qon) muxtoriyati” mohiyatini anglash va qo‘llashgacha bo‘lgan masofani bosib o‘tdi. Jadidlarimiz siyosiy ishlar - haq-huquq, milliy davlat, hokimiyat masalalari bilan muntazam shug‘ullanadilar. Ayni paytda, maktab-maorif isloh qilina boshladi. Milliy matbuot yo‘lga qo‘yildi. Teatr paydo bo‘ldi. Yangi adabiyot shakllandi. Bir so‘z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga keldi. Bu - millatning o‘zligini anglash va mustaqillik mafkurasi edi. Bu hol, shubhasiz, millatning keyingi 3-4 asrlik tarixiy taraqqiyotida misli ko‘rilmagan hol edi. Uning hayotida uzoq turg‘unlikdan keyin yangi bosqich boshlanishiga dalolat edi. Jadidchilikning mohiyati shunda” (Begali Qosimov, “Milliy uyg‘onish”, “Ma’naviyat” nashriyoti, Toshkent, 2002-yil, 4-5-betlar).

Doktor Boymirza Hayitning quyidagi fikrlari esa ushbu harakatning mohiyatini to‘g‘ri ifodalab beradi: “Jadidchilik harakati uzoq paytdan buyon davom etib kelayotgan madaniy masalalar borasidagi tortishuvlar va muzokaralarning yangi shaklda namoyon bo‘lishi edi. Jadidchilik harakati yangi usulda ta‘lim va tarbiyani tevarakdagi Ovrupo sivilizatsiyasiga moslashtirish emas, balki Ovrupo sivilizatsiyasini o‘rganib, uni milliy madaniyatga xizmat ettirishning bir ifodasi edi” (Boymirza Hayit, “Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi”, “Xurshid Davron kutubxonasi” internet sayti, 10.12.2017-yil).

Aynan turkiy musulmon millatlar oldidagi ana shu muqaddas va millat oldidagi mas‘uliyatli, eng dolzarb, kechiktirib bo‘lmaydigan ulug‘vor vazifa o‘z gardaniga yuklanganini sezgan, siyratidagi daxldorlik tuyg‘usini o‘z davri, jamiyat uchun yuzaga keltirgan shaxs Ismoil Gasprali edi.

Ismoilbek Gaspralining safdosh maslakdoshlaridan Hasan Sabriy Ayvazov: “Ey ustoz! Sen bir quyosh eding! Sharqda asrlarcha jaholat zulmati tufayli inqirozga mahkum qolmish turk-musulmon qavmlarini tanvir (nurli qilish) uchun tulu’ etmish (chiqmish) bir quyosh eding”, deb yozganida haq edi.

Negaki, ozarbayjonlik davlat arbobi Narimon Narimonov yozganidek, “Millat Ismoilbek kabi qahramonlarini unutsa, o‘z hayotini barbod etajakdir”.

Nafaqat turkiy musulmon xalqlar hayoti, taqdiriga, balki dunyo tafakkuriga, siyosatiga katta ta’sir ko‘rsatganini inobatga olgan Fransiyaning “Revyu dyu monde musulman” jurnali Ismoil Gaspralining millat oldidagi buyuk xizmatlarini e‘tiborga olib, uning nomzodini “Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel

mukofotiga” tavsiya qilgandi. Bu taklifni o’sha 1910-yilda xorijdagi ko‘plab jurnallar qo‘llab-quvvatlagandilar.

Shu o‘rinda bir mulohazani bildirish joizdir: XXI asrda turk davlatlari tashkiloti, turkiylar jipsligi davr taqozosi sifatida yuzaga kelgan ekan, ushbu tashkilotning “Ismoil Gasprali” nomli xalqaro mukofotini ta’sis qilish o‘rinlidir.

Shuningdek, professor Bahodir Karim, O‘zbekiston xalq shoiri, “Jadid” gazetasi bosh muharriri Iqbol Mirzolar taklifini qo‘llab-quvvatlagan holda “Jadidlar” Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, yohud, jadidlar harakatini har tomonlama to‘liq tadqiq qilish, dunyo jadidshunoslari, shu davr bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib boruvchi olimlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, ilmiy ekspeditsiyalar olib borish orqali jadidlar merosini to‘plash, targ‘ib qilish va shular asosida fundamental tadqiqotlar o‘tkazish maqsadida “Dunyo jadidshunoslari akademiyasi”ni ta’sis etish o‘rinli bo‘lardi.

Tabiiyki, ushbu akademiya yaratgan tadqiqotlar tizimli ravishda ko‘p jildli asarlar, “Jadidlar” ensiklopediyasi, “Jadid adabiyoti antologiyasi”, har bir jadid siymosiga bag‘ishlangan monografiyalar, risolalar, shular asosida esa hujjatli, badiiy filmlar, seriallar, multfilmlar yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa jadidlar merosini tadqiq qilish, targ‘ib etishgagina emas, turkiy millatlarning jipsligi, yoshlarning, bugungi va kelgusi avlodning jadid ajdodlarimiz singari g‘ururli bo‘lib voyaga yetishlariga ham xizmat qiladi.

Professor Begali Qosimov ta’kidlaganidek, “Bu balandparvoz gap emas. Dalil –tarix. U tirikligidayoq millatning otasi, rahnamosi degan nom oldi. Uning eng katta xizmati Rusiya sarhadida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoq tushgan (to‘g‘rirog‘i, uzoqlashtirilgan) va begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi. Behbudiy so‘zlari bilan aytganda, “Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo‘shlik yo‘li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo‘ldi”. Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagan, “usuli jadid” nomi bilan tarixga kirgan “usuli savtiya”ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligiga –jadidchilikka asos soldi.

U barcha turkiy xalqlarni yaxlit, yagona millat deb bildi. Ularni ham ilma’rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko‘rmoqni orzu qildi. Butun aqli-vujudini mana shu muqaddas ishga-millatning ravnaqi va muhofazasi yo‘liga sarf etdi. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu

emas, zamonasining baland-pastidan xabardor, tarix va taqdirini teran anglagan, Sharqni ham, G‘arbni ham bab-baravar bilgan va bab-baravar ko‘rgan bir kishining aniq rejali hatti-harakati edi” (Begali Qosimov, “Milliy uyg‘onish”, “Ma’naviyat” nashriyoti, Toshkent, 2002-yil, 162-163-betlar).

Jadidchilik harakati asoschisi Ismoil Gasprali va Turkiston mavzusidagi, yohud uning hayot paytida, yoki vafoti munosabati bilan yozilgan maqolalar, marsiyalarni o‘sha davr matbuoti asosida jamlansa, alohida bir kitob bo‘lishi mumkin.

Professor Bahodir Karim yozganidek, “Gasprinskiy vafoti munosabati bilan dunyoning turli burchaklaridan afsus-nadomat, yig‘i-yo‘qlov tovushlari eshitildi, ayni damda taqdirga tan berildi. Marhumning yaqinlariga - Boqchasaroyga musulmonlarga xos yuksak o‘d bilan ta’ziya izhor qilingan, sabri jamil tilangan maktublar, telegrammalar, xabarlar tinimsiz borib turgani – bularning barchasi tarixiy haqiqat, albatta.

O‘sha davrda dunyoning ko‘plab gazeta va jurnallarida, xususan, tatar matbuotida bosilgan maqolalarning son-sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Bu gapda mubolag‘a yo‘q. Chunki birgina o‘zbek matbuotida Gaspraliga bag‘ishlab 1914-yilning sentabridan noyabrigacha bo‘lgan bor-yo‘g‘i ikki oy davomida o‘nlab asarlar e‘lon qilindi. Bu adabiy, ilmiy, ijtimoiy ruhdagi manbalarni “Marsiya-she‘rlar”, “Publitsistik maqolalar va xabarlar” tarzida shartli ravishda tasniflash mumkin” (Bahodir Karim, “Ismoil Gasprinskiy yodi”, “Xurshid Davron kutubxonasi” internet sayti, 20.03.20017-yil).

“Yig‘la, millat qon to‘kub, aylab navolar yig‘lagil,

Ismoilbek ruhina qilg‘il duolar, yig‘lagil.

Chok-chok ayla yaqong, qon to‘k ko‘zingdin tinmayin,

Alif qadding dol etib, ushlab asolar, yig‘lagil”

(Tavallo.)

“Bir o‘zung biz millati isloma faryod aylading,

Bandi g‘aflatdan zavolli xalqi ozod aylading,

So‘ylading, yozding, cholishding, hech ma’yus o‘lmading,

Yurtu yer vayronaya do‘nmishdi, obod aylading”.

(Sadriddin Ayniy.)

Ismoil Gasprali vafotiga bag‘ishlab 1914-yilning kuzida yozilgan asarlar anchani tashkil qiladi va filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim tadqiq qilganidek, “andijonlik 16 yoshli talaba Hamidiyning “Ma’rifatparvar bobomiz Ismoil G‘asprinskiy hazratlari haqinda ta’ziyanomamiz”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Marsiya”, Husaynxo‘ja Saodatiy ismli kishining “Marsiya”, Abdulla Avloniyning “Adibi shahir Ismoilbek ruhina”, samarqandlik shoir Faxriddin Rojiyning “Ismoilbek hazratlarig‘a”, Siddiqiy Ajziy “Ismoilbek hazratlari yodig‘a”, Vasliy Samarqandiyning “Ta’rix rixlat janob mirzo Ismoilbek sohibi jaridai “Tarjumon” rahmatulloh rahmatan va as’atan va udxula fil jinon”, samarqandlik muallim Xatoiyning “Ismoilbek hazratlari yodig‘a”, Mulla Shamsiddin Qori Xoibning “Muhtaram fozili nuktadon va fariduz-zamon, noshiri “Tarjumon”, ahvoli zamon Ismoilbek G‘asprinskiy janoblarining ta’rix soli favtlari” nomli ta’rix-she’rlarida ham o‘z ifodasini topgan”.

Xo‘sh, ana shunday e’tirof, e’tiborga sazovor millat qahramonining hayoti va faoliyati qanday kechgandi?

Qrimdagi “Nenkejik” jurnali bosh muharriri Zera Bekirova ma’lumotlariga ko‘ra, “turkiy musulmon xalqlari hayotida Milliy Uyg‘onishni boshlab bergan jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilning bobosi Ali Qrimdagi Gaspra qishlog‘ining nufuzli shaxslaridan bo‘lgan. Shu bois ham o‘g‘li Mustafobey Kavkaz va Qrimning general-gubernatori knyaz Voronsov-Dashkovning tarjimoni bo‘lib ishlagan va 1853-yilda poruchik unvoni bilan taqdirlanib, dvoryanlik martabasiga ko‘tarilgan. Mustafobey ikki marta oila quradi. Birinchi turmush o‘rtog‘i 1849-yilda vafot etadi va u shu yili Qrimning mashhur Qaytazovlar oilasiga mansub Fotima xonimga uylanadi. Mustafobeyning bu turmush o‘rtog‘idan ikki o‘g‘il va to‘rt qiz tug‘ilgan”.

Ismoil 1851-yilning 21-martida ana shu oiladagi ikkinchi o‘g‘il bo‘lib tug‘iladi. Dastlab Boqchasaroylik Hoji Ismoilning eski maktabi, so‘ngra Simferepoldagi gimnaziya, undan keyin Voronej shahridagi harbiy o‘quv yurtida va 13 yoshidan Moskvadagi Milyutin gimnaziyasida tahsil oladi. 1868-yilda Ismoil Bog‘chasaroyga qaytib, “Zanjirli ”madrasasida rus tili fani o‘qituvchisi bo‘lib pedagoglik faoliyatini boshlaydi.

Dunyo davlatlaridagi jarayon, boshqa xalqlar hayoti bilan tanishish maqsadida Ismoilbey 1872-yilda Fransiyaga boradi va Parijdan tashqari Vena, Myunxen, Shtutgard shaharlarida ham safarda bo‘ladi. Bu vaqtda Fransiyada yashayotgan buyuk rus yozuvchisi I.S.Turgenev bilan tanishadi va uning kotibi bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zining iqtidori bois, qolaversa dunyo darajasida ta’lim

olish maqsadida Sorbonna universitetida tahsil oladi. 1876-yilda esa ona yurti Bog‘chasaroyga qaytib, “Zanjirli” madrasasidagi faoliyatini davom ettiradi.

Tabiiyki, Ismoil Gaspralining Yevropaga safari va ta’lim olishi uning dunyoqarashiga katta ta’sir qiladi va an’anaviy tahsilning zamonaviy taraqqiyotdan orqada qolganini anglab, ta’lim sohasidagi yangi usul maktabi ochishni rejalashtiradi. Biroq hamma davrlarga xos bo‘lgan har qanday yangilik singari Ismoil Gaspralining ta’lim sohasida boshlamoqchi bo‘lgan bu sa’y-harakati to‘siqlarga uchraydi.

Shundan so‘ng u ma’muriy boshqaruvda o‘z omadini sinab ko‘rdi. Natijada ajdodlarining nufuzi, qolaversa o‘zining Yevropada tahsil olgani bois, 1878-1884- yillarda Bog‘chasaroy shahri boshlig‘i (meri) vazifasida faoliyat ko‘rsatdi. Bog‘chasaroy meri janob Ismoil Gaspralining shaxsiy hayotida 1882-yilda katta o‘zgarish bo‘ldi. Ya’ni, shu yili u Qozon tatarlaridan Aqchurinning qizi Zuhroxonim bilan oila quradi va bu nikohidan Rifat, Shafiqa, Bahiya, Doniyol, Nigor, Mansur, Haydar ismli farzandlarni tarbiyalashadi. Laylo kichikligida vafot etadi.

Merlikdan iste’foga chiqqach, Ismoil Gasprali o‘zining keyingi faoliyatini matbuot va ta’lim sohasiga bag‘ishlashga qaror qiladi. Aynan o‘zi singari erkin fikrlovchi shaxslar, qolaversa “Tilda, fikrda ishda birlik” degan ezgu maqsad sari talpinuvchi maslakdoshlari uchun minbar kerakligi bois jurnalistika sohasiga qadam qo‘yadi. Natijada, 1883-yildan “Tarjimon” gazetasini nashr etishni yo‘lga qo‘yib, o‘ziga xos jadidlar minbarini yaratdi. Ushbu nashrda dunyodagi jarayonlar, Rossiya imperiyasi, bu hududlarda yashovchi turkiy musulmon xalqlar hayoti, ularni taraqqiyotga yetkazish bilan bog‘liq takliflarni ko‘tarib chiqdi, muammolarga yechim izladi. Aynan Ismoil Gaspralining “Tarjimon” gazetasi o‘z davridagi jadidlar minbari, turkiy musulmon xalqlarning tayanchi, huquqlari kafolati va erkin ovozi darajasiga yetdi.

Vaqt o‘tib faqat Qrimda emas, turkiy musulmon xalqlar yashaydigan har bir hududning ham jadid nashrlari paydo bo‘la boshladi. Ya’ni, Ismoil Gasprali turkiy xalqlar hayotidagi ta’lim sohasigagina emas, matbuotga, umuman olganda jamiyat hayotiga ham katta ta’sir qildiki, uning jamiyatdagi hamma sohalarni qamrab olgan islohotchilik shijoatidagi jadidchilik harakati va o‘zi FENOMEN darajasiga yetdi.

“Taraqqiy” (Ismoil Obidiy), “Xurshid” (Munavvar qori), “Shuhrat” (Abdulla Avloniy, Ahmadjon Bektemirov, Munavvar qori), “Osiyo” (Abdulla Avloniy, Munavvar qori), “Tujjor” (Saidkarimboy Saidazimboev), “Buxoroi Sharif” (

Mirzo Muhiddin, Siroj Hakim, Mirjalol Yusufzoda, Levin), “Turon” (G‘iyos Usmonov), “Samarqand” (Behbudiy), “Jomi’u-l –axbor” (Obidjon Mahmudov), “Oyina” (Behbudiy), “Sadoi Farg‘ona” (Obidjon Mahmudov), “Sadoi Turkiston” (Ubaydulla Xo‘jaev, Munavvar qori, Ashurali Zohiriy) singari taraqqiyparvarlar tomonidan tashkil etilgan matbuot nashrlari Turkiston xalqlarining dardu hasratlarini, rivojlanishning strategiyasini yoritgan gazeta-jurnallar edi. Yuqoridagi nashrlar “Tarjimon”ga havas ruhida, unga maslakdoshlik hissi bilan tashkil etilgan jadidlarning minbari bo‘lgandi. Ya’ni, Ismoil Gaspralining “Tarjimon” gazetasi, umuman olganda jurnalistlik faoliyati, matbuotchilikka qo‘shgan hissasi Turkistonda, xususan boshqa turkiy o‘lkalarda ham matbuotning, jurnalistikaning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun katta ta’sir qildi. O’sha davr uchun matbuot inson ma’naviy kamoloti va dunyoda kechayotgan jarayonlardan xabardorligini anglatuvchi ijtimoiy hodisa, kuchli ta’sir vositasi edi. Bu vazifani millatning siyosiylashuvi, uyg‘oqligi yo‘lida “Tarjimon”, umuman olganda har bir jadid nashri to‘laqonli bajardi va tarixning yorqin sahifasidan joy oldi.

Bundan tashqari, milliy uyg‘onishga sabab bo‘lgan ta’lim sohasidagi islohotlari o‘z nomi bilan yangilik - “jadid” maktabi ham taraqqiyotni tezlashtirgan vosita bo‘ldi. Ha, Ismoil Gasprali 1884-yildan yangi usul-jadid maktabiga asos soladi va tezda bunday ta’lim turidagi maktablar dastlab Qrimda, keyinchalik esa Qozon, Ufa va Kavkaz, Volgabo‘yi, Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlarida ham tashkil etila boshlanadi.

E’tiborlisi, ana shu hududlarning barchasida an’anaviy eskicha tizimda faoliyat ko‘rsatuvchi maktablar, shuningdek imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi rus-tuzem maktablari faoliyat ko‘rsatardi. Aynan Ismoilbekning sa’y-harakati, ta’lim tizimidagi yangiligi bilan dunyoviy fanlar o‘qitiladigan ushbu maktablar tez orada eski deb ataladigan an’anaviy va rus-tuzem maktablariga raqobatchi sifatidagi ta’lim maskaniga aylanadi.

Gasprali faqat maktablar tashkilotchisi, mohir pedagoggina emas, yangi uslubdagi “Xojai sibyon” (1888-y) -“Bolalar muallimi” kabi darsliklar yaratgan ulug‘ olim ham edi. Darslikning har bir sabog‘idan keyin savollar berilgan bo‘lib, muallif fikricha ular o‘quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun eng qulay vosita edi. Muallif o‘qish-o‘qitishning yangi usuli haqida to‘xtalar ekan, bolalarga mohiyatni tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga e’tibor qaratadi va har bir harfni alohida “sadosi bilan” muntazam va

izchil o'rganishni ta'kidlaydi. Ushbu usul shunga ko'ra "usuli savtiya" (tovush usuli) deb ham ataldi.

Ana shu tarzda, o'qitiladigan darsning mazmunidan uni o'qitish usuli va baholash jarayonigacha, o'quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu qishki va yozgi ta'tiligacha, maktabning joylashish o'rnidan, sinf xonalarining jihozi-yu yorug'lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko'rib chiqilib, maktab ta'limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Tabiiyki, bu jarayon o'sha davrdagi turkiy musulmon xalqlari uchun chinakam yangilik edi. Ismoil Gaspralining ta'lim sohasidagi bu yangi dasturi "usuli jadid" nomi bilan dovruq qozondi.

Ismoil Gasprali pedagoglik, matbuotchilik va noshirlikdan tashqari, "Solnomai turkiy", "Mir'oti jadid" nomli ikkita risola, "Rossiya musulmonligi", "Turkiston ulamosi" asarlarini ham yaratdi. Bu borada Ismoil Gasprali faqat pedagoggina emas, millatning dardu hasratlarini yoritgan publitsist, xalq manfaatlarini ko'zlagan jamoat arbobi va siyosatchi ham edi. Ulug' shaxsning bu darajada yuksalishida "Tarjimon" gazetasi, unda berib borilgan maqolalar, shuningdek yuqoridagi singari asarlari katta rol o'ynadi.

Ana shunday serqirra faoliyati bois, Ismoil Gasprali o'z davrida nafaqat Rossiya imperiyasida, shuningdek Usmoniylar saltanatida, umuman olganda turkiy dunyo va Yevropada ham nufuzi katta shaxs, jamiyatdagi jarayonlarga ta'sir qiluvchi kuchga aylangandi.

Tabiiyki, u o'zining nufuzini, qudratli ta'sir kuchini jadidchilik g'oyalarining keng tarqalishiga safarbar qildi. Rossiya imperiyasi saroy amaldorlari, O'rta Osiyodagi amiru xonlar ham hurmat qiladigan Ismoilbek shu bois ham maktablar tashkil qilishga e'tibor qaratdi. Ana shu maqsad, g'oya yo'lida u 1893-yilda shirvonlik shogirdlaridan Majid G'anizoda bilan Turkistonga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent shaharlarida safarda bo'ldi va jadid maktablari tashkil etish borasidagi faoliyatini davom ettirdi hamda maslakdoshlari bilan tanishdi.

Gaspralining Turkistonga sayohati "Tarjimon" gazetasining 1893-yilgi 29-38-va boshqa bir qismi 40-43-sonlarida chop etilgan. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Tohir Qahhor tadqiq qilganidek, "Gaspralining barcha o'lkalarga safar qilishidan ikkita maqsadi bo'lgan: birinchisi - yangi usuldagi maktablar ochishni tashkil etish, ikkinchisi - "Tarjimon" gazetasining tarqalishi bilan bog'liq masaladir. Turkistonga ham ayni ana shu niyatlarini amalga oshirish uchun kelgandi. Asarlaridan va u haqdagi esdaliklardan ma'lum bo'lishicha, Ismoilbek

sharq g'arbning ko'plab davlat arboblari, yuksak doiralari bilan yaxshi munosabat o'rnatgan shaxs edi" (Tohir Qahhor, "Ismoilbek Gasprali va uning Turkiston sayohatlari", "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010-yil, oktabr).



Ismoilbek Gasprali va uning Turkiston sayohatlari

Ismoil Gasprali Turkistonga tashrifi davomida o'lkadagi haqiqiy vaziyat bilan tanishgan, jadid maktablariga bo'lgan munosabatdan to'la xabardor bo'lgandi. Shu boisdan u "Tarjimon" gazetasining 1906-yildagi 89-sonida "Xonlarga xitob" nomli maqolasini nashr ettiradi va unda hukmdorlarga quyidagicha nasihat qilgandi:

“ Bir-ikki so'zda davlatli xonlarga so'ylamoq istaymiz, afu buyursinlar. Ey davlatlilar, idorangizga omonat qilingan Xudo bandalariga bu kun, bu zamonda qila oladigan bir xizmati oliyangiz bor bo'lsa, u ham ma'rifat tarqatish orqali musulmonlarni ziyo nuri bilan ziyolantirish ishidir. Fuqaroyi islom sizlardan mol so'ramaydi, osh so'ramaydi. Din Qur'ondan, jon Xudodan. Siz, davlatli xonlardan aholiga ehson qilinadigan bir narsa ma'rifat tarqatuvchi, bilim va kamolotga yetaklovchi oliy darajalik maorif maktablaridir. Ko'hna madrasalar ko'p, Buxoroyi sharifda va Xivada hozirgi paytda biror "dorilfunun islomiya" ta'sis qilinishi kerak.

Bu dorilfununlarga bir daraja ilm, din tahsil etmish talaba va avlodi sipoh qabul qilinib, tarix, jug‘rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa zarur fanlar forsiy, turkiy, rusiy va fransuz tillarida o‘qilishi kerak. Ushbu dorilfununlarga muallim va mudarris bo‘ladigan ahli kamol bordir.



Bu fanlarni Rusiyada yoki Yevropada o‘rgangan musulmonlar Rusiyada bor...Da‘vat qilinsalar, bulardan mol uchun, non uchun emas, millat yuksalishi uchun xurnsandlik ila xizmat qiladiganlari topiladi.

Rus hukumatiga kelsak, nashri maorif (maorifni yoyish)ga to‘sqinlik qilmas, intishori maorif havasida va maslakidadir. Maorifsizlik balosini o‘zi-da bu zamonda ko‘rib, kechirdi.

Ey davlatlilar! Kechmish zamon g‘aflati bilan Movarounnahr maydoni siyosatda mag‘lub bo‘lib, istiqlolini yo‘qotdi. Bu zamonda g‘aflatda bo‘linsa, maydoni iqtisod va maishatda millat mag‘lub bo‘lib, bunga sabab bo‘lganlar dunyo turguncha mas‘ul hisoblanadilar. Janobi Haq xayrli ishlarga muyassar aylasin”.

Ismoil Gasprali ushbu xonlarga qarata bekorga “davlatlilar” so‘zini ishlatmagandi. Negaki, aynan O‘rta Osiyodagi Rossiya bosqinidan so‘ng ham yarim mustamlaka sifatida saqlanib qolgan Buxoroda Amir Abdulahad, Xivada Feruxxon monarxiyaga asoslangan tuzumli o‘lkaning hukmdorlari edi. Ushbu shaxslar o‘z hududining davlatli hukmdorlari sifatida Gasprali ta’kidlaganidek g‘aflatda bo‘linsa, maydoni iqtisod va maishatda millat mag‘lub bo‘lib, bunga sabab bo‘lganlar dunyo turguncha mas‘ul hisoblanardilar. Shu bois birinchi mas‘uliyat, daxldorlik va millat oldidagi javobgarlik ular gardanida edi.

“Tarjimon” gazetasining 1883-1916-yillarga oid 150 dan ortiq Xorazm mavzusidagi maqolalar, xabarlaridan ma’lumki, Feruxxon, Asfandiyorlar jadid maktablariga, umuman, o‘lkada islohotlar o‘tkazishga hayrihoh bo‘lishgan. Aynan islohotlar ham ushbu hukmdorlar tashabbusi bilan davom etgan jarayonlar

edi. Shu boisdan doktor Boymirza Hayit yozganidek, “Xivaning Muhammad Rahim va Asfandiyor kabi xonlari zamonaviylik tushunchasiga qarshi emas edilar, shu sababli jadidchilikka ham monelik qilmasdilar. Fevral inqilobidan (1917-yil) so‘ng “Yosh xivaliklar” siyosiy talablar qo‘ya boshladi. Ular xondan (Asfandiyordan) jadidlar ham ishtirok etadigan xalq majlisi tashkil qilishni so‘radilar. 1917-yil 5-aprel bayonnomasi bilan Asfandiyorxon 50 ga yaqin vakil ishtirok etadigan majlis-parlamentga ijozat beradi. Bu majlis-parlament nozirlarni saylash huquqiga ega edi. Demak, xon o‘z davlat tuzumini rivojlantirish qobiliyatiga ega taraqqiyparvar shaxs edi”(B.Hayit, “Turkiston:Rossiya va Xitoy oralig‘ida”, “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent,2023-yil, 379-bet).

Ismoil Gaspralining Turkistonga ikkinchi safari 1908-yilga to‘g‘ri keladi. Safar tafsilotlari “Buxoroda na ko‘rdim?” sarlavhasi ostida “Tarjimon”ning o‘sha yilgi (47,50,57-59,64,78) sonlarida chop etilgandi. Gasprali Kaspiy dengizidan “General Skobelev” kemasida kelib, Krasnovodskdan poezdga o‘tarkan, Rossiya bosqini paytidagi Ko‘ktepa urushini eslaydi. Qal‘a aholisining “butun Osiyoga shuhrat va ibrat deya bola-chaqasi barobar qilichdan kechurulub, ot oyog‘ida toptalgani”ni alam va iztirob bilan yodga oladi.

Ismoil Gaspralini Yangi Buxoro (Kogon) stansiyasida amir amaldorlari va Rossiya siyosiy agentligi tarjimoni Mirhaydarbek kutib olishadi. Amir Abdulhamid uni Karmanaga taklif etadi. Ziyofat asnosida valiahd Sayyid Olimxon bilan uchrashadi. Valiahdning Rossiya matbuotini muntazam o‘qib borishi, hamda dunyo voqealaridan xabardorligidan voqif bo‘ladi. Shu bois ham o‘zgarishlardan umidvorlik his qiladi.

So‘ngra Samarqandga borib, shahardagi “usuli jadid” maktablari bilan tanishadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy singari maslakdoshlari bilan maqsadu vazifalari, ta‘limoti, turkiy millat oldidagi ulug‘vor, birlamchi vazifalar to‘g‘risida uzoq suhbatlar quradi. Mavzudagi asosiy mohiyat tarix va kelajak, muqaddas obidalar va ularning taqdiri, Rossiyaning istilochilik siyosati va ana shu sharoitda o‘zlikni saqlab qolish haqida edi.

Samarqanddan qaytishda yana Buxoroga keladi va Qushbegi Ostonaqulbek bilan faoliyati to‘xtab qolgan jadid maktabini qaytadan tashkil qilish bo‘yicha muzokara olib boradi. Asosiy to‘sqinlik qozikalon tomonidan ekanligini anglab, huzuriga boradi va uning maktabni tiklash haqidagi va‘dasini oladi. Safar davomida Buxorodagi no‘g‘aylar Ismoilbekni mehmonga chaqirib, “Jamiyati xayriya” tashkilotiga faxriy a‘zo qilishadi. Yangi ochilgan bir maktabni uning sharafiga “Ismoiliya” deya atamoqchi ekanliklarini aytishadi. Biroq Ismoilbek

bunga unamaydi va boshqa taklif - Amir Abdulahadxonning marhum padari hurmatiga “Muzaffariya” deya nomlashni maslahat beradi. Ya’ni, shu tarzda amir o‘z otasi sharafiga qo‘yilgan maktab tufayli, boshqa jadid maktablari soni oshishiga ham to‘sqinlik qilmaydi, degan fikrda edi....

Ismoil Gasprali faqat pedagog, publitsist, noshir va jamoat arbobigina emas, taniqli adib sifatida ko‘plab badiiy asarlar ham yaratdi. Uning “Farangiston maktublari” (1887), “Dorur-rohat musulmonlari” (1889), “Sudan maktublari” (1889), “Xotinlar o‘lkasi” (1890), “Gulbobo ziyorati” (1908), “Arslon qiz”, “Kun tug‘di”, “Ivan va Sulaymon” (1897), “Mukolamayi salotin” kabi ko‘plab nasriy asarlari borki, bu asarlar “Jadid adabiyoti antologiyasi”ning ustunlaridir. Shukurki, istiqlol bois Ismoilbeyning ayrim asarlari o‘zbek tiliga tarjima ham qilingan. E’tiborlisi, asar voqealarining deyarli hammasi muallif tilidan hikoya qilinadi.

Tabiiyki, hozirgi davr ehtiyoji sifatida “Jadid adabiyoti antologiyasi” nashr etilsa, u Ismoil Gasprali asarlari bilan boshlanadi.


Ana shunday serqirra faoliyatga ega Ismoil Gasprali o‘zining amaliy faoliyati bilan jadidchilik harakatining dunyoda e’tirof etilgan lideri edi. Aynan shu tufayli nafaqat Qrim, balki Kavkaz, Volga va Edilbo‘yi hamda Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko‘zga tashlangan yangilanish harakatlari, jamiyatda kechgan jarayonlar ko‘p jihatlari bilan shu shaxsga, uning “Tarjimon” gazetasiga kelib bog‘lanadi. Ya’ni, XIX asr oxiri va XX asr boshlari dunyo tarixini Gasprali, uning islohotlarisiz tasavvur qilish qiyin va buning iloji ham yo‘q.

Bundan tashqari, ushbu davrdan e’tiboran XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat ko‘rsatgan biror turkiy millat oydinlari yo‘qki, bu shaxsdan ta’sirlanmagan bo‘lmasa. Ana shu sababli, uning ijodiy faoliyati va ayniqsa, maslak-intilishlari bilan tanishish Turkiston jadidchilik harakati, tabiiyki harakatning uzviy bir qismi bo‘lgan jadid adabiyotining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohiyatini anglashda, yo‘nalishlarini belgilashda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ismoil Gasprali shu tarzda 63 yillik qisqa umr kechirgan bo‘lishiga qaramay, turkiy millat, tarix oldidagi o‘zining muqaddas burchini bajarib ketdi. Bu shaxsiyat g‘oyalari, amaliyotga tadbqiq etilgan islohotlari bois turkiylar hayotidagi jarayonlarni tezlashtirgan, taraqqiyotga yo‘naltirgan FENOMEN edi.

TARIX

Mahmudxo‘ja Behbudiy – Turkiston jadidchiligi harakati namoyandasi



**Saporbay
NAVRO‘ZOV,**
Tarix fanlari nomzodi,
dotsent

UO‘K 68.1

Annotatsiya: Ushbu maqolada Behbudiyning Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o‘rni tarixiy materiallar asosida tahlil etiladi. Yaratgan asarlari va uning hayoti, faoliyati ham maqolada qamrab olingan.

Аннотация: В статье на основе исторических материалов анализируется роль Бехбуди в движении туркестанских джадидов, освещается его творчество, жизнь и деятельность.

Annotation: This article analyzes Behbudi's role in the Turkestan Jadid movement based on historical materials. His works and his life and work are also covered in the article.

Kalit so‘zlar: davriy nashr, gazeta, viloyat, tuman, maqola, front, front orti.

Ключевые слова: периодическое издание, газета, область, район, статья, фронт, тыл фронта.

Key words: periodical, newspaper, region, district, article, front, rear of the front.

XIX asr oxiri, XX asr boshlari Turkistonda asrlar davomida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy feodal munosabatlar hukm surgan, feodal monarxiyaning yemirilish jarayoni yuz berayotgan davr edi. Shu feodal sulolaviy boshqarish zaminida xalqning nafaqat iqtisodiy hayoti, balki madaniy, ma’rifiy jabhalarda ham o‘rta asrlik qoloqligi hukmron edi[1].

Ma’lumki, o‘lkamizda Temuriylar saltanati yemirilgach, XVI asrda boshlangan inqiroz va turg‘unlik, jaholat va mutaassiblik avj pardasiga chiqqan, o‘zaro janjal, mahalliy urug‘chilik nizolari millatni behad holdan toydirgan ediki, bu imkondan foydalanib o‘lkani zabt etgan podsho Rossiyasi zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun holatda saqlashga urinar edi. Mana shunday bir sharoitda millatni, Vatanni butkul g‘orat etilish xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk, ozodlik va mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan bog‘liq yangi zamon yangiligini yaratuvchi fidoiylar zimmasiga tushdi[2]: “Minglab iste’dod sohiblari zaminu zamonda mavjud bo‘lgan narsalar haqidagina naql qiladilar, ammo faqat daholargina insoniyatga nima zarur ekanini bashorat qilib beradi”, deganida buyuk nemis faylasufi qanchalar haq edi.



Buyuk Alisher Navoiydan keyin XX asrga qadar yashagan o'zbek shoirlari sevgi va sadoqat, mehr va shafqat, zulm va zulmat singari mavzularda yonib ijod qilgan bo'lsalar-da, asrdan-asrga parokandalanib, bora-bora mustamlaka fuqarosiga aylangan millatga nima kerakligi haqida, uni ilg'or millatlar erishgan ozodlik, milliy birlik va taraqqiyot bosqichiga olib chiqish lozimligi haqida biror so'z

aytmadilar. Bunday so'zni aytish, mustamlakachilik kishanlari ostida ezilgan xalq va Vatan taqdiri to'g'risida o'ylash, bu mudhish vaziyatdan chiqish yo'llarini axtarish mas'uliyati, faqatgina XX asrda tarixiy sharoit taqozasi bilan vujudga kelgan jadid ma'rifatparvarlik adabiyoti va uning buyuk namoyandalari zimmasiga tushdi[3]. Tariximizning so'nggi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo'lib kelgan, bugungi istiqlool kurtagi dastlab mana shu jadidlar ko'ksida nish urib yetilgan edi. XX asr o'zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik jarayoni bo'lgan tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir. "Usulu jadid", "Usuli savtiya" nomlari bilan shuhrat topgan maktabni Turkistonda shular tashkil qildilar[4]. Aynan jadidlar birinchi bo'lib, zamonaviy oliy ta'lim g'oyasini ilgari surdilar, o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan-qancha yoshlarni taraqqiy qilgan Yevropa mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ldilar[5]. O'zbek teatrining ilk g'ishtini qo'ygan ham, nashru matbuotini boshlab bergan ham ul jafokash jadidlardir. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloolga tayyorladilar. O'zlarining yozgan she'r va maqolalari, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar. Turkiston musulmonlarining sha'nu sharafini himoya qildilar.

Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne-ne og'ir sinovlar, mashaqqatli kunlarni ko'rmadi. O'z ozodligi, erkinligi, tinch hayoti yo'lida kurashib, behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati tarixiy xotiramizdan hech qachon o'chmaydi. Mustabid sovet davlati tarix sahnasiga chiqqan kunlardan boshlab, to so'nggi nafasiga qadar, qancha begunoh kishilarni aksilinqilobiy faoliyat,



millatchilik va zararkunandalikda ayblab, ularni ommaviy ravishda qirg'in, qatag'on qildilar. Bu kishilar bilan birga xalqning bunyodkorlik iste'dodi, kuch-irodasi, or-nomusi, olijanob insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan millat gullari yo'q qilib yuborildi. Shuning uchun ham bugun, mustaqillik davrida, XX asrdagi yaqin o'tmishimizga nazar tashlash, mustamlakachilik davlati keltirgan zarar oqibatlarni mushohada va mulohaza etish, tarixiy adolatni tiklash nihoyatda zarur. Bu vazifani ado etishning yo'llaridan biri esa, mustabid tuzum yillarida qatag'on etilgan xalqning sof vijdonli farzandlari xotirasini abadiylashtirish, ularning xalq va Vatan manfaatlari yo'lida kechgan hayotlarini

o'rganish, adabiy va ilmiy merosini xalqqa yetkazishdir. Tariximizning so'nggi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo'lib kelgan bugungi istiqlol kurtagi dastlab, mana shu jadidlar ko'ksida nish urib yetilgan edi.

Xalqimizni ma'rifatchilik va taraqqiyotga boshlashda fidoiylilik qilib tarixga kirgan samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiy edi. Bu ulug' zotni zamondoshlari nuqtai nazaridan ko'rilganda, "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'qdir!"[6]. Mahmudxo'ja Behbudiy "badiiy va ilmiy ijodining rang-barangligi hamda ko'p qirraliligi jihatdan uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'ringa loyiq insondir"[7].

Shuni ta'kidlash joizki, Turkiston muhitida o'sgan yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspralining xizmati katta bo'lgan.

Behbudiy hayotida, so'ngra uning badiiy ijodiyotida 1899-1900-yillardagi "Haj safari" muhim rol o'ynaydi. Behbudiy unda Yevropa va Osiyo bo'ylab sayohati, unda yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Samarqandning "Halvoyi", "Rajabamin" qishloqlarida tashkil etilgan yangi maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yozadi. U Vatan jonkuyari sifatida bararalla ovozi bilan xalqimizni ilm olishga chaqirar ekan, mamlakat yoshlarini chet tillarini o'rganishga undaydi. Jumladan: "Biz Turkistoniylarga turkiy, forsiy,

Istiqlol qahramonlari

Mahmudxo‘ja Behbudiy



Tanlangan asarlar

arabiy va rusiy bilmoq lozimdir. Turkiy, ya’ni o‘zbekini sababi shulki, Turkiston xalqini aksari o‘zbekiy so‘ylashur, forsiy bo‘lsa madrasa va ulamo tilidir.

Bizga saodatdirki, turkiy va forsiyni tahsilsiz bilurmiz, har turkiy forsiy va har forsiy turkiy bilmog‘i lozimdur. Bizga lozimki, o‘z naf‘imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o‘qiylik. Davlat mansablariga kirayluk. Vatanimizga va o‘z dinimizga xizmat etayluk. Musulmon bo‘lib turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini Islom va millatga xizmat ilmsiz bo‘lmaydur.

Xulosa, bugun bizlarga to‘rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya’ni

arabiy, rusiy, turkiy va forsiy o‘rganish lozim”.

Shunday qilib, XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jamiyat islohotchilari bo‘lmish jadidlar, o‘z faoliyatlari tufayli Turkiston ahlining asrlar davomidagi madaniy, ma’rifiy qoloqligiga barham berishga kirishganlari hamon bu oqim vakillari O‘rta Osiyo feodal jaholatparastligi va sho‘rolar tuzumi siquvi qurboniga aylangandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”. 2020, 5-bet.
2. Fayzulla Xo‘jayev, 2-jild. 1973-yil. Toshkent.
3. Behbudiy. Tanlangan asarlar. “Ikki emas, to‘rt til lozim”. 151-152-bet.
4. “Oyna” jurnali, 1913-yil, I-son, 12-14-betlar.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”. 2020, 6-bet.
6. Hoji Mo‘yin, Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 25-mart.

TARIX

XORAZM XOTIN-QIZLARI HAYOTIDAGI IJTIMOIIY VA MADANIY O'ZGARISHLAR

(1920 - 1925 - yy)

UO'K 95(318)



**Muzaffar
MARIMOV,**

**Urganch davlat
Pedagogika
instituti mustaqil
tadqiqotchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqola Xiva xalq inqilobining g'alabasidan so'ng Xorazm xotin-qizlari hayotidagi ijtimoiy, huquqiy va madaniy o'zgarishlarni o'rganadi. Tadqiqotda Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, ko'pxotinlikka qarshi qonunlar qabul qilinishi, nikoh yoshining qonuniy chegaralanishi, xotin-qizlar uyushmalari tashkil etilishi, savodsizlikka qarshi kurash maktablari va ta'lim muassasalari ochilishi kabi tadbirlarning Xorazm ayollarining ijtimoiy mavqeiga ta'siri tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются социальные, правовые и культурные изменения в жизни хорезмийских женщин после победы Хивинской народной революции. В исследовании анализируется влияние проводимых советской властью реформ, в том числе принятия законов против многоженства, законодательного ограничения брачного возраста, создания женских объединений, открытия школ и учебных заведений по борьбе с неграмотностью, на социальное положение хорезмийских женщин.

Annotation: This article examines the social, legal, and cultural changes in the lives of Khorezm women after the victory of the Khiva People's Revolution. The study analyzes the impact of the reforms implemented by the Soviet authorities, including the adoption of laws against polygamy, the legal limitation of the marriage age, the establishment of women's associations, the opening of schools and educational institutions to combat illiteracy, on the social status of Khorezm women.

Kalit so'zlar: Xiva xalq inqilobi, Xorazm xotin-qizlari, Sovet islohotlari, gender tengligi, xotin-qizlar uyushmasi, ta'lim, savodsizlikka qarshi kurash, ijtimoiy faollik, modernizatsiya, 8-mart bayrami.

Ключевые слова: Народная революция Хивы, женщины Хорезма, советские реформы, гендерное равенство, союз женщин, образование, борьба с неграмотностью, общественная активность, модернизация, праздник 8 марта.

Key words: Khiva People's Revolution, Khorezm women, Soviet reforms, gender equality, women's association, education, fight against illiteracy, social activism, modernization, March 8 holiday.

XX asrning 20-30 -yillari O'rta Osiyo xalqlari, xususan, Xorazm mintaqasi uchun ijtimoiy-siyosiy va madaniy transformatsiyalar davri sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. 1920-yilda Xiva xalq inqilobining g'alabasi bilan boshlangan o'zgarishlar nafaqat siyosiy tuzum va iqtisodiy hayotga ta'sir ko'rsatdi, balki an'anaviy jamiyatning eng muhim qatlamlaridan biri – xotin-qizlarning ijtimoiy mavqei va hayot tarziga ham tubdan ta'sir etdi. Bu davrda Sovet hokimiyati tomonidan ilgari surilgan islohotlar, xususan, gender tengligi va ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan siyosat Xorazm xotin-qizlari uchun yangi imkoniyatlar ochdi¹. Ko'pxotinlikka qarshi qonunlar qabul qilinishi, nikoh yoshining belgilanishi, savodsizlikka qarshi kurash maktablari va xotin-qizlar uyushmalarining tashkil etilishi kabi tadbirlar ushbu jarayonning muhim ko'rinishlari bo'ldi.

Xorazm xotin-qizlari hayotidagi ushbu o'zgarishlar nafaqat mahalliy ijtimoiy tuzumning modernizatsiyasini aks ettiradi, balki Sovet Ittifoqi doirasida olib borilgan keng ko'lamli "ayollar ozodligi" siyosatining mintaqaviy xususiyatlarini ham ochib beradi. 1920-yillarda Xiva va Urganch kabi shaharlarda xotin-qizlarning tashkiliy faoliyati, ta'lim sohasidagi ilk qadamlar va ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilinishi jamiyatning yangi sharoitlarga moslashish jarayonini ko'rsatadi.

Xorazm xotin-qizlarining sovet davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlari haqida bir qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular asosan XX asr boshlari va 2-yarmida Markaziy Osiyoda gender tengligi va ayollarning ijtimoiy faollashuvi masalalariga qaratilgan. O'zbekiston tarixshunosligida bu mavzu bo'yicha O.Sobirov, R. Aminova kabi mualliflarning ishlari muhim o'rin tutadi. O.Sobirov o'z tadqiqotlarida Xiva xalq inqilobidan keyingi ijtimoiy islohotlarning ayollar hayotiga ta'sirini yoritgan bo'lsa, R.Aminova sovet hokimiyati davrida ayollarning ta'lim va mehnat sohasidagi faollashuviga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, Xorazm xotin-qizlari harakatining mahalliy

¹ "Hujum" tarixiy tajribasi / Ra'no Yadgarovna Rajapova. - Toshkent: O'zbekiston SSR, "Bilim" jamiyati, 1987.22-b.

xususiyatlari va ularning tashkilotchilik faoliyatiga oid maxsus monografiyalar yetishmaydi.

Xorijiy adabiyotlarda, masalan, M. Kamp (2006) va D. Northrop (2004) kabi tadqiqotchilarning asarlarida Markaziy Osiyoda sovet islohotlari doirasida ayollar ozodligi masalasi keng ko‘lamda o‘rganilgan. Kampning “The New Woman in Uzbekistan” asarida ayollarning ijtimoiy rolidagi o‘zgarishlar va sovet siyosatining mahalliy an‘analarga ta’siri tahlil qilinadi. Biroq, bu tadqiqotlar ko‘proq umumiy O‘zbekiston kontekstiga qaratilgan bo‘lib, Xorazmning o‘ziga xos shart-sharoitlari kam yoritilgan. Mahalliy manbalarga kelsak, Xorazm xotin-qizlari uyushmasining hisobotlari va davriy matbuotdagi maqolalar (masalan, “Inqilob quyoshi”) muhim ma’lumot manbai sifatida xizmat qiladi, ammo ularning tizimli tahlili hali to‘liq amalga oshirilmagan.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazmdagi xotin-qizlar harakatining dastlabki yillardagi rivojlanishi, ayniqsa, 1920-1925-yillardagi tashkilotchilik faoliyati va ijtimoiy o‘zgarishlar haqida maxsus tadqiqotlar zarur.

1920-yilda ko‘pxotinlikka qarshi qonunning qabul qilinishi Xorazmda ayollarning ijtimoiy mavqeini o‘zgartirishdagi dastlabki qadam bo‘ldi. Bu qonun an‘anaviy patriarxal tuzumga qarshi qaratilgan bo‘lib, ayollarga oilaviy hayotda muayyan darajada mustaqillik berdi. Shu yili birinchi bolalar bog‘chasining ochilishi esa ayollarning mehnat faoliyatiga jalb qilinishi uchun infratuzilma yaratishga xizmat qildi. 1921-yilda nikoh yoshining qizlar uchun 16, yigitlar uchun 17 qilib belgilanishi o‘smirlik davrida majburiy turmush qurishning oldini olishga qaratildi¹. Ushbu qonunchilik o‘zgarishlari Xorazm ayollarining huquqiy maqomini mustahkamlash bilan birga, ularning jamiyatdagi rolini qayta belgilashga zamin yaratdi. Biroq, mahalliy an‘analarning chuqur ildiz otganligi sababli, bu qonunlarning amalda to‘liq joriy etilishi sekin kechdi va ko‘pincha qarshiliklarga duch keldi.

¹ Собиров. О , Қозоқов. Э “Хоразм тарихидан лавҳалар”, “Мураббий” нашриёти, Урганч: 1994, 39-б.

Xorazm xotin-qizlari harakatining eng muhim yutug'i 1923-yil 12-sentyabrda Xotin-qizlar uyushmasining tashkil etilishi bo'ldi. Hisobotlarda qayd etilishicha, 1924-yil 1-yanvargacha uyushma tomonidan 5 marta kollegiya majlisi va 4 marta umumiy yig'ilish o'tkazilib, jami 22 masala ko'rib chiqilgan. Bu majlislar ayollarning ijtimoiy huquqlari, ta'lim va mehnat masalalarini muhokama qilish uchun platforma bo'lib xizmat qildi. Uyushmaning "Qizil kazarma haftaligi" tashabbusi doirasida turli millatlardan 38 nafar xotin-qiz harbiylar uchun kiyim tikish ishlarini bajarib, armiyaga moddiy yordam ko'rsatdi. Bu faoliyat nafaqat ayollarning iqtisodiy hissasini oshirdi, balki ularning vatanparvarlik ruhini ham namoyish etdi. 1925-yilda Xivani qamal qilgan "Inqilobga qarshi" kuchlarga qarshi kurashda xotin-qizlarning qurolli ishtiroki esa ularning siyosiy faolligining eng yuqori nuqtasini ko'rsatadi. Xiva va Urganch shaharlarida tashkil qilingan xotin-qizlar klublari ommaviy-siyosiy ishlarning markaziga aylandi va mahalliy ayollarning o'z tashkilotlariga ega bo'lish talabini kuchaytirdi. Shu bilan birga, Rahima Bobojonova, Durjon Bikchurina kabi yetakchi shaxslarning tashkilotchilik salohiyati harakatning muvaffaqiyatida muhim rol o'ynadi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar Xorazm xotin-qizlari harakatining uzoq muddatli rivojlanishiga asos bo'ldi. 1921-yilda savodsizlikni tugatish maktabining ochilishi va unda 65 nafar ayolning ta'lim olishi bu jarayonning boshlanishi edi. Xiva shahridagi turli kurslarda Sharifa Abdurasulova, Komila Qo'shaeva kabi ilg'or ayollarning faol ishtiroki yangi avlod o'qituvchilarining shakllanishiga xizmat qildi. 1925-yilda Xiva xotin-qizlar klubida 53 nafar a'zo (20 o'zbek, 28 tatar, 3 rus, 2 qozoq) ro'yxatga olinib, ular orasida ommaviy-siyosiy va madaniy tadbirlar faol ravishda olib borildi. Shu yili pedagogika texnikumining ochilishi ayollarning professional ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi va Zaynab Kamolova, Xadicha Valishova kabi yetakchilarning rahbarligida qizlar o'qituvchilik kasbini egallashga kirishdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1925-yilda ta'lim olish uchun 56 nafar xotin-qiz ariza topshirgan bo'lib, bu ayollarning bilim olishga intilishidagi o'sishni ko'rsatadi.

Biroq, ta'limdagi bu yutuqlarga qaramay, savodsizlik darajasi hali ham yuqori bo'lib, ayniqsa qishloq joylarda ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan edi.

1925-yil 15-iyulda Xiva shahrida xotin-qizlar bilim yurtining ochilishi katta tarixiy voqea bo'ldi. Qizlar pedagogika texnikumiga Zaynab Komolova mudir, Xadicha Valishova o'qituvchi, Zaynab Potiyeva, Xadicha Azimova xo'jalik ishlari mudiri, Qurbonoy Otajonova oshpaz bo'lib ish boshladilar¹.



Xorazm xotin-qizlari harakatining rivojlanishi silliq kechmadi. An'anaviy jamiyatning qarshiligi, ruhoniylar va mahalliy elitadan kelgan tahdidlar ayollar faolligiga jiddiy to'siq bo'ldi. 1925-yilda xotin-qizlar faollariga qarshi qilingan hujumlar, shuningdek, 36 nafar ayolning erlaridan kaltaklanib kasalxonaga tushishi va 37 nafarining ajrashish uchun sudga murojaat qilishi ushbu jarayonning murakkabligini ko'rsatadi. Bu holatlar ayollarning ozodlik uchun

¹ Собиров. О , Қозоқов. Э. “Хоразм тарихидан лавҳалар”, “Мураббий” нашриёти, Урганч: 1994, 42-б.

kurashida nafaqat tashqi, balki ichki oilaviy muhitdagi qiyinchiliklarga ham duch kelganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, infratuzilmaning yetishmasligi – masalan, ta'lim muassasalari va xotin-qizlar klublarining faqat shaharlarda mavjudligi – qishloq ayollarini jarayonga to'liq jalb qilishni qiyinlashtirdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 1920-1925-yillar Xorazm xotin-qizlari harakati uchun dastlabki shakllanish va o'sish davri bo'ldi. Bu davrda ayollar sovet siyosatining qo'llab-quvvatlashi va o'z tashabbuslari natijasida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirokchiga aylandi. Xotin-qizlar uyushmalari va klublarining tashkil etilishi ularning o'z huquqlari uchun birlashish qobiliyatini oshirdi, ta'limdagi yutuqlar esa kelajakda professional kadrlar shakllanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, an'anaviy jamiyatning qarshiligi va resurslarning cheklanganligi bu jarayonni sekinlashtiruvchi omil sifatida saqlanib qoldi. Xorazm xotin-qizlari harakati sovet siyosati va mahalliy tashabbusning sintezi sifatida rivojlanib, ayollarning jamiyatdagi o'rnini o'zgartirishda muhim bosqich bo'ldi, ammo bu o'zgarishlarning to'liq amalga oshishi uchun keyingi yillarda yanada kengroq islohotlar talab qilindi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Xorazm xotin-qizlari harakati 1920-1925-yillarda sovet hokimiyati doirasida gender tenglikni ta'minlash va ayollarni yangi hayot qurilishiga jalb qilishda muhim rol o'ynadi. Bu davrda xotin-qizlar uyushmalari, ta'lim muassasalari va klublar tashkil etilishi ayollarning ijtimoiy faolligini oshirgan bo'lsa-da, mahalliy an'analar va diniy qarshiliklar bu jarayonni murakkablashtirdi. Xorazm xotin-qizlarining tashkilotchilik salohiyati, harbiy va ijtimoiy yordamdagi ishtiroki ularning nafaqat qurbonlar, balki faol ishtirokchilar sifatida maydonga chiqqanligini tasdiqlaydi. Kelgusida ushbu mavzuni yanada chuqur o'rganish uchun quyidagi takliflar beriladi:

1. Xorazm xotin-qizlari faoliyatiga oid qo'shimcha arxiv hujjatlarini o'rganish orqali ularning shaxsiy hikoyalari va mahalliy tashkilotlarning ichki dinamikasini yoritish.

2. Xorazm xotin-qizlari harakatini Markaziy Osiyoning boshqa hududlari (masalan, Farg‘ona yoki Samarqand) bilan solishtirish orqali mintaqaviy xususiyatlarni aniqlash.

3. Ayollarning kundalik hayoti va oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlarini zamonaviy gender nazariyalari asosida tahlil qilish.

Ushbu tadqiqot Xorazm xotin-qizlari harakatining tarixiy ahamiyatini yoritish bilan birga, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Собиров.О, Қозоқов. Э. “Хоразм тарихидан лавҳалар”, “Мураббий” нашриёти, Урганч: 1994, 37-46-бетлар.
2. “Hujum” O‘zbekiston ayollari taqdirida: Ayollar teng huquqlilik harakatining 60 yilligi munosabati bilan / Rahima Hadievna Aminova. - Toshkent: O‘zbekiston SSR “Bilim” jamiyati, 1987. 24-b.
3. Nishonboyeva Q.V. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlar/20-30 yillar/: tajriba va oqibatlar. Tarix fan.diss.,1998. 68-bet
4. O‘zbekistonda “Hujum” harakati: Us.-bibliogr. tavsiyalar / Davlat nomidagi O‘zbekiston SSR kutubxonasi A. Navoiy; Tuz. Baratova S.— Toshkent: G.B. O‘zSSR, 1987. 28-b.
5. “Hujum” tarixiy tajribasi / Ra’no Yadgarovna Rajapova. - Toshkent: O‘zbekiston SSR “Bilim” jamiyati, 1987. 22-b.
6. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии. История изучения и современные проблемы. Ташкент,1991.С.36

TARIX**MARKAZIY FARG‘ONADA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA
TADBIRLARI (1950-1991-yillar)****UO‘K 95(318)****Maftunaxon
RUZIKULOVA,****Farg‘ona davlat
universiteti
doktoranti, tarix
fanlari bo‘yicha
falsafa doktori
(PhD)**

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Farg‘ona qo‘riq, bo‘z yerlarining o‘zlashtirilishi, sug‘orilishi jarayonlari, shuningdek, sovet hokimiyatining paxta yakkahokimligi siyosati ta’sirida bu yerda paxtachilikka ixtisoslashgan rayon va sovxozlarning tashkil qilinishi hamda markazga paxta yetishtirib berishning ortib borishi va uning salbiy oqibatlari birlamchi manbalar yordamida tahlil qilingan. Bundan tashqari, vodiydagi yangi yerlarni o‘zlashtirish tadbirlariga davlat byudjeti va kolxozlarning bo‘linmas jamg‘armasidan kapital mablag‘lar ajratishning yildan-yilga ortib borganligi xronologik tarzda bayon qilingan.

Аннотация: В статье описывается с помощью первичных источников процессы освоения и орошения целинных земель в Центральной Фергане, также на данных землях образование районов и совхозов на основе политики хлопковой монополии советского правительства, увеличения доставки хлопка в Центр и их отрицательные последствия. Кроме того, хронологически установлено, что из года в год выделяются капитальные средства из государственного бюджета и неделимые фонда колхозов на освоение новых земель в долине.

Annotation: The article describes, using primary sources, the processes of development and irrigation of virgin lands in Central Ferghana, as well as the formation of districts and state farms on these lands based on the policy of the cotton monopoly of the Soviet government, increasing the delivery of cotton to the Center and their negative consequences. In addition, it is chronologically established that from year to year capital funds are allocated from the state budget and indivisible funds of collective farms for the development of new lands in the valley.

Kalit so‘zlar: Markaziy Farg‘ona, qo‘riq yerlar, sug‘orish, sovxoz, sovet hukumati, paxta yakkahokimligi, qishloq xo‘jaligi, kanal, melioratsiya, “Ferganavodstroy”.

Ключевые слова: Центральная Фергана, целинные земли, ирригация, совхоз, советское правительство, монокультура хлопка, сельское хозяйство, канал, мелиорация, «Ферганаводстрой».

Key words: Central Ferghana, virgin lands, irrigation, state farm, Soviet government, cotton monoculture, agriculture, canal, melioration, "Ferghanavodstroy".

Milliy istiqloлга erishgan O'zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya ishlari tarixini xolisona va ilmiy tarzda tadqiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, sovet hukumati respublikada paxta yetishtirishni yanada taraqqiy ettirish va ko'paytirish maqsadlarida sug'orma dehqonchilik uchun qulay hudud hisoblangan Farg'ona vodiysiga muhim e'tibor qarata boshladi. O'zlashtirish ishlari "Cho'l o'zlashtirish - mardlar ishi" nomli shiorlar ostida boshlandi. Ana shu jihatlardan kelib chiqqan holda beshinchi besh yillik (1951-1955-yillar) rejasida hamda 1952-yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston KP (b) ning IX syezdi rezolyutsiyalarida paxtachilikni yanada yuksaltirish, shuningdek, Farg'ona vodiysidagi sug'oriladigan yerlar hajmini kengaytirish va qo'riq yerlarni o'zlashtirish asosiy masalalar sifatida ta'kidlab o'tildi. Yuqoridagi belgilangan vazifalarni va SSSR Ministrlar Sovetining qarorlarini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi hamda respublika hukumati tomonidan 1952- yil 16-sentabrda kengaytirilgan qaror qabul qilingan va unda Markaziy Farg'ona yerlarining birinchi va ikkinchi navbatini o'zlashtirish maqsadida hamda sug'orish bo'yicha amaliy vazifalar belgilab berilgan edi [27. B.126]. Ushbu qarorlarda shu bilan birga Markaziy Farg'onadagi cho'l yerlarining 1953-yildan 1958-yilga qadar 36 000 *ga* hajmida o'zlashtirilishi qayd etildi.

Sovet hukumati tomonidan respublikadagi yangi yerlarni o'zlashtirish chora-tadbirlari hamda sug'orish tizimini yanada rivojlantirishga doir ko'plab qarorlar qabul qilindi. 1952-yil 16-noyabrdagi O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qaroriga asosan Markaziy Farg'onaning 65 000 *ga* yangi va qo'riq yerlarni sug'orish ishlari ko'rib chiqildi [1.V.31]. Shu jumladan, Yozyovon va Qizil Tigin cho'llari - 30000 *ga*; Ulug'nor kanali tizimi bo'yicha - 6 000 *ga*; Oxunboboev nomli kanal tizimi bo'yicha - 14 000 *ga*; Farg'ona, Andijon va Namangan oblastlaridagi 15000 *ga* maydonni egallagan qo'riq va qarovsiz yotgan yerlar. Beshinchi besh yillik (1951-1955 yy.) davridan boshlab Markaziy Farg'onaning qo'riq yerlarini o'zlashtirish boshlandi [7.V.3]. Bu tadbirni amalga oshirishda respublika yoshlarini jalb etish borasida

murojaatnoma qabul qilindi. Chunki faqat 1954 – 1958-yillarda O‘zbekiston Respublikasi hududida 600 ming *ga* yer o‘zlashtirilishi kerak edi. Murojaatnomaga javoban 1954-yilda Markaziy Farg‘ona qo‘riq yerlarini o‘zlashtirish uchun 1700 ta yoshlar keldilar[8. B.35].

SSSR Ministrlar Soveti va KPSS MQning “O‘zbekiston SSRda 1954-1958-yillarda paxtachilikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”[3]gi 1954-yil 9-fevralidagi qarorida Farg‘ona vodiysida 142 ming *ga* maydonni, shu jumladan 116 ming *ga* maydonni Markaziy Farg‘onada o‘zlashtirish va sug‘orish ko‘zda tutildi. Xususan, Bo‘z rayoni bo‘yicha 1950-yildan 1954-yilgacha 2803 *ga* yer o‘zlashtirilgan bo‘lsa, 1953-1958-yillar ichida 2960 *ga* yangi yer o‘zlashtirildi [22]. Markaziy Farg‘onaning yalpi maydoni 532,4 ming *ga*, shu jumladan netto (sof) holidagi maydon 363,7 ming *ga* ekanligi, shundan 1953-yilning 1-yanvariga qadar 190,5 ming *ga* o‘zlashtirilgan yer mavjudligi ko‘rsatib berilgan edi [26.B.28]. Kolxozlararo Sovet tomonidan 1953-yildan 1956-yilga qadar “Ferganavodstroy” tresti Markaziy Farg‘onadagi qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish bo‘yicha sezilarli darajadagi ishlarni amalga oshirganligi e‘tirof etildi [7.V.5].

O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1953-yil 20- oktabrdagi “O‘zbekiston SSRda sug‘oriladigan yerlarni kengaytirish va suv xo‘jaligining bundan keyingi rivojlanishi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, Namangan oblastidagi sug‘oriladigan maydonlarning 1958-yildagi o‘sishi 38,0 ming *ga* ni tashkil etganligining 1952-yilga nisbati solishtirildi va ko‘rib chiqildi. Bu maydonlarning Markaziy Farg‘ona yerlari bo‘yicha o‘sishi 28,0 ming gektarni tashkil qilib, mazkur davrda 1953-1955-yillarda ekish uchun 25,0 ming *ga* tayyor bo‘lishi kerak edi. Markaziy Farg‘onada 1953-yil 1-yanvaridan o‘zlashtirishga ega qo‘riq va bo‘z yerlarning umumiy maydoni 173.2 ming *ga* tashkil qilib, jumladan Farg‘ona oblasti bo‘yicha - 89.6 ming *ga*, Andijon oblasti bo‘yicha - 83,6 *ga* [13]. 1953-1955-yillar davomida Gulbog‘ sovxozidagi qo‘riq yerlar 1,6 ming *ga*, yangi yerlar 6,3 ming *ga*, Damko‘l yangi sug‘orish massivida

esa yangi yerlar 3,5 ming *ga* tashkil qilgan. O'zlashtirilgan yerlarda tashkil qilingan kolxozlarning bir gektar yeridan 8-10 s.gacha paxta hosili olindi [14].

1955-yildagi reja bo'yicha qurilish tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi oldindan ko'zda tutilgan ishlarning natijalariga ko'ra, biror bir obyekt tugallanmagan va ekspluatatsiya uchun berilmagan. Yangi yerlarni irrigatsion-meliorativ jihatidan tayyorlash 50669 *ga* maydonda o'tkazildi, jumladan, Farg'ona oblasti bo'yicha – 21092 *ga*, Andijon oblasti bo'yicha – 13862 *ga*, Namangan oblasti – 15672 *ga* ni tashkil qildi. Irrigatsion-meliorativ jihatdan 27332 *ga* yer tayyor hisoblandi, undan 17592 *ga* qo'riq yerlardir [1.V.2].

Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirishga o'n yil davomida, ya'ni 1953-1963-yillar uchun rejaga ko'ra 50753,3 ming rubl ajratildi, amalda 40425,8 ming rubl mablag' sarflandi. Shundan kolxozlarning bo'linmas jamg'armasidan rejada 35309,9 ming, amalda 20170,9 ming; davlat byudjetidan rejada 15444,4 ming, amalda esa 20254,9 ming rubl xarajatlandi. 1953-1960-yillarda Andijon oblasti kolxozlarining reja bo'yicha to'lov (vznos) mablag'lari 38,8 mln. rubl bo'lib, Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirishga amalda 26,8 mln. rubl kiritildi yoki u 69,2 %ni tashkil qildi. 1961-yilda reja bo'yicha to'lovlar 4346 ming rubl bo'lib, shu yilning 11-noyabriga kolxozlar 1825 ming rubl kiritdi yoki u 42 % ni tashkil etdi [25]. 1953-1973-yillarda Farg'ona vodiysida yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orishga sarflangan kapital mablag'lar evaziga paxta ekin maydoni 9,2 %ga o'sgan holda, bu ko'rsatkich hosildorlikda 24,9 %, yalpi hosilda 42,8 %ni tashkil etdi [15.V.36]. Aytish mumkinki, yuqoridagi barcha tadbirlar va sa'y-harakatlar respublikada aynan paxtachilikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirildi.

O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1957-yil 26- fevraldagi qaroriga muvofiq mazkur yilning 18-martida O'z SSR Qishloq xo'jaligi ministrligi "Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish ishlarini kuchaytirish to'g'risida"gi buyruq chiqardi [2]. Unga asosan Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va xo'jalik jihatidan o'zlashtirish rejasi 1956-1961-

yillar davrida - 80,0 ming gektar qo‘riq va bo‘z yerlarni tashkil qilib, jumladan, u Farg‘ona oblastida - 32,0 ming *ga*, Andijon oblastida - 28,0 ming *ga*, Namangan oblastida - 20,0 ming *ga* dan iborat bo‘ldi. 1957-yilning 17-avgustida Andijon oblast ijroiya qo‘mitasi raisi huzurida Markaziy Farg‘onadagi yangi yerlarni xo‘jalik o‘zlashtirish va sug‘orishning kompleks sxemasi texnik kengash majlisida ko‘rib chiqildi. Majlisda yangi yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish sxemasi 173.2 ming *ga*, undan Andijon oblasti bo‘yicha - 36.4 ming *ga*, Namangan oblasti bo‘yicha - 49.7 ming *ga*, Farg‘ona oblasti bo‘yicha esa - 87.1 ming *ga* miqdorni egallaganligi ta’kidlandi [10].

1958-yilning 18-martida O‘zSSR Ministrlar Soveti “1958-yilning hosili uchun yangi va qo‘riq (partov) yerlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida” gi qarorni qabul qildi. 1958-yil hosili uchun yangi va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirishga tayyorlash O‘zSSR Ministrlar Soveti va O‘zbekiston KP MQning 1957-yil 23-sentabrdagi belgilangan qaroriga asosan 36,2 ming *ga* hajmdagi yerlar respublika oblastlari va Qoraqalpog‘iston ASSRda qoniqarsiz tarzda bajarilayotganligi O‘zSSR Ministrlar Soveti tomonidan qayd etildi. 1958-yil 10-martidagi holatga ko‘ra faqat 25 ming *ga* irrigatsion-meliorativ tayyorlandi, reja bo‘yicha 29 ming *ga* maydondan 17,2 ming *ga* maydonni planini tuzish o‘tkazildi [8]. 1958-yil 21-aprelda O‘zbekiston KP MQ va O‘zSSR Ministrlar Soveti “Markaziy Farg‘onadagi yangi va qo‘riq yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha ishlarni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi [15.V.95]. 1959-yilning 1-yanvari holatiga ko‘ra, butun Markaziy Farg‘ona obyektlari ekspluatasiyasi bo‘yicha 377826,00 ming rubl kapital mablag‘ tayyorlandi, undan faqat 172644,64 ming rubli ekspluatasiya uchun ajratildi [4]. Shu yil 23-yanvarda O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “1959-yilda Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishi dasturini tasdiqlash haqida”gi qarorni qabul qildi. Ushbu o‘rnatilgan rejaga muvofiq Markaziy Farg‘ona massividagi sug‘oriladigan yerlarning o‘sishi miqdori 13000 *ga*, amalda esa 10230 *ga* rejalashtirildi, shu jumladan, 1959-yildagi ekish uchun 7228 *ga* [24.V.232]. 1959-yil 3-avgustda O‘zbekiston KP Markaziy Qo‘mitasi va

O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti “1959-1965-yillarda Markaziy Farg‘onada qo‘riq va bo‘z yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi [9.V.48]. Ushbu qaror asosida Markaziy Farg‘ona hududlarini suv bilan ta‘minlashni yanada ko‘paytirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. “Qishloq xo‘jaligi oborotiga 36 ming gektardan ortiqroq bo‘z va qarovsiz yotgan tashlandiq yerlar kiritildi, 250 km dan ortiqroq avtomobil yo‘llari qurildi, 22 ta kolxoz posyolkalari barpo qilindi”[16].

Shu yilning 9-noyabrida yuqoridagi qarorga muvofiq Andijon oblast qishloq xo‘jaligi boshqarmasi “1959-1965-yillarda Markaziy Farg‘onada qo‘riq va bo‘z yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish to‘g‘risida” buyruq e‘lon qilib[5], Markaziy Farg‘onada 1959-1965-yillar mobaynida yangi o‘zlashtiriladigan 24,8 *ga* miqdoridagi yerlarni tayyorlash yuzasidan bajariladigan topshiriq rayonlar bo‘yicha tasdiqlandi [17]. O‘zSSR Qishloq va suv xo‘jaliklari ministrligi zimmasiga 1959-yil davomida Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirishning bosh sxemasini va uning alohida massivlar bo‘yicha proektlarini ko‘rib chiqish, loyihaviy xo‘jaliklar maydonini 2,0-2,5 *ming ga* hajmida kengaytirish yuklatildi [9.V.52].

1960-yil 18-martda O‘zSSR Suv xo‘jaligi ministrligi “1960-yilda Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishi dasturi to‘g‘risida” buyruq e‘lon qildi [19.V.31]. Ushbu buyruqda O‘zSSR Suv xo‘jaligi ministrligining Markaziy Farg‘ona obyektlarini kapital mablag‘ bilan ta‘minlash rejasi o‘rnatildi va “Ferganavodstroy” trestini 1960-yilda 111.151 *ming rubl* miqdorida mablag‘ bilan ta‘minlash tasdiqlandi. 1960-yilning 21-martida O‘zSSR Qishloq xo‘jalik ministrligi “1960-yilda Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishlari dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida” buyruq e‘lon qildi [21]. Ushbu buyruqda O‘zbekiston KP MQ va O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1960-yil 9-martdagi qaroriga asosan Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishlari dasturiga

1960-yilda 187.156 ming rubl miqdoridagi mablag' ajratildi. 1960-yil 14-iyuldagi O'z SSR Ministrlar Sovetining "Yangi yerlarni sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishlariga kolxozlarning bo'linmas fondi mablag'lari to'lovi rejasining bajarilishi to'g'risida"gi qarorida kolxozlararo sovet tomonidan qurilish ishlariga 43210 ming rubl sarflanishi kerak edi, amalda esa faqat 17874 ming rubl hajmidagi mablag' ishlatildi. "Ferganavodstroy" tresti tomonidan suv xo'jaligi qurilishiga 22400 ming rubl mablag'dan 10629 ming rubli kiritildi [15.V.28]. 1961-yil 12-mayda O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Markaziy Farg'onada qo'riq yerlarni o'zlashtirishning borishi to'g'risida" qarorni qabul qildi [23]. Ushbu qarorda O'zSSR Suv va qishloq xo'jalik ministrligi, Andijon oblast partiya komiteti va oblast ijroiya komiteti tomonidan Markaziy Farg'ona yerlaridagi sug'orish bo'yicha barcha ishlarni 1965-yilda tugatish taklifi ma'qullandi. 1953-yildan 1961-yilga qadar 60,6 ming *ga* yerning irrigatsiya- melioratsiya jihatdan tayyorlandi, undan 1960-yilda 41, 0 ming *ga* kolxozlar va sovxozlarda ekin bilan band qilindi [6].

1961-1965-yillarda Markaziy Farg'ona yerlarining 122,2 ming *ga* maydonidagi qolgan barcha qo'riq yerlarni sug'orish undan Farg'ona oblasti bo'yicha 67,8 ming *ga* va Andijon oblasti bo'yicha 54,4 ming *ga* [24.V.237] yerlaridagi umumiy ishlarni yakunlash to'g'risidagi qarorga asosan Markaziy Qishloq xo'jalik o'zlashtirish ishlari 1961-1965- yillarda jami 101 ming *ga* ni tashkil etib, undan 60,2 ming *ga* kolxozlarga, shuningdek, 40,8 *ga* xo'jalik jihatdan o'zlashtirilgan sovxozlarga to'g'ri keldi [12].

Qisqa muddat ichida Markaziy Farg'onadagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish hamda Farg'ona vodiysidagi kolxozlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda 1961-1966-yillarda oblast tashkilotlarining takliflari qabul qilindi. Unga ko'ra, Farg'ona oblastida mavjud 20,3 ming *ga* qo'riq yerlarda paxtachilik sovxozlari va yana 17,3 ming *ga* yerda ikkita sovxoz tashkil qilinadi, Andijon oblasti bo'yicha 8,6 ming *ga* mavjud sovxozlar va 20,6 ming *ga* sovxozlar tashkil qilinadi [18].



1961-yilning 1-iyuliga qadar Markaziy Fargʻona yerlarini sugʻorish va oʻzlashtirish boʻyicha Kolxozlararo Sovet Fargʻona hamda Andijon oblastlarida ish olib bordi. 1960-yilda Kolxozlararo Sovetda 7710 *ga* yerlarning irrigatsiya-melioratsiya tayyorgarligi masalasi muhokama qilindi. Undan 2240 *ga* Andijon oblastiga, 5470 *ga* Fargʻona oblastiga toʻgʻri keldi. 1961-yildagi hisobotda faqat Fargʻona oblasti boʻyicha 6333 *ga* yerlar irrigatsion-meliorativ jihatdan tayyorlanganligi koʻrsatilgan [19.V.21]. Undan 5030 *ga* qoʻriq yerlarni dastlabki tayyorlash uchun, 1303 *ga* esa ilgari tayyorlangan yerlardagi takroriy ishlar uchun ajratildi. SSSR Ministrlar Sovetining 1962-yil 2-sentabrdagi qarorida OʻzSSRning Fargʻona va Andijon oblastlaridagi, yaʼni aynan Markaziy Fargʻona yerlaridagi olib borilayotgan oʻzlashtirish va sugʻorish ishlari koʻzda tutildi [20].

1964-yilgacha Markaziy Fargʻonaning yangi sugʻoriladigan massivlarida 2000 km dan uzunroq turli kanallar, 2000 km dan ortiqroq yer osti kanal-quvur va kollektorlar, 7000 tadan koʻp gidrotexnik inshootlar qurildi [11. B.48]. Oʻzbekiston KP MQning 1964-yil 21-sentabrda “1965-yilda yangi va boʻz yerlarni ekishga tayyorlash toʻgʻrisida” gi qaroriga asosan Fargʻona oblast qishloq

ijroiya qo‘mitasi tomonidan 1965-yilda oblastdagi yangi yerlarni ekish davridagi o‘sib borishi - 6093 *ga*, undan 984 *ga* 1964-yilda qishloq xo‘jaligi oborotidagi mablag‘lardan tushgan, 3958 *ga* Markaziy Farg‘onada ekishga qadar tayyorlangan va yangi tayyorlash ishlari - 1151 *ga* hajmida bajarildi [24.V.67].

Sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 15-martdagi qaroriga asosan Andijon suv ombori barpo etildi. U sobiq Ittifoqning markaziy davlat byudjeti hisobidan amalga oshirildi. 1969-yilda (o‘sha yil narxida) mazkur inshootning umumiy narxi 332,5 mln. rublni tashkil qilib, amalda 297,0 mln. rubl miqdoridagi mablag‘ o‘zlashtirildi [26]. Farg‘ona viloyatida 15 yil (1966-1980-yillar) mobaynida ko‘plab sug‘orish ishlari uddalandi. Jumladan, “Markaziy Farg‘onaning 42,2 ming *ga* dan ziyod yeri o‘zlashtirildi. Ekin maydonlari qariyb 300 ming *ga* ga yetdi. Shu davr ichida Karkidon, Qo‘rg‘ontepa suv omborlari qurildi”[27].

Xullas, 1950-1991-yillarda Markaziy Farg‘ona yerlarida ham irrigatsiya-melioratsiya ishlarining yuqori darajada taraqqiy ettirilishi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi, xususan paxtachilik sohasini rivojlantirilishi natijasida katta hajmda o‘zlashtirish va sug‘orish ishlari amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. Andijon viloyat davlat arxivi (AVDA), 608-fond, 1-ro‘yxat, 932-yig‘majild.
2. AVDA, 619- fond, 1-ro‘yxat, 113- yig‘majild, 107-varaq.
3. AVDA, 608- fond, 1-ro‘yxat, 955- yig‘majild, 12-varaq.
4. AVDA, 608- fond, 1-ro‘yxat, 1177- yig‘majild, 43 -varaq.
5. AVDA, 619- fond, 1-ro‘yxat, 140- yig‘majild, 203 -varaq.
6. AVDA, 608- fond, 1-ro‘yxat, 1451- yig‘majild, 16 -varaq.
7. Namangan viloyat davlat arxivi (NVDA), 275- fond, 1-ro‘yxat, 1341-yig‘majild.
8. NVDA, 317- fond, 1-ro‘yxat, 1330- yig‘majild, 9-varaq.
9. NVDA, 317- fond, 1-ro‘yxat, 1421- yig‘majild, 48 -varaq.

10. Насритдинов Қ.М. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация қурилишининг ривожланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари (1981-1990 йиллар): Тарих фан.номз. ... дис.- Андижон, 1994.-147 б.
11. Очилов Н. Ўзбекистонда ирригация- мелиорация ишлари (1946 - 1964).-Тошкент: “Фан”, 1991. -104 б.
12. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDA), 1151- fond, 1-ro‘yxat, 14-yig‘majild, 1-varaq.
13. FVDA, 1151- fond, 1-ro‘yxat, 80-yig‘ma jild, 6-varaq.
14. FVDA, 1151- fond, 1-ro‘yxat, 87- yig‘majild, 57-varaq
15. FVDA, 1151- fond, 1-ro‘yxat, 13- yig‘majild.
16. FVDA, 1151- fond, 1-ro‘yxat, 59- yig‘majild.
17. FVDA, 1151- fond, 1-ro‘yxat, 47- yig‘majild, 3-varaq.
18. FVDA, 1151- fond, 1-ro‘yxat, 91- yig‘majild.
19. FVDA, 1151- fond, 1-ro‘yxat, 98- yig‘majild, 15-varaq.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi arxivi Andijon viloyat bo‘limi (O‘zR PAA AVB), 155- fond, 1-ro‘yxat, 201- yig‘majild, 5-varaq.
21. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.2483- fond, 1-ro‘yxat, 1382- yig‘majild, 285-varaq
22. O‘zbekiston Milliy arxivi, 2483- fond, 1-ro‘yxat, 1595- yig‘majild.
23. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.90- fond, 10-ro‘yxat, 303- yig‘majild, 124-varaq.
24. O‘zR PAA AVB, 155- fond, 2-ro‘yxat, 190- yig‘majild, 3-varaq.
25. O‘zR PAA AVB, 155- fond, 2-ro‘yxat, 183- yig‘majild, 88-varaq.
26. Гофуров А. Ирригация ва мелиорацияни ривожлантиришнинг иқтисодий проблемалари.-Тошкент: Ўзбекистон, 1974.-126 б.

TARIX**ANDIJON SUV OMBORI TARIXIDAN****UO‘K 94 (575.1)**

**Abduraxman
TURGUNOV,**

**Andijon davlat
universiteti
“Jahon tarixi”
kafedrasi katta
o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada suv omborlarining paydo bo‘lish tarixi, uning muhim iqtisodiy inshootlardan biri ekanligi to‘g‘risida yoritilgan. Xususan, suv omborlarining xususiyatlari, turlari haqida bayon etilgan. Andijon suv omborining qurilishi, bir qancha statistik va tahliliy ma‘lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье освещается история возникновения водохранилищ и их роль как важных экономических объектов. В частности, описаны особенности и типы водохранилищ. Приводятся статистические и аналитические данные, в том числе информация о строительстве Андижанского водохранилища.

Annotation: This article covers the history of reservoirs' emergence and their role as important economic objects. In particular, the features and types of reservoirs are described. Statistical and analytical data are presented, including information on the construction of the Andijan Reservoir.

Kalit so‘zlar: suv omborlari, suv obykti, suv resurslari, Andijon suv ombori, gidrouzel, GES, Kampirrovot.

Ключевые слова: водохранилища, водный объект, водные ресурсы, Андижанское водохранилище, гидроузел, ГЭС, Кампирравот.

Key words: reservoirs, water body, water resources, Andizhan reservoir, hydroelectric power station, hydroelectric power station, Kampirravot.

Suv omborlari davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim infratuzilma elementlaridan biri hisoblanadi, chunki bu inshootlar suv resurslarini saqlash, taqsimlash va boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Suv ombori to‘g‘on orqasidagi kengaygan ko‘ldir. U odatda toza suvni saqlash uchun qurilgan bo‘lib, ko‘pincha gidroenergetika ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

Birinchi suv omborlari Qadimgi Misrda Nil daryosi vodiysidagi yerlarni o‘zlashtirish maqsadida miloddan avvalgi 3000-yilda barpo etilgan. Bundan tashqari, eng qadimiy suv omborlari qatoriga Qadimgi Misrdagi Koshish, Saad-yel-Kafara va Meris suv omborlari, Yaqin Sharqdagi Nimrod, Xitoydagi qator suv omborlarini misol qilish mumkin [1. – B.5].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab suv omborlari rejimining atrof-muhitga ta’siri global masshtabni egallaganligi sababli, ularning gidrologik

rejimini ratsionallashtirish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. XX asrda suvdan foydalanish ko‘lami olti baravar oshdi. Yer yuzida so‘nggi 70-80 yil ichida suv omborlarini qurish jarayoni juda tezlashdi, ularning umumiy hajmi 10 barobarga ko‘paydi. Jumladan, Lotin Amerikasida bu ko‘rsatkich 35 barobarga, Afrikada – 60 barobarga, Osiyo qit‘asida esa 90 barobarga ko‘paydi.

Hozirda yer yuzida suv omborlarining soni 60 mingdan ortiq bo‘lib, umumiy hajmi – 6600 km^3 , foydali hajmi – 3500 km^3 dan ortadi. Bu degani – yer yuzidagi barcha daryolarning 10% yillik oqim hajmiga to‘g‘ri keladi. Suv yuzasi maydoni esa 600 – 620 ming km^2 (yer shari yuzasining 0,2 %) ni tashkil qiladi. Yiliga 300 dan 500 tagacha turli hajmdagi suv omborlari ishga tushirilmoqda. Volga, Angara, Missuri, Kolorado, Parana, Tennesi kabi yirik daryolar suv omborlari kaskadiga aylangan. Prognozlarga qaraganda, yana 30-50 yil ichida yer yuzidagi daryolar havzalarining 2/3 qismi suv omborlari orqali boshqariladi [2. – B.4].



Suv omborlari daryolarning suvlari hisobiga ma‘lum vaqt davomida to‘ldirilib, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini kerakli vaqtda zarur miqdorda suv bilan ta‘minlashga mo‘ljallangan gidrotexnik inshootlar majmuasidir. Suv omborlari – asosan ikki turga bo‘linadi:

1. O‘zan suv omborlari – bu daryo o‘zanida suv oqimi yo‘lini to‘sib suv omborini hosil qilishdan iborat. O‘zan suv omborlarida oqimdagi barcha loyqaliklarning katta qismi cho‘kib qoladi. Buning natijasida loyqa to‘lishi tezroq kechadi.

2. Quyilma suv omborlari daryo o‘zanidan tashqarida, qulay relyef chuqurligi hosil bo‘lgan hududlarda quriladi va bunda suv omboriga suvni maxsus kanallar orqali yetkazib beriladi. Suv omborlariga suv nasoslar yordamida keltirilishi ham mumkin. Ularning loyqa bosishi davri juda uzoq, ammo bu suv omborlarini loyqa bosganda ularni tozalashning imkoni umuman yo‘q. Shuning oldini olish maqsadida olinayotgan suvning hajmiga katta ahamiyat beriladi [2. – B.7].

Suv ombori – sun‘iy barpo qilingan suv obyekti bo‘lib, daryo vodiysida suvning yo‘lini to‘g‘on yordamida to‘sib, suvni akkumulyatsiya qilish, saqlab turish va zarur vaqtda foydalanish uchun ishlatiladi. Suv omborini barpo qilishdan asosiy maqsad daryo oqimi suv hajmini ichimlik suvi ta‘minoti, irrigatsiya, gidroenergetika, sanoat, ekologiya, suv toshqini xavfi va boshqa talablarni ko‘zda tutgan holda boshqarishdir. Boshqarish turlariga binoan suv omborlari ko‘p yillik, bir yillik, mavsumiy, haftalik, sutkalik kabi turlarga bo‘linadi. Suv omborlari to‘g‘onlari qurilish materiallariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: grunt to‘g‘onlar, beton, toshli, temir-beton, gabionli to‘g‘onlar.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasida 55 dan ortiq suv omborlari mavjud bo‘lib, Andijon suv omboridan boshqa barchasi grunt to‘g‘onlarni tashkil etadi. U Andijon viloyatidagi Qoradaryo daryosida joylashgan gidrotexnika inshootidir. Ushbu suv ombori ko‘p yillik rejimda daryo suvini tartibga solish vazifasini bajaradi va irrigatsiya hamda energetika maqsadlariga xizmat qiladi. Qurilish ishlari 1969-yilda boshlangan bo‘lib, 1982-yilda tugallangan.

Uning balandligi 121 m, uzunligi 1040 m bo‘lgan betonli katta kontrforeli to‘g‘on qurib hosil qilingan. Suv sig‘imi 1,9 mlrd. m³. Gidrouzel tarkibiga to‘g‘on, suv o‘tkazuvchi inshootlar va GES kiradi. Suv o‘tkazuvchi inshootlar favqulodda tosh-qinda 1700 m³/s gacha suv o‘tkazishga va umumiy suv sarfi 230

m^3/s bo'lgan irrigatsiya kanallariga oqizishga mo'ljallangan. GES kanallarga tushayotgan suv hisobiga ishlaydi, $192 \text{ m}^3/\text{s}$ suv sarfiga mo'ljallangan, quvvati 140 MVt. Andijon suv omborining suvi Farg'ona vodiysida 273 ming ga yaqin maydonning suv ta'minotini yaxshilaydi, qo'shimcha 35 ming ga yerni sug'orish imkoniyatini beradi [3. – B.505].



Ushbu suv omborining loyihasi 1969-yilda ishlab chiqilgan. Andijon viloyatining yerlari asosan Qoradaryo suvi bilan, qisman Oqbura va Aravonsoy yordamida to'ldiriladi. Suv ombori Qoradaryo o'zaniga qurilgan, to'liq hajmi 1,60 milliard m^3 . Balandligi 105 metrli betondan massiv-kontrfors to'g'on qurilgan. Uzunligi 1050 m. Suv ombori o'rni Kampirovot torligi bo'lib, bu yerda tog'li daraning kengligi 400-800 m ga teng, bu yerda Qoradaryo tog'oldi qismidan tekislikka chiqadi. To'g'on o'rni oldindan bor bo'lgan Kampirovot gidrouzelidan 300 m yuqorida joylashgan. Suv ombori qurilishi natijasida 394 ming gektar sug'oriladigan yerlarning ta'minoti yaxshilanadi, shundan 139 ming gektari

Qirg'izistonda, 257 ming gektari O'zbekistonda. Qo'shimcha 44 ming gektar yer o'zlashtirildi [4. – B.33].

Suv ombori tarkibida quyidagi inshootlar bor: beton to'g'on, suvchiqazish inshooti, gidroelektrostansiya. O'zining ahamiyati va miqyosi jihatidan bu majmua boshqa inshootlardan tubdan farq qiladi. Majmua loyihasi hozirgi O'zdavmeliosuvloyiha institutida tayyorlangan. Injenerlar L.S.Litvak, G.N.Kuleshov, me'morlar V.Melnikov, G.I.Kuznesov texnik loyiha va me'moriy yechimlariga alohida ahamiyat berganlar. Uchta variantda me'moriy-badiiy yechim loyihasi tayyorlangan. Uchchala variantda shunday yirik va murakkab obyektning me'moriy yechimi talabga to'liq javob bermagan.

Keyinchalik me'moriy yechimlarga L.Boychenko va A.Semenovlar qo'shilgan. Ular yaratgan loyiha oldingilaridan tubdan farq qilgan. Bunda me'morlar inshootlarning bir butunligi, ko'rkam-nafisligi va ifodalanishini saqlashga intilganlar. Bosh rejaga ko'ra Andijon suv ombori majmuasi qurilishida mavjud Kampirrovot to'g'oni muzey eksponati sifatida saqlab qolingan. Qoradaryoning eski o'zani inshoot yaqinida kengaytirilib, katta suv havzasiga aylantirilgan, uning qirg'og'ida O'zbekistonda gidrotexnika inshootlari qurilishi tarixi muzeyi, sayyoh va mehmonlar uchun choyxona-kafe qurilgan.

Me'moriy yechimlar to'g'on konstruksiyasiga qaratilgan. To'g'on tanasiga tiralib turgan qudratli kontrforslar to'g'on uzunligi bo'ylab bir tekisda joylashgan (balandligi 90 m atrofida), inshootning me'moriy kompozitsiyasida ma'lum uyg'unlikni hosil qilgan. Plandagi kichik egrilik unga turg'unlik va ustivorlik baxsh etgan.

To'g'onning yuqori qismi butun uzunligi bo'ylab nafis kamar yirikrasmli panjara bilan o'ralgan. U faqat to'g'onning o'rta qismida – suv tashlash inshooti joylashgan joyda uzilgan. Panjara ortida yoritish qurilmalari o'rnatilgan. Bu nafis kamarning umumiy balandligi 10 m. To'g'onning markaziy qismida peshayvon ajralib turibdi. Uning tayanchi halokatli suv tashlash inshooti devorining qirrasi hisoblanadi. Peshayvon devor-kamarni 100 m uzunlikda kesadi va yirik rasmli

rangli plitkalar bilan qoplangan. To'g'on ustida sayyohlar uchun mo'ljallangan atrofni tomosha qiladigan maydon va maxsus bino – xoll qurilgan.

To'g'onning old ko'rinishi o'ng qirg'oqqa qaratilgan temir-beton plastina bilan tugaydi. Uning balandligi to'g'on ustidan 12-15 m. Unga V.I.Leninning baralefi-tekis yuzaga bo'rttirib tasvirlangan rasmi ishlangan edi. Hozirgi vaqtda bu O'zbekiston bayrog'i bilan almashtirilgan [5.].

Me'moriy yechimda gidroelektrostansiya binosi ko'rib chiqilgan. U quyida joylashgan. Devorining tekis qismida rangli plitalardan o'lchami 50x8 m li pannoga tushirilgan katta surat, unda "O'zbekistonda irrigatsiyaning rivojlanishi" deb yozilgan. Ekspertlarning xulosalari asosida bu variantga avvalgi variantdagi asosiy me'moriy yechimlarni saqlab qolgan holda, uning shaklini ratsional ko'rsatish maqsadida ayrim o'zgartirishlar kiritilgan. To'g'onning ustki qismi transport qatnovini hisobga olib 6 m ga kengaytirildi [6. – B.317]. Alohida turgan GES binosini to'g'on bilan birlashtirilgan. GES binosi to'g'on umumiy tekisligidagi uchta kontrfors o'rniga joylashtirilgan. Bunda GES ning bosh fasadi – old ko'rinishi to'g'onning umumiy ko'rinishidagi mayda vertikal qismlari o'rniga to'g'ri keladi. Bu me'moriy yechim suv ombori qurilishi masshtabini yanada yaqqol namoyon qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gapparov F.A., Mansurov S.R. Suv omborlaridan foydalanish. Darslik. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2024.
2. Ikramova M.R. Suv omborlari gidrologiyasi: O'quv qo'llanma / M.R. Ikramova. – Toshkent: Baktriya Press, 2019.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: O'zME, 2000.
4. Bakiev M.R., Qodirov O., Murodov R.A. Me'morchilik. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Andijon_suv_ombori
6. Shamsutdinov R., Mo'minov H. O'zbekiston tarixi: O'quv qo'llanma.- Toshkent: "Fan", 2020.

FILOLOGIYA**XORAZM TURKIY TARIXNAVISLIGI MANBALARIDA
TURKIYLASHGAN SO‘ZLAR**

**Madamin
ESHMURODOV,**

**Urganch innovatsion
universiteti rektori,
filologiya fanlari
doktori, dotsent.**

**Turon Fanlar
akademiyasi
akademigi**

UO‘K 811.512.133’373.2:254.2-24

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligi manbalarida qayd etilgan turkiylashgan so‘zlar tahlil qilinadi. Ushbu so‘zlarning davlatchilik terminologiyasidagi tarixiy ildizlari tadqiq etiladi.

Аннотация: В статье анализируются тюркизированные слова, зафиксированные в источниках тюркской историографии Хорезма. Исследуются исторические корни этих слов в государственной терминологии.

Annotation: This article analyzes the Turkicized words recorded in the sources of Khorezm Turkic historiography. The historical roots of these words in state terminology are explored.

Kalit so‘zlar: Xorazm, turkiylar, davlat, boshqaruv tuzilmasi, hukmdor.

Ключевые слова: Хорезм, тюрки, государство, административное устройство, правитель.

The keywords: Khorezm, Turks, word, state, administrative structure, ruler.

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda qo‘llangan bir qancha terminologiyaga mansub so‘zlarni tahlil qilish jarayonida quyidagi atamalarga izoh berishni lozim topdik.

Jarchi – ushbu so‘zning asosi arab tilidan o‘zlashgan jahr – جرح – baland ovoz bilan, ochiq e‘lon qilish ma‘nosini anglatuvchi so‘z bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda o‘zbek tilidagi diniy-fiqhiy atamalar orasida ushbu asosdan hosil qilingan *jahriy* (tovush chiqargan holda, baland ovoz bilan) so‘zi mavjud bo‘lib, ibodat bilan bog‘liq so‘zlar bilan birgalikda keng qo‘llanadi (maxfiyning antonimi sifatida). Jar so‘zi ayni shu arabiy o‘zlashmaning bo‘g‘iz undoshi h tushirib qoldirilgan ko‘rinishidir. Jar so‘zi eski o‘zbek adabiy tili davridan boshlab keng istifoda etila boshlangan bo‘lib, xonlik yoki amirlikdagi podshoh amir-u farmonlarini baland ovoz bilan o‘qib eshittiruvchi shaxs oti (amaldor) sifatida

keng qo‘llangan. Mazmunan, O‘rta Osiyo hududlarida yangi xon tayinlanishi, hukmdorlarning xalqqa qarata chiqargan farmoni, rasmiy xabarlari, xon va vazirlarning amrlarini aholiga yetkazish, urush mahalida ularning xon bilan ayrim harbiy qismlar o‘rtasida aloqachilik vazifasi, urush boshlanishi yoki tugaganligi to‘g‘risidagi xabarlarni, ayrim shaxslarni hukmdorlar tomonidan taqdirlash yoki jazolash haqidagi amrlarini, biron shaxsning yangi lavozimga saylanishi to‘g‘risidagi xabarlar bozor maydonlari va aholi ko‘p to‘planadigan joyda baland ovoz bilan e‘lon qiladigan shaxs ma‘nosini anglatadi. Shuningdek, jarchilar ko‘chmanchilarning ovullarini aylanib yurib, qo‘shin to‘plashda qatnashganlar. Jarchilar 5 tilladan maosh olganlar. Jarchi ta‘kidlangani kabi arabiy jahrning turkiycha fonetik varianti jar so‘ziga -chi shaxs oti yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda ham odatda ushbu so‘z yuqoridagi ma‘noda qo‘llangan.

Yasovul – yasovulboshining yordamchilari. Yasovul o‘rta asrlarda Mo‘g‘uliston, O‘rta Osiyoda podshoh yoki xon saroyi uzangisidagi kichik mansabdor. Oliy hukmdorning amru farmoyishlarini bajaruvchi shaxsiy xizmatkori. O‘rta Osiyo xonliklari davrida: yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon, hukmdorning shaxsiy qo‘riqchisi. *Yasovul* urush holatida saralangan jangchi sifatida ishtirok etsa, tinchlik hukm surganda xalqni ariq-yoplarni tozalash, mudofaa devorlarini qayta tiklash kabi ishlarga jalb qilish, odamlarni boshqarish vazifasini bajargan. Shuning uchun ham Xorazmda hozirgacha yangi mansabdor, albatta, biror o‘zgarish qiladi ma‘nosida “Taza yasavul g‘oz ch‘iqarar” maqoli mavjud. Quyidagi parcha ham *yasovul* urush holatida oddiy jangchi emas, hozirgi ofitser tarkibiga muvofiq askar hisoblanganidan dalolat beradi, ya‘ni uning “soqchilar boshlig‘i; intizom saqllovchi”¹ ma‘nolarini Ogahiy tarixiy asarlari mazmuni tasdiqlaydi: “Lashkari zafarparvar va sipohi qiyomat gustar ehzor va ijtimoi‘i uchun atrofii mamolik va

¹Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. –Б.196.

aknafi masolikka bahromoyin *yasovullar* va zirgʻomkin surdovullar irsol qildi”¹. Mazkur atama tarixiy soʻzga aylangan boʻlsa ham, shevalarda koʻchma maʼnoda saqlanib qolgan. Masalan, “Taza yasavul koz chiqarar”².

Yasovulboshi – yasovullar boshligʻi. Amir al-umarodan keyingi rasmiy yuqori sarkarda yasovulboshilik mansabi edi. Yasovulboshining vazifasi xonning farmoniga muvofiq qoʻshinni vaqtida urushga boshlab borishdir. Tinchlik vaqtida yasovulboshilar navbat bilan xonlarning turli marosimlarida hozir boʻlishga majbur edi. Xonlikda ular ikki kishi boʻlib, biri yomud turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdirlarga qoʻmondonlik qilardi. “Xonlikda yasovulboshida uning unvonini koʻrsatadigan kumush qalpoqlik aso (hassa) boʻlardi, hozir esa kamariga pichoq taqadi”.

Shigʻovul – mehtarning yordamchisi. Maʼlumki, mehtar moliya, soliq va hashar ishlariga mutasaddilik qilishdan tashqari, bosh vazir sifatida davlatning tashqi munosabatlariga ham rahbarlik qilgan. Bu sohada shigʻovul uning bevosita³ yordamchisi edi. U ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularning taʼminoti bilan shugʻullangan. Odat boʻyicha elchilarni qabul qilish uchun xon xazinasidan ajratiladigan puldan 10 foizini shigʻovul oʻz foydasiga olib qolardi. Arxiv maʼlumotlariga qaraganda, elchilarning kelish-kelmasligidan qatʼiy nazar shigʻovul har yili 15 tildan maosh olib turgan.

Shigʻovullarning faoliyati **“buxrilar”**ning faoliyati bilan yaqindan bogʻliq boʻlgan ⁴. Buxrilar aygʻoqchi, razvedkachilar edi. 60-daftardan koʻrinishicha, Buxriy Mahmudbek, Buxriy Bolaxon 20 tildan olganlar.

¹ Мухаммад Ризо Эрнӣзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзуд-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 296^b.

²Ўразбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. дисс. Т.: 2018. –Б. 56.

³ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

⁴ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

Elchilarni qabul qilish marosimida mehtar asosiy rol o'ynagan. Kapitan Nikiforovning ma'lumotlari buni tasdiqlaydi: "1841-yil 11-avgustda Ollohqulixon elchini salomxonada qabul qilgan. Bu marosimda mehtar, qo'shbegi, devonbegi, Xojash mahram va yana ikkita amaldor hozir bo'lganlar"¹.

Abbotning ma'lumotiga ko'ra, mehtarning hatto mustaqil ravishda muzokara olib borish huquqi ham bo'lgan.



Xiva xonligida maxsus diplomatiya kadrlari yo'q edi. Shu sababdan, boshqa mamlakatlarga elchi jo'natish zaruriyati tug'ilsa, odatda ko'zga ko'ringan amaldorlardan yoki bu ishga bobroq bo'lganlardan, aksari mutavallilar yuborilar edi. Chunonchi, XIX asrda Rossiyaga Fozil Xo'ja shayx al-islom², Muhammadamin yuzboshi, Shukrullo oqo yuborilgan. Buxoroga esa Shomurod inoq, Avazmurod mirob, Hakim Niyoz Otaliq va boshqalar jo'natilgan³.

¹ Залесов Н. Посолство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г. – С. 11, 41, 92.

² Баёний. Хоразм тарихи. 393^a вар.

³ Madamin Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet. https://uriu.uz/media/ilmiy_hayot/kitob/5.pdf

Parvonachi – saroyning oliy vazifalaridan. Vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Parvonachi – XVII-XVIII asrlarda Oʻrta Osiyo xonliklarida mavjud boʻlgan mansab. Uning egasi saroyning ichki va tashqi ishlarida ham faol qatnashishi mumkin boʻlgan. Arzu shikoyatlarni xon huzuriga olib kirib (parvona – kapalakdek) javobini qaytarar edi. Parvonachi xon farmonlarini tegishli kishilarga yetkazib turgan. U 20 tillagacha maosh olgan.

Mazkur vazifa va amaldagi odamlardan tashqari saroyda turli kasblarda ishlaydigan xizmatchilardan zargar, sarroj, mahsidoʻz, tikuvchi va hokazolarni uchratish mumkin. Arxiv materiallarida ularning boshliqlari xalifalar deb yuritilgan. Xalifalar deb yollanib ishlaydigan kishilarni aytar edilar. Xivada xalifalar xon mahramlari orasida ham uchraydi.

Sayis – yaʼni otboqar. Oʻrta Osiyo xonliklarida harbiy va xoʻjalik ehtiyojlari uchun saqlangan otlarni boquvchi hamda ular ustidan nazorat yurituvchi shaxs. Sayislar bevosita otlar yoniga qurilgan maxsus sayisxonalarda yashaganlar. Ularning boshligʻi miroxoʻr deb atalgan. Ular 5 tilladan 15 tillagacha olishgan.

Udaychi – aslida “hidoyachi”. Safar chogʻida xondan oldin yurib, xon ovozi ayab, uning nomidan xaloyiqqa nutq iroda etuvchi. Masalan, xaloyiq xonni koʻrganda salom berishsa, udaychi xon uchun alik olgan va xon nomiga baland ovoz bilan duo hamda salomlar aytib ketardi. Udaychilar boshqa amaldorlardan farq qilib, qoʻllarida qizil aso (hassa) koʻtarardilar. Xonlikda ikki udaychi boʻlib, bosh udaychi 20 tilla, ikkinchisi 15 tilla olganlar.

Dasturxonchi – Oʻrta Osiyo xonliklari saroylarida saroy xizmatchilaridan hisoblangan kichik mansabdagi amal. Xonning dasturxoni, ovqatlanishi, mehmonlar va elchilarga beriladigan qabul ziyofatlariga javob berardi. Dasturxonchilik alomati kumush dastalik qilich edi. U xonni juma kunlari masjidi Jomeʼga nomozga birga olib borardi va boshqa tantanali marosimlarda ham unga hamroh boʻlar edi. Dasturxonchi saroyda katta lavozimlardan biri edi. Saroyda 2 ta dasturxonchi boʻlib, ulardan biri (bosh dasturxonchi) 20 tilla, ikkinchisi esa 15

tilla olardi. Dasturxonchilar urush safarlarida ham qatnashadi. Arxiv ma'lumotlarida berilishicha, ularning birida 38 navkar bo'lgan.



To'shakchi – xon va mirzo, sultonlarning saroy xizmatchisi. Bu mansab ham ancha ahamiyatli bo'lgan. Uning zimmasiga hukmdorning ko'rpa-to'shagi va boshqa yotish-turish anjomlarini tasarruf qilish vazifasi yuklatilgan.

To'shakchi xon huzuriga ayonlar kirgan mahallarda xonning tagiga gilam va to'shak solardi. Odatga muvofiq xon oldiga kiradigan ayonlar xon uchun qimmatbaho to'shak va gilam olib kelardilar. Xon turib ketishi bilan bu narsalar to'shakchi ixtiyorida qolar edi. To'shakchi 20 tilladan maosh olgan.

Turkiy tarixnavislikka oid Xiva xonligidagi saroy amaldorlariga ishlatilgan mansab nomlari o'ziga hos tarixga ega va ularni filiologik tahlil qilish tadqiqotchilar hamda keng omma uchun muhim ilmiy yangiliklarni aniqlashga imkon yaratadi. Bunga misol esa yuqoridagi mansab nomlarining izohi va amaldorlarning qanday vazifani bajarganligiga oid tahlillarimizdir.

FILOLOGIYA

NAZARIYA VA AMALIYOT HAMKORLIGI



Boqijon TO'XLIEV,
O'zbekiston Fanlar
Akademiyasi O'zbek
tili va adabiyoti,
folklori instituti
bo'limi mudiri.
Filologiya fanlari
doktori, professor

UO'K 512.71

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ergash Ochilovning o'zbek adabiyotshunosligi va tarjimashunosligiga qo'shgan hissasi tahlil etiladi. Olim yaratgan asarlar, uning hayoti va faoliyati ham maqolada qamrab olingan.

Аннотация: В статье анализируется вклад Эргаша Очиллова в узбекское литературоведение и переводоведение. Также освещаются труды ученого, его жизнь и творчество.

Annotation: This article analyzes Ergash Ochilov's contribution to Uzbek literary studies and translation studies. The scholar's works, his life, and his work are also covered in the article.

Kalit so'zlar: Adabiyot, she'r, tarjima, fan, nazariya, adabiy asarlar, kitob, jamiyat taraqqiyoti.

Ключевые слова: Литература, поэзия, перевод, наука, теория, литературные произведения, книги, общественный прогресс.

Key words: Literature, poetry, translation, science, theory, literary works, books, social progress.

Adabiyot nazariyasini puxta o'zlashtirish adabiy jarayonlarning barcha jabhalarida erkin suzish imkonini beradi. Bu sof adabiyotshunoslik sohasidagi mutaxassislarga qanchalik daxldor bo'lsa, tarjimon yoki adabiy tarjimon uchun ham shunchalik zarurdir. Ilm va ma'rifat insonni ulug'laydi. Bu yo'lga kirgan tolibi ilm undagi sonsiz-sanoqsiz sinov ma mashaqqatlar handaqlaridan sabot va matonat bilan o'tib borgan haqiqiy sohibi donishlargina uning nurli cho'qqilariga chiqish ishtiyoqida muntazam harakatda bo'lishadi.

Zero, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. O'rganurdan qochg'on lavand (ovora-yu sarson) va yuziga hiyal (makru aldov) va bahona eshigin ochg'on tanand (tortanak, o'rgimchak). Emgak tortib ilm o'rgangan xiradmand (dono, bilag'on) [1.112]". Bu gaplar to'lig'icha Ergash Ochilovga ham taalluqlidir. Bu nom mamlakatimiz ilm ahli, ziyoli qatlami uchun juda yaxshi tanish. Hozirgi kunda u O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti "XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon" bo'limi mudiri, filologiya fanlari nomzodi.

Bugungi "ilm o'rganurga ranj tort"gan, "ulamo majlisida ilm nuridin ko'ngulni yorut"gan (Alisher Navoiy) ahli dillar qatorida turadigan Ochilov

Ergash Zokirovich 1965-yil 15-noyabrda Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Yangiqishloq qishlog'ida tug'ilgan.

1989-yili ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakulteti (kechki bo'lim)ni imtiyozli diplom bilan tugatgan.

1984-1992-yillarda Toshkent shahar "Toshkitob" kitob savdosi idorasida ekspeditor bo'lib ishlagan. 1992-yildan hozirgacha O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida xizmat qilib kelmoqda. 1995-1998-yillarda O'zR FA Prezidiumida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limining ilmiy kotibi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. 1998-2000-yillarda doktoranturani o'tagan. 2000-2020-yillarda O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, 2020-2025-yillarda Adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalar bo'limi katta ilmiy xodimi bo'lib ishlagan. 2025-yildan XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo'limi mudiri.

Ergash Ochilov o'zbek va turkiy xalqdar adabiyotini, arab-fors poetikasi va fors-tojik mumtoz va zamonaviy adabiyotining zukko bilimdoni va mohir tarjimoni hamdir.

Olimlik va mudarrislik bir-biri bilan chambarchas hodisalar bo'lishiga qaramasdan, bu ikki jabhani tabiiy va munosib saviyada birlashtirish har kimga berilgan iqtidor va mahorat emas. O'zi bilgan narsalarni boshqalarga munosib tarzda yetkazib berish ham aslida bir san'atdir. Bu borada ham Ergash talabalarning har doim suyukli bo'lgan ustozlari qatorida bo'lib keladi. Ergash keyingi yigirma yildan buyon o'rindoshlik asosida Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti talaba va magistrantlariga tarjimashunoslik yo'nalishidagi fanlardan dars berib keladi. Mana shu yillar davomida bevosita amaliyot tajribasidan o'tgan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" (2012), "Badiiy tarjima masalalari" (2014), "Tarjimashunoslikning nazariy masalalari" (2014, to'ldirilgan 2-nashri – 2022), "Tarjima nazariyasi" (2014; 2-nashri – 2020, 3-nashri – 2022) o'quv qo'llanmalari, "Forsiydan o'zbekchaga she'riy tarjima muammolari" (2013), "Navoiy va Ogahiy" (2022) monografiyalari, "Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati" (2014) singari ilmiy tadqiqotlari Respublikamizning boshqa oliy o'quv yurtlarida ham eng ko'p foydalaniladigan, hamma payt o'qituvchi va murabbiylar, mutaxassis va talabalarning ish stolining ustida bo'ladigan kitoblar qatoridan munosib o'rin olgan. Aslida uning nomzodlik dissertatsiyasi ham bevosita shu sohaga bag'ishlangan, u "Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi" mavzuida 1994-yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi.

Ergash ko‘plab xorijiy mamlakatlarda ham e’tirof egalaridan biri sifatida ma’lum va mashhurdir. Buning bosh sababi olimning turkiy va forsiy xalqlar mumtoz adabiyoti, adabiy aloqa va badiiy tarjima masalalari bilan uzoq vaqtlardan beri jiddiy shug‘ullanib kelayotganidir. Rus, fors, tojik, dariy, turkman, ozarbayjon, tatar, qoraqalpoq tillaridan she’riy va nasriy tarjimalar mana shunday e’tirof va ardoqning bosh omili bo‘lgan.

Ergash tengdoshlari, soha mutaxassislari orasida eng ko‘p va xo‘b kitob yozgan olim sifatida ham ajralib turadi. Bejiz u mazkur davralarda “maqolasidan ko‘ra ham kitobi ko‘proq” degan ardoqli unvonga sazovor bo‘lgan emas (aslida uning maqolalari ham ko‘pchilikning bo‘yi yetmaydigan darajada, ularning umumiy soni 2000 taga yaqin).

U yozgan, tarjima qilgan va nashrga tayyorlagan kitoblarning umumiy adadi – 145 ta. Jumladan, “Muborak sarchashmalar” (1997), “Alisher Navoiy” (2011, 2013 – to‘ldirilgan nashri), “Bobur” (2011), “Ubaydullaxon” (2011, hammualliflikda), “Zahiriddin Muhammad Bobur” (2012, 2015 (lotin alifbosida), “Maxtumduli” (2015), “Badiiy tasvir mahorati (2021, hammualliflikda) risolalari, “Bir hovuch dur” (2011, 2022 (to‘ldirilgan nashri), “Barhayot siymolar” (2012), “Ishq va hayrat olami” (2016, hammualliflikda) maqolalar to‘plamlari, “Nafis majlislar” (1-2-kitoblar, 2018) risolalar to‘plamlari, “Alp olimning mo‘jizasi” (2022) badiyasi, “Boqijon To‘xlijev hangomalari” (2024)...

“Barhayot siymolar” mumtoz sharq adabiyoti tarixining ixchamgina tarixi sifatida yuzaga kelgan. Unda ellikka yaqin ijodkorlarning hayoti va ijodi juda qiziqarli va shirali tilda ko‘rsatib berilgan. Masalan, Ro‘dakiyning taxminan bir million yetti yuz ming misra she’r yozgani tillarda doston bzo‘lgani haqida tilga olinsa, Forobiyning qomusiy olim bo‘lganidan tashqari, juda hassos shoir ham bo‘lgani aniq misollar vositasida ko‘rsatib o‘tiladi.

Bir o‘rinda u muayyan ijodkor haqida mashhur tarixiy shaxslar madadiga tayansa (masalan, Ahmad Yassaviy haqida Alisher Navoiyning qaydlari), boshqa o‘rinlarda ijodkorning o‘z asarlariga murojaat etadi (Lutfiy, Amiriy, Furqat...). Ayrim o‘rinlarda ijodkor qoldirgan meros ahamiyatiga urg‘u berilsa, boshqa hollarda ularning ilmiy yoki adabiy kashfiyotlarining mazmun va mohiyatini kitobxon ko‘z oldida gavdalantirishga harakat qiladi. Natijada kitob nihoyatda o‘qish uchun qulay, o‘quvchini o‘ziga jalb eta oladigan, unga ko‘plab yangi ma’lumotlarni yetkazishi bilan birga, ularning ma’naviy olamidagi ijobiy o‘zgarishlarga ham turtki bera oladigan djarajani egallaydi.

E.Ochilov tarjimasida 37 ta to‘plam nashr qilingan: Mullanafasning “Muhabbat fasli” (2010), Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat mazhabi” (2011), Umar Xayyomning “Tiriklik tilsimi” (2012), Maxtumqulining “Ustozingdan ayrilma” (2012), “Hikmatlar” (2013, 2015 (lotin yozuvida), “Asarlar” (2013), “Bulbul nolasi” (2014), “Elingga baxsh ayla” (2017), “Davron topilmas” (2018), “Qaqnus navosi” (2022), Sa’diy Sheroziyning “Hayot hikmati” (2013), Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” (2013), Jaloliddin Rumiyning “Muhabbat ma’vosi” (2013, 2015 (lotin yozuvida), “Afg‘oniston xalqlari og‘zaki she’riyatidan namunalar” (2014), Abdulxoliq G‘ijduvoniyning “Ruboiylar” (2022), Bahouddin Naqshbandning “Ruboiylar” (2022) kitoblari shular jumlasidandir. U 200 dan ortiq forsiyzabon shoirlarning 10 000 ga yaqin ruboiylarini tarjima qilib, “Ishq daftari” (2000), “Donishmandlar tuhfası” (2009), “Ming bir ruboiy” (2009), “Ruboiy gulshani” (2010) nomlari bilan e’lon qilgan.

“Muhabbat taronalari” (2005) shu silsiladagi ajoyib namunalardan biri. Unda Abu Abdullo Ro’dakiy, Abusaid Abulxayr, Bobo Tohir, Abduxoliq G‘ijduvoni, Umar Xayyom, Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Pahlavon Mahmud singari buyuk siymolarning asarlari o‘zbekchalashtirilgan. E’tiborlisi shuki, ularning barchasi ruboiy janriga oiddir. Yana bir muhim jihat shundaki, bu ruboiylar orasida bevosita xalq og‘zaki ijodiga mansublari ham mavjud.

O‘rni kelganida bu tarjimalarning nihoyatda katta bilimdonlik va o‘tkir did bilan amalga oshirilganini ham alohida qayd etish joiz. Mana ayrim namunalar:

O‘ng qo‘ldagi qo‘shnim qo‘lida zar bordir,
Har ikki qizi bir-biridan dildordir.
Qo‘lin so‘ray desam borib to‘ng‘ichining
Kofir bu dilim kenjasiga xushtordir [11.388].
Yoki:
Yor qaddi niholdir, niholdir, nihol,
Qosh xuddi hiloldir, hiloldir, hilol.
Oppoq yuzi hasratida ketsak-da o‘lib,
Bir bor demadi u: uvoldir, uvol [11.430].

Olim to‘plab nashrga tayyorlagan kitoblarning umumiy soni yuzga yaqin. Ular orasida qadimgi turkiy adabiyotning zabardast vakillari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy (2013), Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy (2013), qardosh turkiy xalqlarning mashhur vakillari: Fuzuliyning “G‘amzasin sevdung ko‘ngul” (2009), “Qalb gavhari” (2014), “Devon. Layli va Majnun” (2022, lotin yozuvida), mumtoz adiblarimiz: Atoiyning “Jondan aziz jonona” (2011), Alisher Navoiyning “Bir paripaykar g‘ami” (2006), “Ishq tilsimi” (2011), Alisher Navoiy (2006, 2010, 2011, 2013, 2015), Ubaydiyning “Diydor orzusi” (2007), Maxtumlulning “Dunyo o‘tib boradir” (2007), Boburning “Sochiniyng savdosi tushti” (2007), “Sanga ko‘nglumni oldurdum” (2011), Ogahiyning “Jamoling jilvasi” (2013, 2016 (lotin yozuvida), “Pahlavon Mahmud” (2013, 2015 (lotin alifbosida), Mashrabning “Agar oshiqligim aytsam” (2013), Amiriyning “Qoshingga teguzmag‘il qalamni” (2008, hamkorlikda), “Devon”. I. O‘zbekcha she‘rlar (2017, hamkorlikda), Muqimiyning “Ko‘nglum sandadur” (2009) kabi kitoblar mavjud. Ular orasida “Navoiy va Ogahiy” monografiyasi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek adbiyoti tarixida “So‘z mulkining sultoni” deb e‘tirof etilgan Amir Alisher Navoiyning dovrug‘i olamga ketgani yaxshi ma‘lum. Bu buyuk siymodan keyin ijod qilgan mumtoz adabiyotimiz vakillarining deyarli birortasi uning hayotbaxsh ijodi namunalaridan ijodiy oziqlanmasdan qolgan emas. Mutafakkir adib izdoshlari orasida ulug‘ shoir ijodidan eng ko‘p ta’sirlangan va ilhomlangan, buyuk salafi yo‘li va uslubida qalam tebratib, unga eng yaqinlab borgan zabardast so‘z san’atkori Muhammadrizo Ogahiydir. U qoldirgan merosining hajmi, turi, janrlar tizimi va mavzular qamroviga ko‘ra haqli ravishda buyuk Navoiydan keyingi munosib o‘rinni egallagan. Bugina emas, Ogahiyning ko‘plab asarlarida hazrat Navoiy asarlaridan bahramandlikning ham ochiq, ham sirli izlari yaxshi his etiladi.

Monografiyada Ogahiyning Navoiy she‘riyatiga oshuftaligi alohida ixlos va muhabbatning ifodasi sifatida namoyon bo‘lgan tatabbular misolida juda asosli va ishonarli tarzda ko‘rsatib berilgan.

Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslar tahlili ogahiyshunoslik faniga qo‘shilgan munosib hissa sifatida baholanishi mumkin. Unda ustoz fikrlari, tuyg‘ulari tasvirining shogird tomonidan naqadar teran va ta’sirchan ilg‘angani va buni go‘zal poetik shakldagi ifodasini yaratib bergani bilimdonlik bilan yoritilgan.

Ergash Ochilov yirik tadqiqotchi bo‘lishidan tashqari hassos shoir hamdir. Xuddi shuning uchun ham Ogahiy she‘riyatidagi navoiyona ohanglar borasidagi kuzatishlari yangi va maroqliligi bilan e‘tiborni tortadi.

Monografiya to‘laligicha katta ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, ijodkorlar yaratgan badiiy obrazlarning qiyosiy tahlillari yosh ogahiyshunoslar uchun munosib tarbiya maktabi vazifasini ham ado etadi. “Gul” va “bulbul” obrazlarining talqinlari esa yangi va yaxshiligi bilan ko‘pchilikka manzur bo‘lgani mutaxassislar e’tirofida ekani bejiz emas.

O‘rni kelganida aytish lozimki, Ergash alohida mavzu va muammolarga ancha jiddiy tayyorgarlik ko‘radi. Yuqoridagi monografiya ham, taxminan yigirma besh yillarning mahsuli. U uzoq yillardan beri o‘zini Navoiyning haqiqiy muxlisi sifatida ko‘rsatib ulgurgan edi. Faqat navoiyshunoslik anjumanlarining faol ishtirokchisi sifatida uning an’anaviy anjumanlarda, shuningdek, ilmiy jurnallar va to‘plamlardagi maqolalari bunga guvohlik berib turibdi. Uning mumtoz janrlar tizimiga oid maqolalari qatorida Alisher Navoiy va Ogahiy qo‘l urgan janrlar tahlilining ustuvor mavqe tutishi tasodifiy emas. Qolaversa, 2013-yilda chop etilgan “Jamoling jilvasi” to‘plami Ogahiyning sara asarlaridan tanlab olingan she’riy durdonalar edi. Unda “Shoiri donoyi davron” (E.Ochilov ifodasi – B.T.) g‘azal, muxammas, musaddas, murabba’, tarje’band, qit’a va ruboiylari sermazmun so‘zboshi bilan birga taqdim etilgan.

Fors-tojik adabiyotining mo‘tabar vakillari: “Men anglagan dunyo” (Abu Ali ibn Sino, 2012), Jaloliddin Rumiy (2008, 2013), Farididdin Attor (2009, 2012), “Ishq gavhari” (Hofiz Sheroziy, 2006), “Hikmatga to‘la olam” (2007), “Ma’rifat yog‘dusi” (Sa’diy Sheroziy, 2015), “G‘animat damlar” (Umar Xayyom, 2008), “Yor vasli” (Amir Xusrav Dehlaviy, 2011), “Hayrat oyinasi” (Mirzo Abdulqodir Bedil, 2011) to‘plamlari, shuningdek, Maxtumquli (2013, 2015), Sa’diy Sheroziy (2013, 2015), Ogahiy (2021)larning “Hikmatlar” kitoblari va “Hikmatlar xazinasini” (2010) asarlarini nashrga tayyorlagan. “Jahon she’riyati durdonalari” ruknida esa J.G.Bayronning “Ushalmagan orzular” (2011), M.Yu.Lermontovning “Suzib borar oppoq bir yelkan” (2011), V.Shekspirning “Bir qatim nur” (2012), H.Haynening “Bir qiz kuylar” (2012), A.S.Pushkinning “Esimdadir ajib dam hali” (2012), T.Shevchenkoning “Meni yod et” (2013), R.Hamzatovning “Umr karvoni” (2013), Q.Quliyevning “Hayrat” (2013), Mirzo G‘olibning “Umrin guli” (2013), Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” (2013), Garsia Lorkaning “Oy to‘lishgan kechada” (2013) to‘plamlarini chop ettirgan. Shuningdek, u mumtoz qo‘shiqlar va xalq ashulalarini to‘plab, “Umrboqiy qo‘shiqlar” (2002, 2013 (to‘ldirilgan nashri, ikki jild), “Shoda-shoda marvarid” (2006), “Mehrigiyoh” (2012, 2016 (lotin yozuvida),

Alisher Navoiy. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Mubtalo bo‘ldum sanga” (2013), Fuzuliy. Mashrab. “Axtarib keldim seni” (2013), Muqimiy. Furqat. “Ey chehrasi tobonim” (2013, 2016), Munis. Ogahiy. “Mushkin qoshining hay’ati” (2013, 2015), Muqimiy. “Intizor” (2021) nomlari bilan nashr ettirgan. Sharq xalqlari rivoyatlarini to‘plab “Sharq rivoyatlari” (2010), “Sharq hikoyat va rivoyatlari” (2013, 2015; 2018, 1–2-jildlar), “Ibrat maktabi” (2013), “Adolat tarozisi” (2013), “Ma’rifat daftari” (2013), “Ramzlar silsilasi” (2013; 2018), “Donolar suhbatlari” (2013) to‘plamlarini ham e’lon qilgan.

Ularda, xususan, “Barhayot siymolar” (Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012. 424 bet), “Ishq va hayrat olami” (hamkorlikda, Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.304 bet), “Bir hovuch dur” (Navoiy g‘azallari va baytlari sharhi). To‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. – Toshkent: “Tamaddun”, 2011, 2022. – 320 bet) adabiy tarjimalar bilan birga adabiy jarayon, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalarning, tarjima nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammolari haqida bahslar yuritilgan.

Mamlakatimiz adabiy hayotida jiddiy voqea bo‘lgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” turkumi uchun Fuzuliy va Maxtumdul jildlarini, Xoqoniy Shirvoniy, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yugnakiy, Jahonshoh Haqiqiy, Bayramxon, Abdurahim Bayramxon, Andalib asarlarini tarjima va tabdil qilib, nashrga tayyorlab berilishi E.Ochilovning bu boradagi munosib hissasini ko‘rsata oladi.

200 jildlik “O‘zbek adabiyoti xazinasidan” turkumi uchun ham uning bir necha jildini tayyorlab berish E.Ochilov zimmasida turibdi.

Mana shu fonda qaraladigan bo‘lsa, uning “Maxtumdul” monografiyasi (2015) ham olim salohiyatining yana bir olmos qirrasini ko‘rsatib turishiga ishonch hosil qilish mumkin bo‘ladi. Unda adibning ikki xalqning shoiri ekani, adib tarjimai holidagi keskin va iztirobli kunlar tavsifi, uning mavzular olami va nozik iqtidorining favqulodda go‘zal shakllardagi ifodalari, bir so‘z bilan aytganda, shoirning badiiy mahorati borasida mutlaqo yangi va boshqalarda uchramaydigan kuzatishlar o‘z aksini topgan. Bahonada olimning adabiy ta’sir, adabiy aloqalar, ijodkorlarning o‘ziga xos adabiy maktablari va bu maktablardan olinadigan saboqlarning me’yor va mezonlari haqidagi kuzatish va xulosalar kishini maroqlantiradi. Ushbu monografiyadan oldin ham bir necha maqola va tezislar, alohida bir kitobning e’lon qilingani ham yuqoridagi mulohazalarni yanva bir marta tasdiqlaydi.

Ergash Ochilov tafakkurining kuchi va qudratini u bilan hamsuhbat bo‘lgan, uning kitoblari bilan tanishgan, maqolalarini o‘qigan, nutq va ma’ruzalarini eshitgan, hikmatlari mazmunini zamzama qilgan kishilar yaxshi

bilishadi. Ayniqsa, olim bilan suhbatda “olim olimning qayrog‘i” ekanligi juda tez va oson bilinadi. Uning zukko va hozirjavobligi, kuchli mantiq va adoqsiz fantaziya sohibi, o‘zbekona so‘zning lutfu tarovatini, kuchu qudratini, nafosat va fasohatini namoyon etishdagi mahoratini ko‘rib tan bermaslik mumkin emas. Kitoblar orasida “Badiiy tasvir mahorati” nomi bilan chop etilgan ixchamgina bir risola ham (hamkorlikda) bor. Uning o‘ziga xosligi bir necha bandlarda ifodalanishi mumkin. Xususan:

Risola bolalar adabiyotiga bag‘ishlangan;

Birgina shoir – Dilshod Rajab ijodi vositasida o‘zbek bolalar adabiyotining yutuq va o‘ziga xosliklari juda aniq va ishonarli tarzda ko‘rsatib berilgan;

“Tinmagur

Juda sho‘x-da,

Yerga ursang,

Sapchir ko‘kka” [10.26], –

tarzidagi misollar yordamida bolalar adabiyotigagina xos bo‘lgan tasvir maromi va me‘yorlari juda ta’sirli shakllarda talqin etilgan.

Ergash Ochilning 2000ga yaqin ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari chop etilgan. Birgina turli qomuslar uchun mingga yaqin maqola yozgan. Jumladan, 12 jildlik “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da (2000–2006) 40 ga yaqin, 2 jildlik “Alisher Navoiy” qomusiy lug‘at”ida (2016) 200 ga yaqin, 4 jildlik “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”da (2024) esa 750 dan ziyod maqola bilan qatnashgani ayni haqiqatdir. Ular orasida “Abdullaev Ahmad” [2.26], “Abr” [2.41], “Mavloni Solihiy” [3.26], “Oshnolik” [4.453], “Chavgon” [4.453], “Chag‘ona” (4.453) singari ixcham axborotlar bilan birga “Abdusalom Abduqodirov” [2.37-39], “Badoe’ ul-bidoya” [2.212-215]; “Layli va Majnun” [3.176-181], “Nasoyim ul-muhabbat” [4.150-152], “Sheroziy Sa’diy” [5.425-427], “Sheroziy Hofiz” [5.427-431] kabi ancha salmoqli va keng ko‘lamli maqolalar ham mavjud.

Ergash o‘zbek va umuman, Sharq adabiyoti durdonalarini xalqaro miqyosda targ‘ib va tashviq qilish borasida ham ko‘plar uchun o‘rnak va namuna ko‘rsatib kelmoqda. Uning o‘ttizdan ziyod maqola va tezislari Rossiya, Eron, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistondagi nufuzli nashrlarda bosilib chiqqan.

Ko‘plab xalqaro (Eron, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Gruziya) va respublika (Toshkent, Samarqand,

Buxoro, Xorazm, Navoiy, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Termiz, Qo‘qon, Guliston) miqyosidagi ilmiy anjumanlar ishtirokchisi.

Ergash Ochilov tarjimasidagi atoqli turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumqulining “Asarlar” to‘plami 2014-yilda O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan, “Elingga baxsh ayla” kitobi 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Turkmanistonning o‘sha davrdagi Prezidenti, hozirda Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga taqdim qilingan. Uning hamkorlikda nashrga tayyorlagan Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat maxzani” kitobi esa Tojikistonga rasmiy safari chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonga taqdim qilingan (2018).

U “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Naqshbandiya”, “Buxoro mavjlari” jurnallari tahririyati a‘zosi. 2000-yildan “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining mas‘ul kotibi.

Hozirda “Forsiydan o‘zbekchaga she’riy tarjima muammolari” mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.



Ergash Ochilov talabalar o‘rtasida munosib e‘zoz va e‘tibor topgan ustoz murabbiydir. Hazrat Navoiy aytganlaridek, “Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas, har qattig‘ kishini bir tifi muhofazati ojiz etar, ul bir surukka ilm va adab o‘rgatgay, anga ne yetar. Oncha borkim, ul qavmning idroku fahmi oz tushar, andoq kishiga yuz muncha mashaqqat ne bushar. Har taqdir bila atfolg‘a haqqi ko‘pdur, agar podshohliqqa yetsa va anga qulluq qilsa xo‘bdur” [2.27-28].

Olimning yuqori malakali ilmiy-pedagogik

kadrlarni tayyorlashdagi xizmatlari ham e'tibor va e'tiroflarga loyiq. Uch nafar filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), yigirmaga yaqin magistr tayyorlagan. Yana 2 tadqiqotchi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 2 magistrant magistr ilmiy darajasini olish uchun uning rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Muntazam va mashaqqatli mehnatning samara va e'tiroflari ham shunga mos va munosibdir: Turkman adabiyoti tarjimai va tadqiqi borasidagi faol faoliyati uchun Turkmaniston Respublikasining xalqaro "Maxtumquli-Firog'iy" medali bilan (2014); O'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligini rivojlantirish yo'lidagi ko'p yillik samarali mehnatlari O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan (2021).

Ergash Ochilov – oilali. U uch nafar o'g'ilning otasi, 4 nafar nabiraning bobosi hamdir.

Ergash Ochilov mumtoz adabiyotimizning ashaddiy muxlisi va tolmas targ'ibotchisi sifatida ham katta hurmat qozongan. Uning ko'plab kitob, maqola va ma'ruzalari mana shu nodir ummon bag'ridagi nodir injularni bugungi zamondoshlarimiz, xususan, yoshlarni ko'zlab yozilgani, ularda o'sha ma'naviyat injularining ma'no va mazmuninini to'la va yaxlit holda idrok etishlari uchun juda oddiy va qulay, sodda va samimiy, shunga qaramay, tushunarli va ta'sirchan libosdagi ifodalar qo'llangani bilan e'iborlidir.

Xalqimizda ko'p mehnat qilgan bo'lishiga qaramasdan, o'zini har doim kamtar va kamsuqum tutadigan insonlarga nisbatan "og'ir karvon" degan ibora bor. Bu ibora ayni bizning Ergashimiz uchun ham nihoyatda mos va munosibdir. Hazrat Navoiy aytganlaridek:

Kingaki erlik asari yordur,

Bir demas, ar qilg'oni ming bordur [12.275].

O'zining muborak oltmish yoshini qarshilayotgan Ergash do'stimizning ilmiy-ijodiy ishlariga, umri-yu rizqiga Xudoyim bardavomlik beraversin!

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Matnni izohlar bilan nashrga ayyorlovchi S.G'aniyeva. – Toshkent, Fan, 1998, 112-bet..
2. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. I jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 26-bet.
3. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. II jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 236-bet.
4. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. III jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 234-bet.
5. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. IV jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 453-bet.
6. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. I jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 26-bet.
7. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. II jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 176-181-betlar.
8. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. III jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 150-152-betlar.
9. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. IV jild. – Toshkent, “O‘zbekiston nashtiyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 453-bet.
10. Barakayev R., Ochilov E. Badiiy tasvir mahorati. – Toshkent, 2021. 31-bet.
11. Muhabbat taronalari; Ruboiylar. Fors tilidan Ergash Ochilov tarjimalari. – Toshkent, “Sharq”, 2005, 388-bet.
12. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom. Xamsa. Hayratul-abror. P. Shamsiyev ilmiy-tanqidiy teksti asosida dostonni izohlar bilan nashrga tayyorlovchilar: A. Hayitmetov, I. Haqqulov. – Toshkent. “Fan”, 1991, 392-bet.

FILOLOGIYA

BERUNIYNING O‘ZI O‘ZBEKNIKI, AMMO UNING TAFAKKURI BUTUN OLAMNIKI



**Anvar
ALLAMBERGENOV**

*AQSHning Kaliforniya shtatida
yashovchi sharqshunos va filolog olim
Azizulloh Aral bilan suhbat*



SAVOL. *Xabaringiz bor, 2021-yilda YUNESKO Ijroiya Kengashining 211-sessiyasida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) tavalludining 1050 yilligi YUNESKO shafeligida 2022-2023-yillarda keng nishonlash bo‘yicha qaror qabul qilindi. 2022-yil 25-avgust kuni “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Sizda Abu Rayhon Beruniy hazratlarining bir vorisi o‘laroq bu qarorlardan so‘ng qanday o‘y-fikrlar kechmoqda?*

JAVOB. Avvalambor, buyuk alloma va jahonshumul mutafakkir bobomiz Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniyning ruhlari shod va joylari Jannatda bo‘lgan bo‘lsin! Bugunga kelib jahon diqqat-e’tiborini o‘ziga jiddiy jalb etgan bunday ulug‘ insonning tabarruk xoki nega ming yildan buyon bunchalik xor-zor bo‘lib yotibdi, degan tashvish-iztiroblarim zora O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev janoblarining sa’y-harakatlari, o‘tmishimizga diqqat-e’tiborlari tufayli quvonch-u iqbolga aylansa. Bu so‘zlarni Abu Rayhon Beruniyning oyoqosti

bo‘lib yotgan qabrini (toshlar yig‘indisidan iborat bir belgi desak to‘g‘riroq bo‘lar edi) yaqindan borib ko‘rgan, ko‘z yoshi to‘kkan, bosh urib ziyorat qilgan bir avlod, bir guvoh sifatida qayd etib o‘tishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qilgan tarixiy qarori undadi. Qabrning o‘sha men ko‘rgandagi ko‘rinishidan olingan suratni suhbatimiz so‘ngiga ilova qilamiz. Darvoqe, dunyoning qayerida bo‘lmasin, o‘zbek o‘z ulkan madaniy merosiga, tarixiy shaxsiyatlariga, ilmiy-adabiy boyliklariga birinchi bo‘lib o‘zi ega chiqishi, o‘zi avaylab-asrashi zarur deb bilaman. Aynan men tilga olgan mavzu xususida 2018-yilning fevralida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Afg‘oniston hukumatining Abu Rayhon Beruniy maqbarasini ta‘mirlash va qayta tiklash loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirishda hamkorlik qilish bo‘yicha Afg‘oniston tomoni murojaatini ko‘rib chiqqanligi haqida O‘zbekiston Respublikasining Kobuldagi elchixonasi xabar tarqatgan edi. Ammo Afg‘onistonning o‘sha paytdagi hukumati bu ishga jiddiy e‘tibor bermagani bois paysalga solinib kelindi. Demoqchimanki, YUNESKO shafeligida Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi munosabati bilan o‘tkaziladigan har qanday tadbirning bosh maqsadi Beruniy maqbarasini qayta tiklash bo‘lishi kerak.

SAVOL. *Akademik Krachkovskiy ta’kidlaganidek, Beruniy qiziqqan sohalarni sanab chiqishdan ko‘ra qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir. Bugungi axborot asrida bir tadqiqotchining, bir olimning Beruniy shug‘ullangan sohalarni to‘liq tadqiq qilib, o‘rganib chiqishi amri mahol. Ayting-chi, Abu Rayhon Beruniy dahosi va ijodi sizni qaysi qirralari bilan qiziqtirgan? U bo‘yicha qanday tadqiqot ishlari, kuzatishlar olib borgansiz?*

JAVOB. To‘g‘risi, men beruniyshunos emasman. Har kim beruniyshunos bo‘la olmaydi ham. Ammo Beruniyning bir vorisi sifatida unga nisbatan qiziqishim nihoyatda kuchli. Bu qiziqish meni 2018-yilda Afg‘oniston hukumati tomonidan tashkil etilgan Abu Rayhon Beruniy shaxsiyati va ijodiy faoliyatining turli qirralarini chuqur o‘rganish xalqaro anjumanning ilmiy qo‘mitasi mas‘uliyatini olishgacha undadi. “Bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlash” mavzusida tashkil etilgan ushbu ilmiy-amaliy anjumanda xorijiy o‘lkalar, jumladan O‘zbekiston, Hindiston,

AQSH, Germaniya kabi o'lkalardan qatnashgan beruniyshunos olimlarning ilmiy-tadqiqiy maqolalarini ko'zdan kechirar ekanman, Abu Rayhon Beruniyning bir necha yuz yil davomida dunyo miqyosida muhim ahamiyatga molik bo'lgan ilmiy g'oyalari va shaxsiyatining bir qancha jihatlaridan saboq olishim kerakligi qiziqishimni yanada orttirib yubordi. Bu qiziqish natijasida "Uch tamaddunni birlashtirgan alloma" sarlavhali maqolam, Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1045 yilligi munosabati bilan nashr etilgan "Majmuai maqolot" ("Maqolalar to'plami")dan o'rin oldi. Shu bilan birga, Beruniy hayoti va ijodiyotiga oid "Nigini G'azna" ("G'azna javohiri") nomli asarni tarjima qilishimga sabab bo'ldi.

SAVOL. *Ilm kishilarining ijodi hamisha ko'pchilikni qiziqtirgan, e'tiborini tortgan. Shu ma'noda beruniyshunoslik ham alohida bir mavzu. Sizningcha, ilk beruniyshunoslik qachondan boshlangan? O'rta Osiyo va jahon ilm-fanida dastlabki beruniyshunoslardan, shu kungacha bo'lgan yirik beruniyshunoslardan kimlarni bilasiz?*

JAVOB. Abu Rayhon Beruniy uzoq yillardan buyon dunyo sharqshunos olimlari tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilib kelinmoqda. Ammo Beruniy hayotining katta qismini o'tkazgan, uning xoki orom olayotgan hudud (Afg'oniston)da yetarli beruniyshunoslarni kuzatish qiyin, borlari ham barmoq bilan sanarli va Beruniy xususidagi ijodlari ham juda mahdud. Shu o'rinda Afg'onistonlik beruniyshunoslardan tarix fanlari doktori Aziz Ahmad Panjsheriy, falsafa fanlari doktori Said Nurulhaq Kovush, filologiya fanlari doktori Do'st Muhammad Parvoniy kabilarni sanab o'tmoq joiz. Beruniy har yerga nisbatan O'zbekistonda chuqurroq va kengroq o'rganilib kelinmoqda. Bu yerda uning hurmati ham o'z o'rniga qo'yilgan. Kobulda 2018-yil 6-8-sentyabr kunlari bo'lib o'tgan Beruniy anjumanida o'zbekistonlik beruniyshunos olimlardan tarix fanlari doktori professor Ashraf Ahmedovning ma'ruzalari "Beruniy har yerga qaraganda O'zbekistonda ko'proq o'rganilgan" degan fikrimizni isbotlaydi. Aytib o'tish joizki, xuddi shu anjumanda O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslik instituti doktoranti Feruza Jumaniyazova va mazkur akademiya tayanch doktoranti Umida

Kuranbayevalar ham o'zlarining Beruniy haqidagi maqolalari bilan qatnashdilar. O'zbek beruniyshunos olimlaridan akademik H.A.Abdullayev, Baxtiyor Karimov, Baxtiyor To'rayev va yana o'nlab mutaxassis, tadqiqotchi olimlarni tilga olish mumkin.

Xorijlik beruniyshunoslarga keladigan bo'lsak, XI asrning mashhur tarixchilaridan Abul Fazl Bayhaqiy, XIII asrning arab jug'rofiyadoni Ya'qub al-Hamaviy, XIX asrdagi Nemis sharqshunosi Edvord Zaxau, shuningdek, XIX asrning amerikalik sharqshunos olimi Jorj Sarton, XX asr hind olimi Hamid Rezo, rus olimi Ignatiy Krachkovskiy, XXI asrning amerikalik beruniyshunos olim Frederik Starr va boshqa talaygina olimlarni sanab o'tmoq o'rinli.

SAVOL. *Bugungi kun beruniyshunosligini qanday baholagan bo'lardingiz?*

JAVOB. XXI asr beruniyshunosligini o'tgan asrlardagiga qaraganda ancha shaffof, ochiq, haqqoniy va chuqur deyish mumkin. Chunki bugunga kelib Beruniyga nisbatan erkin va hech qanday fikr to'sqinligi muvjud bo'lmagan shaklda yondashilmoqda. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, ma'naviyati bir butun yaxlitligicha o'rganilmoqda. Zotan, G'arb sharqshunoslarida Beruniyga nisbatan shunday yondashuv avvaldan mavjud bo'lgan, biroq bugunga kelib, ushbu buyuk mutafakkirning kelib chiqishi, irqi, kindik qoni to'kilgan yurti va nasi-nasabi adolatli ravishda, "Beruniyning o'zi o'zbekniki, ammo uning tafakkuri butun olamniki" deya tan olinmoqda. Kat, Gurganj, Buxoro, Lahor, G'azni va Lashg'ariy Bozor kabi shaharlarda yashab, ijod qilgan Abu Rayhon Beruniyga bugun O'zbekiston, Eron, Turkmaniston va Avstriya kabi o'lkalarda haykallar o'rnatilgan. Xivada uning zamonida faoliyat olib borgan Ma'mun akademiyasi qayta ishga tushgan. Turkiy xalqning haqiqiy farzandi, Markaziy Osiyoning Oltin asrga olib chiqqan bilimdon donishmandining ma'naviy merosini to'g'ri, chuqur va mukammal o'rganish bugungi hayotni ham oltin hayotga aylantirishi mumkin. Qisqasi, agarda Beruniy tafakkurlari olimlar tomonidan dadil va qat'iyatli o'rganilayotgan bo'lsa, bugungi beruniyshunoslikni ijobiy baholasak bo'ladi.

SAVOL. *Bu savol ham oldingi savollarning mantiqiy davomi desak bo'ladi. Ayting-chi, sizningcha kelgusidagi beruniyshunoslik qanday bo'lishi kerak, Beruniy*

ijodining qaysi qirralari tadqiqotalab deb hisoblaysiz? Ayni damda beruniyshunoslikdagi eng dolzarb masalalar nimalardan iborat?

JAVOB. Ma'lumki, Beruniy o'z davrida mavjud bo'lgan fanlarni tasniflab, insoniy fanlarga alohida ahamiyat bergan, ijtimoiy hodisalarga e'tibor qaratgan. Albatta, undan oldin ham olimlar ijtimoiy hodisalar haqida gapirganlar, ammo Beruniyning Islom olamidagi ko'pgina olimlardan farqi shundaki, u inson va ijtimoiy masalalarni o'rganishda matematik usuldan foydalangan. Ijtimoiy sohada u sivilizatsiya, qarindoshlik tizimlari, dinlar, urf-odatlar, til va tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan va o'z g'oyalarini taqdim etgan. Shularni nazarda tutgan holda ayniqsa uning jamiyat, ijtimoiy tabaqalar, din, til va madaniyat haqidagi g'oyalari kengroq yoritilishi va fikrlarining rivojlanishidagi ta'sirini o'rganish o'ta muhim deb hisoblayman. Chunki Beruniy nafaqat matematik va tarixchi, balki ijtimoiy fanlar nazariyotchilaridan biri ekanligi hammaga ma'lum. Bu yerda muhim masala shundan iboratki, Beruniy ishining yangiligi, uning tadqiqot usuli, ijtimoiy g'oyalarini shakllantiruvchi omillarni to'g'ri ochib berish kelak bo'ladi. Shunday ekan, beruniyshunoslikdagi eng dolzarb masalasa uning o'rganilmagan asarlarini o'rganish va jahon tillariga tarjima qilib nashr qilishdan iborat.

SAVOL. *Ko'plab alloma ajdodlarimiz qomusiy bilim sohibi bo'lishgan. Lekin shunga qaramasdan, ular shug'ullangan sohalarning bittasida shuhrat qozongan. Masalan, Muhammad Xorazmiy matematikada, Ibn Sino tibbiyotda, Mirzo Ulug'bek falakkiyotda peshqadam olim sifatida mashhur. Vaholanki, ularga qomusiy olim ta'rifi bekorga berilmagan. Shulardan kelib chiqqan holda Beruniy boboni qaysi fanning otasi deyishimiz mumkin? Yana ham aniqrog'i, sizningcha, Beruniy o'zining bor imkoniyatlarini qaysi fanda ko'rsata olgan?*

JAVOB. Amerikalik taniqli sharqshunos olim Frederik Starr al-Beruniyni “qadimgi dunyo va Yevropa kashfiyotining buyuk davri o'rtasidagi eng buyuk tadqiqotchi” deb ta'kidlagan. Uning bu fikridan kelib chiqib aytish mumkinki, Beruniy aql va mantiqni tizimli va qat'iy qo'llashning kashshofi bo'lib, unga diniy yoki dunyoviy aqidalar yohud xalq og'zaki ijodi yoki bo'lmasa boshqa omillar

to'sqinlik qilmagan buyuk qomusiy allomadir. Boshqa bir amerikalik sharqshunos olim professor Kennedi fikricha, Beruniy o'lchovlar haqida fikr bildirib, ularni dunyoga tanitish uchun uzoq umr sarflagan algebrachi olim. Markaziy osiyolik beruniyshunosdan ayrimlari shu fikr ortidan borib, Beruniy qanday o'lchovlar haqida fikr yuritganini bilishimiz kerak, toki biz o'tmishimizni, bugunimizni va kelajagimizni ana shu fikrlar nurida birlashtirib, u bilan mustahkam aloqa o'rnatishimiz mumkin, deb ta'kidlashadi. Beruniy yozgan har bir asar o'ziga xos ensiklopediya bo'lgani uchun bu mutafakkirni faqat bir sohaga xos olim deyish qiyin, chunki u yozgan 200 ga yaqin asarlar astronomiya, matematika, geografiya, geodeziya, mineralogiya, kartografiya, tarix, dinlar tarixi, tillar va adabiyotni o'z ichiga qamrab oladi. Demak u keng qamrovli ensiklopedik alloma bo'lgan va shunday bo'lib kelmoqda.

SAVOL. *Beruniy boboga o'z davridan tortib to bugungi kunga qadar bo'lgan zamonda ilm-fanda, jamiyatda va siyosatda nom qoldirgan ko'plab shaxslar har xil fikrlar bildirishgan (masalan, Beruniy qiziqqan sohalardan ko'ra qiziqmagan sohalarni sanash osonroq ..., XI asrning birinchi yarmi Beruniy asridir,) Siz Abu Rayhon Beruniy dahosini qanday ta'riflagan bo'lardingiz?*

JAVOB. Men bu serqirra dahoni, "Abu Rayhon Beruniy – uch tamaddunni birlashtirgan o'rta asrning O'rta osiyolik ensiklopedik allomasi!" – deb ta'riflagan bo'lar edim.

SAVOL. *Bobomiz kashf etgan ko'pgina ilmiy yangiliklar vaqt o'tishi bilan jahon ilm-fan tarixida boshqa olimlar nomi bilan tilga olinadigan bo'lgan. Qomusiy bilimlar sohibi hazrati Beruniy shug'ullangan sohalarning bir tarmog'i bilan faoliyat olib borib, tarixga o'zlarining nomlarini muhrlab ketganlar qancha (Nyuton, Eynshteyn, Plank, Rezerford, Geyzenberg, Shredinger, Bor, Pauli, Dirak bular safini uzoq davom ettirish mumkin). Aslida yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar kashfiyotlarining ilk bashoratchisi va mualliflaridan biri bizning bobomiz Abu Rayhon Beruniy ekanligini hazratning vorislari sifatida jahon afkor ommasiga qanday isbotlashimiz mumkin?*

JAVOB. Buning uchun eng avvalo biz, tarixsozlikdan tarixnavislik tomon o'tishimiz kerak. Biz qisqa bo'lsa ham o'z tariximizni o'zimiz yozishimiz kerak. Bizni biz orqali tanigan shaxslar bobolarimizning ilm-fan sohasidagi kashfiyotlarini o'zlariga nisbat berishga jur'at eta olmasligi aniq. Ko'pincha biz o'zimizning ajdodlarimiz va ular yaratgan yodgorliklar, obidalar, asarlarini boshqalar yozgan tarix orqali o'qib, o'rganib kelganmiz. Aslida biz tarixiy shaxslarning asarlari asliyatining tanqidiy matnini yaratib, jahon afkor ommasiga taqdim etishimiz darkor. Beruniyning barcha asarlarini to'plab, o'zbek va ingliz tillarida yaxlit ensiklopediyasini yaratish va uni internetga qo'yishning o'zi dunyodagi talay kashfiyotlarning ilk bashoratchisi Beruniy ekanligini isbotlab beradi.

SAVOL. *Beruniyning turli xil rakursdagi siymosini yaratish bo'yicha shoir, yozuvchi, rassom, haykaltarosh, rejissor va shu kabi ijod sohasi vakillarining ishlari haqida nimalar deyolasiz? Va shu o'rinda qaysi ijodkorlarning nomlarini alohida tilga olgan bo'lar edingiz?*

JAVOB. Aslida Abu Rayhon Beruniy hali to'la-to'kis mukammal o'rganilmagan qomusiy alloma. Ammo Beruniyning ilmiy merosini tadqiq etgan barcha olimlar, uning biografik drama filmini yaratgan rejissyorlar, bastakorlar, xullas hammaning nomini tilga olgim keladi. Misol uchun allomaning ilmiy merosini tadqiq etgan, uning faoliyati haqida qator risola, asarlar yaratgan bir qancha o'zbekistonlik olimlarning ismini keltirib o'tish bilan kifoyalanaman: H.M.Abdullayev, I.M.Mo'minov, V.Y.Zohidov, Y.G'.G'ulomov, U.Karimov, S.A.Bulgakov, A.Irisov va A.Ahmedovlar ana shunday olimlar jumlasidandirlar. Shuni alohida ta'kidlamochimanki, bundan yarim asr oldin Beruniy haqida "O'zbekfilm" studiyasi ijodkorlari 2 qismdan iborat "Abu Rayhon Beruniy" filmini yaratgan. Mashhur o'zbek yozuvchisi Uyg'un "Abu Rayhon Beruniy" pyesasini yozgan. Bu ishlar ham o'z navbatida katta ahamiyat kasb etadi.

SAVOL. *Abu Rayhon Beruniy nomini abadiylashtirish, uning bashariyat uchun qilib ketgan xizmatlarini munosib baholash, qomusiy allomaning shaxsi va ilmiy-*

ma'rifiy merosiga doir yana qanday targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

JAVOB. Nazarimda hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib O'zbekistonda "Beruniyshunoslik xalqaro mustaqil markazi"ni tashkil etish kerak. Ushbu markaz barcha erkin va mustaqil fikrlovchi mahalliy va chet ellik beruniyshunos olimlarni bir yerga jamlashi va ular Beruniy ilmiy-ma'rifiy merosining ochilmagan jihatlarini asliyat asosida ochib berishlari zarur, deb hisoblayman.

SAVOL. *Bugungi kun yoshlariga Beruniy hayoti bilan bog'liq qaysi voqealarni namuna sifatida ko'rastish lozim, deb hisoblaysiz?*

JAVOB. Beruniy "Mening kitoblarim, mening bolalarim" degan. Kimda-kim kitobga mehr qo'ysa, insoniyat yuziga ilm-ma'rifat eshigini ochgan bo'ladi. Mutafakkirlar so'zi bilan aytganda, yaxshilik qilish uchun kitob o'qish lozimdir. Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun ilm kasb etish bilan birga mehnatsevar bo'lishi ham kerak, deydi. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Jamiyatning ravnaqi ilm-ma'rifatning rivojiga – kitobxonlikka bog'liq degan g'oyani ilgari suradi.

SAVOL. *Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi borasida kelgusida qanday izlanishlar olib borishni rejalashtirgansiz?*

JAVOB. Suhbatimiz boshida aytib o'tganimdek, men beruniyshunos emasman. Ammo Beruniy ilmiy merosi har bir sog'lom fikrli insonni uni qayta-qayta o'rganishga chorlaydi. Men ham Abu Rayhon Beruniy tafakkurini o'rganishda davom etaman.

FILOLOGIYA. ADABIY MEROS**DOVULDEK KECHGAN UMR****Xurshid Davron, O‘zbekiston xalq shoiri**

Xorazm viloyatining Shovot tumanida tug‘ilgan Bahodir Sodiqov (1959-1980) o‘tgan asrning 80-yillarida o‘zbek adabiyotshunosligi maydonida paydo bo‘lgan salohiyati baland olim edi. O‘sha yillari uning “Sharq yulduzi”, “Yoshlik” jurnallarida, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligida, adabiy-tanqidiy “Kamalak” almanaxida bosilgan ilk ilmiy-badiiy tadqiqotlari jiddiy bahslarga sabab bo‘lgani bu fikrning tasdig‘idir. Haqiqatan ham Bahodirning mumtoz va zamonaviy adabiyotning dolzarb masalalariga, yangilanayotgan o‘zbek she’riyatidagi tajribalarga bag‘ishlangan maqolalari adabiyotshunoslik iqlimida juda katta qiziqish uyg‘otgan, adabiy jamoatchilik yosh olimning kelajagiga katta umid bilan qaragan edi.

Mening ilk nashr etilgan to‘plamlarim: “Shahardagi olma daraxti” va “Qadrdon quyosh”dagi she’rlaringa munosabat bildirilgan dastlabki maqola-taqrizni ham Bahodir yozgan edi. Uning “Tushlarga sig‘magan Vatan” maqolasining ayrim munaqqidlar taqrizlaridan farqi shunda ediki, u maqtovg’a, shoir she’rini izohlashga berilmay, ijodkor dunyoqarashi va she’rning ichki, botiniy qatlamini ochiqlashga urinardi. Bu adabiyotshunosligimizda yangicha tafakkur mavsumini boshlab berishga qodir munaqqid kirib kelayotganini anglatardi.

O‘sha olis yillar Bahodir Sodiq meni nomi unutilishga mahkum etilgan buyuk tasavvuf shoiri So‘fi Ollohyorga suhbatdosh etgan edi. U mendek eski qo‘lyozma yozuvni o‘qiyolmaydigan savodsizga shoir g‘azallaru-yu munojotlarini bir daftarga ko‘chirib, taqdim etar ekan, “Bularni bilmasangiz, umringiz hayf” degan so‘zlari oradan shuncha vaqt o‘tib ham qulog‘im ostida hamon jaranglab turadi. So‘fi Ollohyor g‘azallari bilan tanishgach, inja va betakror satrlarga, ayniqsa, ularning sehrli ohanglariga shu qadar mahliyo bo‘lgan edimki, buni o‘sha yillari



yozilgan “Devonul lug‘atit turk” ohanglari” turkumidagi she’rlarimni o‘qigan odam darrov sezib olishi mumkin. Bahodir bergan daftarni boshqa shoirlar bilan baham ko‘rganim ham esimda. Daftar bilan tanishganlardan biri – Mirzo Kenjabek So‘fi Olloyorning benazir “Munojot”idan ta’sirlanib, uning ohangida o‘z “Munojot”ini yozgan edi. Men bugungacha Bahodirdan ayni shu ishi – yuragimni qadimiy she’riyat bog‘lari tarovatiga oshno etgani uchun dil-dilimdan minnatdor bo‘laman.

Bahodir Sodiqov mumtoz adabiyotni chuqur bilishga intilgan, bu sohadagi mavjud muammolar, xususan, mumtoz adabiyot namunalarini nashr etishda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar haqida hozirjavoblik bilan munosabat bildirishdan qochmaydigan, o‘z fikrini dadil himoya qila oladigan tadqiqotchi edi. Bu o‘rinda birgina mumtoz shoir Boborahim Mashrab asarlarining nashri bilan bog‘liq “Bir devon bahsi” nomli maqolani eslash kifoya. Har jihatdan teran maqola bir tomondan bor-yo‘g‘i 20 yoshga kirgan Bahodirning mumtoz adabiyotimizning nechog‘lik nozik tushunganini ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘zidan oldingi tajribali olimlar bilan asosli ravishda bahs eta olishga qodir jur‘atli olim dunyoga kelganiga hujjat edi.

Taassufki, hayotlik chog‘larida Bahodirning so‘fiy shoirlar ijodiga doir tadqiqotlarining matbuotda yoritilishiga hukmron mafkura monelik qildi.

Bahodir Sodiq qanday tuzumda yashayotganini chuqur anglar, qullikda yashayotgan tafakkurning g‘arib va mute’ bo‘lishini idrok etar, faqatgina mustaqillik qatag‘on etilgan milliy qadriyatlarimizni, nomlari tilga olinmay qo‘yilgan mutafakkir ajdodlarimiz qoldirgan merosning asl qadrini ro‘yi rost tiklashiga ishonar edi. Bu ishonch uning o‘limi arafasida yozgan bir she’rida yorqin namoyon bo‘lgan edi:

*Esa boshlar ishonch shamoli,
Va ko‘pirar kurash to‘lqini.
Ham ozodlik dengizi uzra,
Ko‘rinadi baxtlar yolqini.
Hali ko‘pdir qullik qoyasi,
Ozodlikning dengizi ichra.
Ey, shamollar, dovuldek esing,
Va sen, to‘lqin, qoyaga sachra!*

*Shamol hamda to‘lqin, birlash va
Qoyalarning qirg‘og‘in kemir.
Ey sen, dengiz, qullik orolin,
Qahr ila qa‘ringga simir!
Shunda qoya o‘smog‘i uchun,
Xunta bo‘lib otilmas vulqon.
Zamondoshim, ozodlik uchun,
Kurashga chiq, uyqudan uyg‘on!*

Yosh olimning fojiali o‘limi adabiyotimizni zukko va bilimdon olimdan, bizni pokiza qalb egasi bo‘lgan insondan judo etdi. Uning fojiali o‘limida o‘z jonini qurbon qilish evaziga o‘zgalar hayotini saqlab qolishdek, kamdan-kam inson jur‘at eta oladigan buyuk insoniy jasorat namoyon bo‘lganini aslo xotiramizdan chiqarmasligimiz kerak.

Bahodir Sodiqning vafotidan so‘ng “Insonni sevmoq kerak” kitobi yorug‘lik yuzini ko‘rdi. Uning bu kitobi Sharqning ko‘hna “Olimning o‘limi – olamning o‘limidir” hikmati mohiyatidagi haqiqatni yana bir karra ochiqsladi.

Shuningdek, xorazmlik tarixchi va publitsist Umid Bekmuhammad Bahodir Sodiqov merosini to‘plab, uning hayoti va ijodini targ‘ib qilib kelmoqda. Tarixchi ukamiz Bahodir haqida ocherk yozdi va uning maqolalari, ijod namunalarini to‘plab “Xotira uyg‘onsa go‘zaldir” nomli kitobni nashr ettirdi. Umidbekning ushbu to‘plamida ilk bora Bahodirning o‘spirin paytida yozgan ilk, afsuski, tugallanmagan ikkita dostoni berilgandi.

Mirzo Kenjabekning kursdoshi va do‘sti Bahodir xotirasiga bag‘ishlagan she‘rida mana shunday satrlar bor:

*Sening qoralama satrlaringda
Tirilmoqda edi qaytadan
Ko‘hna Xorazmning mo‘rt tomirlari...*

Bahodir Sodiq qoldirgan bitiklar, hoh she‘rlari, hoh maqolalari bo‘lsin, bugun bobolari merosi qatiga qo‘shilib, qadimiy Xorazmning ko‘hna tomirlariga quvvat ulashayotganiga ishonaman.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

8 (29)
2025-yil, avgust.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 5,5 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22